**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/8]**
**ISSN 2181-7324**

**TARIX**
http://journals.nuu.uz
Social sciences

**UDK: 325.111:004.1(584.4)**

***Ravshan ABDUZOHIROV,***
*O‘zbekiston Milliy universiteti o‘qituvchisi*
*E-mail – ravshan_abduzohirov93@mail.ru*

*O‘zRFA Tarix instituti professori, t.f.d A.Ashirov taqrizi asosida*

## THE ROLE OF DIGITAL TECHNOLOGIES IN ILLUMINATING MIGRATION PROCESSES

Annotation
Migration processes are a phenomenon that does not change its importance in the past and now. As a result, the changes in people's culture, the factors affecting a person's personal qualities as a result of migration, the study of the positive and negative aspects of migration to the culture of a person's society are constantly in the focus of researchers. In the era of globalization, the importance of modern digital technologies in the study of migration is increasing. The communication of migrants who have to live far from their loved ones is carried out directly on digital technologies and social networks. Elucidating the emotional experiences of migrants, changes in their culture, their status as a hidden person in the networks, learning through their activities in social networks indicates that the importance of digital technologies in the illumination of migration processes is high.
**Key words:** Migration, digital technology, social network, virtual world, nike, Avatar, globalization, Cyberspace, culture, virtual threat, etc.

## РОЛЬ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОСВЕЩЕНИИ МИГРАЦИОННЫХ ПРОЦЕССОВ

Аннотация
Миграционные процессы - явление, не меняющее своей значимости в прошлом и в настоящее время. В результате изменения в культуре народа, факторы, влияющие на личностные качества человека в результате миграции, изучение положительных и отрицательных сторон миграции в культуре отдельного общества постоянно находятся в центре внимания ученых. исследователи. В эпоху глобализации возрастает значение современных цифровых технологий в изучении миграции. Общение мигрантов, вынужденных жить вдали от своих близких, осуществляется непосредственно в цифровых технологиях и социальных сетях. Выяснение эмоциональных переживаний мигрантов, изменений в их культуре, их статуса скрытой личности в сетях, обучение через их деятельность в социальных сетях свидетельствует о том, что значение цифровых технологий в освещении миграционных процессов велико.
**Ключевые слова:** Миграция, raqamli technologiyalar, ijtimoiy tarmoq, virtual dunyo, nike, Avatar, globallashuv, kibermakon, madaniyat, virtual tahdid va boshqalar.

## MIGRATSION JARAYONLARNI YORITISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI O‘RNI

Annotatsiya
Migratsiya jarayonlari o`tmishda va hozirda ham o`z ahamiyatini o`zgartirmaydigan hodisa hisoblanadi. Uning natijasida insonlar madaniyatidagi o`zgarishlar, insonning shaxsiy fazilatlariga ko`chish natijasida ta’sir etgan omillar, migrtsiyaning kishilik jamiyatining madaniyatiga ijobiy va salbiy jihatlarini o`rganish doimiy tarzda tadqiqotchilarni diqqat markazida bo`lib kelmoqda. Globallashuv davrida migratsiyani o`rganishda zamonaviy raqamli texnologiyalarni ahamiyati ortib bormoqda. O`z yaqinlaridan uzoqda yashashga to`g`ri kelayotgan migrantlarning yaqinlari bilan muloqoti bevosita raqamli texnologiyalar, ijtimoiy tarmoqlarda olib borilmoqda. Migrantlarning hissiy kechinmalari, madaniyatidagi o`zgarishlar, tarmoqlardagi yashirin inson kabi holatini yoritib berishi, ijtimoiy tarmoqlardagi faoliyati orqali o`rganish migratsion jarayonlarni yoritishda raqamli texnologiyalarni ahamiyati yuqori ekanligidan dalolat beradi.
**Kalit so‘zlar:** Migratsiya, raqamli texnologiyalar, ijtimoiy tarmoq, virtual dunyo, nike, Avatar, globallashuv, Kibermakon, madaniyat, virtual tahdid va boshqalar.

**Kirish**. Migratsion jarayonlar o`tmishda va hozirda ham muhim voqea sifatida o`rganilgan. Migratsiya nima? U qanday tizim sifatida namoyon bo`ladi? Uni qanday o`rganish mumkin? – degan savollarga hozirgi kunda raqamli texnologiyalardan foydalanmagan holda o`rganish qiyin albatta. XX asrning oxirlaridan turli sohalardagi tadqiqotlar kabi antropologiya va etnologiya sohasida raqamli texnologiyalardan foydalangan holda turli mavzularni yoritish boshlandi. Dastab, antropologiya sohasida raqamli texnologiyalardan foydalangan holda o`rganish, tadqiqot olib borish Amerikalik olimlar tomonidan amalga oshirildi. Insonni turli raqamli texnologiyalar dunyosidan turib, tahlil qilish ancha takomillashdi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Migratsion jarayonlarni o`rganishga doir adabiyotlar tahlili 2 guruhga bo`lib o`rganilishi amalga oshirildi. Bularga xorijiyda va yurtimiz tadqiqotlarda amalga oshirilgan ishlarni keltirishimiz mumkin.

Xususan amerikalik tadqiqotchilar Cherni, Lin, Kertis, Pavel, Damer, Bryus, Dibbell, Julian, Morningstar, Chip va Randall Fermer, Pakkanelya, Lusiano, Syuzan Li, yurtimiz tadqiqotchilari I. Shamsiyeva, Muhammad Amin Yahyo va boshqalar o`zlarining asarlarida raqamli texnologiyalar orqali insonlarni ijtimoiy va madaniy xususiyatlarni o`rganishganlar.

**Tadqiqot metadologiyasi**. Maqola umumqabul qilingan tarixiy-etnologik metodlardan keng foydalangan holda yoritildi. Bunday metodlarga – tarixiylik, qiyosiy-mantiqiy tahlil, ketma-ketlik, so`rovnoma, kuzatuv va boshqa metodlar kiradi. Bu kabi metodlar tadqiq etilayotgan mavzuni yoritishda muhim omil bo`lib xizmat qiladi.

**Tahlil va natijalar**. Kaliforniyaning Stenford universiteti tadqiqotchilari Cherni, Lin. 1999-yilda “Suhbat va

hamjamiyat: virtual dunyoda suhbat” mavzusida izlanishlar olib boradi. Chernining ElseMOO etnografiyasi onlayn ijtimoiyliklarni "o'z nuqtai nazaridan" o'rganishning dastlabki namunasidir, chunki u o'z ma'lumotchisidan oflayn rejimda intervyu olishga urinmagan[1]. Cherny navbatni qabul qilish va ro'yxatdan o'tish masalalariga e'tibor qaratadi, bu esa muloqot va tilni onlayn tarzda erta o'rganishga aylanadi. Uning tadqiqotlari Antropologiya sohasida raqamli texnologiyalardan foydalangan holda olib borilgan ilk izlanishlardan biri hisoblanadi. Aynan insonni ijtimoiy tarmoqlar orqali o`rganish, asosan kishilarning o`zaro muloqoti, tilidagi o`zgarishlar ilk bora tahliliy tarzda yoritib berilgan. Bunda tadqiqotchi raqamli texnologiyalardan foydalangan holda, kishilarni muloqot madaniyatini, tilidagi o`zgarishlarni qiyosiy tarzda tahlil qilgan. Bu holat hozirgi kunda o`zbeklarning ijtimoiy tarmoq jamiyatlarida ham namoyon bo`lmoqda. Masalan, Ch-4, Sh-W, O`-6 va boshqa harflarni ijtimoiy tarmoqlarda qulay bo`lish uchun o`zlariga moslashtirgan holda foydalanishadi. Bu ham kishilarni madaniy xususiyatlaridagi o`zgarishlarni yoritishda namoyon bo`ladi. Migrantlarning turmush tarzi, hayot faoliyatini tadqiq etishda ham ushbu usuldan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Chunki, xorijda ma’lum sabablarga ko`ra migratsiya jarayonlarini boshidan kechirayotgan kishilarning o`zbek madaniyatiga xos xususiyatlarida o`zgarishlarni kuzatish va tahlil qilishda asos bo`lib xizmat qilmoqda.

Jahonda ko`plab mamlakatlarning tadqiqotchi olimlari migrantlarning ijtimoiylashish jarayoni qanday kechayotganini tahlil qilishmoqda. Tadqiqotchilar migrantlarni ma’lum jamiyatning normalariga adaptatsiya jarayonlarini ijtimoiy tarmoqlardagi vizual materiallar orqali ochib berishga harakat qilishgan. Chunki ular boshqa jamiyatning qoidalarini qay darajada o`zlashtirganliklarini offline tarzda so`rashsa, qo`rquv natijasida kishilar o`zining haqiqiy hissiy xususiyatlarini yashirishadi.

Tadqiqotchi Dibbell LambdaMOO faqat matnli virtual dunyoni batafsil va ta'sirchan o'rganishni ta'minlaydi, shu jumladan virtual dunyo kontekstidagi ijtimoiylikka qarshi (antisotsial) xatti-harakatlarning dastlabki hisobi bo'lgan "Kibermakondagi zo'rlash" nomidagi asarning maxsus qismida ijtimoiylikka qarshi jihatlarni yoritib berishga intilgan [2]. U, bir qator etnografik mavzularni, jumladan, jamiyat, ishonch, istak va iqtisodiyotni o'rganadi. Amerikadagi muxojirlarni jamiyatga moslashuvi, ijtimoiy ishonch normalari, ularning xohish istaklari, turmush-tarziga kapital munosabatlarni ta’sirini virtual olam ma’lumotlari asosida o`rgangan. O`ragnish natijasida muxojirlarni ijtimoiylashuvga qarshi ekanliklarini, o`zining an’anaviy jamiyatidagi o`ziga xos madaniyatini saqlab qolishga intilishlarini yoritib bergan. Bu holat hozirgi kunda ham ko`plab mehnat muxojirlari faoliyatida uchrab turadi. Xususan, Amerikadagi o`zbeklar o`z madaniyatini saqlash maqsadida alohida mahallalarda joylashib, an’anaviy jamiyatiga xos bo`lgan bayramlar, marosimlarni birga o`tkazishadi. Bu esa ularni ma’lum darajada yashab turgan jamiyatga ijtimoiylashishga qarshi yillar davomida harakatlarini natijasidir.

Hozirgi kunda ijtimoiy tarmoqlarda ko`plab kishilar o`zlarini boshqa nomda ya’ni nike yoki avatarlarni kashf etib, ular orqali muloqotga kirish odat tusiga kirmoqda. Bu holat migrantlar orasida ham o`ziga xos tarzda yoyilmoqda. Masalan, ijtimoiy tarmoqlarda chet ellarda yurgan musofir o`zbeklar o`z profillariga turlicha rasmlar qo`yish bilan bir qatorda, o`z nomlarini ham o`zgartirib olish holatlari kuzatilmoqda. Bu ularning imotsional va ruhiy holati bilan bog`liq holda o`zgarib turadi. Xususan, “O`zbek”, “Qashqir”, “Musofir”, “Sog`indim ona”, Sog`indim vatan”, „O`zbekiston yo`ldaman”, “I love you Qashqadaryo”, “Chiroqchilik yigit” va boshqa nomlarni o`z tahalluslari sifatida foydalanib kelishmoqda. Bu nomlar odatda yurtidan yiroqda yurgan musofirlar profilida ko`proq ko`zga tashlanmoqda. Bu bilan ular o`z sog`inchlarini oshkor qilishni xohlashadi.

Amerikalik tadiqotchi Damerning 1998-yildagi “Avatarlar! Internetda virtual olamlarni o'rganish va qurish” asarida avatarlar, ulani paydo bo`lishi, virtual dunyodagi ahamiyati haqida yoritib berilgan[3]. Virtual olamni o`rganish jarayonida „Avatarlar virtual dunyosini tashkil etish“, uning nazariy va amaliy jihatlarini ilmiy asoslab bergan. Uning fikricha, virtual dunyoda barcha teng huquqli, o`zi yangicha nom va xususiyatlar bilan faoliyat olib borishi mumkin. Shu o`rinda chet eldagi o`zbeklarning ijtimoiy tarmoqlardagi jamiyatlarida, barcha o`z tahalluslari bilan kirishlari va muloqotda shu nom ostida faoliyat olib borishlarini kuzatish mumkin. Bu ularda shaxs daxlsizligini ta’minlaydigan vosita sifatida qaraladi. Ular bu virtual jamiyatda xohlagan mavzusida yozishlari, baxs munozaraga kirishishlar mumkin. Masalan, Facebookdagi „Germaniyadagi o`zbeklar“ guruhida migrantlar o`zlarining ijtimoiy va iqtisodiy muammolarini yozishadi, muhokama qilishadi. Muloqotda ko`pchiligi o`z avatarlaridan faydalanishadi. Bu ularning shaxs daxlsizgini saqlashda yordam beradi.

Raqamli antropologiya kontekstida infratuzilma kundalik ijtimoiylashuvning tez-tez aytilmaydigan fonining asosiy jihatini ifodalaydi va boshqaruv, siyosiy iqtisod va hokimiyat uchun ta'sir ko'rsatadi[4]. Xususan, ijtimoiy tarmoqlardagi ma’lumotlar oqimi, migrantlar faoliyatidagi bazi jihatlarni tartibga solishga yordam beradi. Bunga misol tariqasida ijtimoiy tarmoqlarda O`zbekistonda dollar valyutasidan foydalanishdan voz kechishi mumkin degan xabar tarqalganida, migrantlarning ko`pchiligi yig`ib qo`ygan sarmoyasini ma’lum ko`chmas mulklar sotib olishga sarflashdi. Zero, bu holatda ular sarmoyasini yo`qotib qo`yishdan qo`rqishini ko`rishimiz mumkin. Buning natijasida Toshkent shahrida uy-joylarni narxi ham ancha ko`tarildi. Talab bo`lgandan keyin narx-navo ham ortib boraverdi.

Ko`plab xorijiy tadqiqotchilar bir qatorda yurtimiz olimlari ham raqamli texnologiyalar orqali inson va jamiyatni o`rganish bo`yicha bir qancha izlanishlar olib bormoqda. Xususan, tadqiqotchi I.Shamsiyeva o‘zining ilmiy izlanishlarida zamon talablaridan kelib chiqqan holda yoshlarimizning ijtimoiy tarmoqlarda faolligini ochib berishga harakat qilgan. Shamsiyeva asosiy e’tiborini yoshlarning Tiktokdagi faolligiga qaratgan, so‘rovnomalarni 12 yoshdan 30 yoshgacha bo‘lgan aholi qatlamidan olingan va ularning javoblari yosh kategoriyalaridan kelib chiqqan holda bir – biridan farq qiladi[6]. Tadqiqotchi o’z ishlari orqali yoshlar hayotida ijtimoiy tarmoqlar qanchalik muhum rol o’ynashini yoritib bergan. Bu yoshlar tarkibida oilasida yeroqda mehnat migratsiyasiga tortilgan yoshlarni ham kiritishimiz mumkin. Ular o`z milliy madaniyatidagi yod g`oyalarni odatiy hol sifatida qabul qilib, ijtimoiy tarmoqlarda keng targ`ib qilishmoqda. Masalan, Rossiyada mehnat migranti sifatida faoliyat olib borayotgan yoshlar orasida rus jamiyatiga xos bo`lgan turli xil tomoshalarni ko`rib, ularga taqlid qilgan holatlarni ko`rsatishimiz mumkin.

Muhammad Amin Yahyo tomonidan 2016 – yilda nashr yuzini ko`rgan “Internetdagi tahdidlardan himoyalar” kitobi ham insonlar hayotida raqamli tizimlar va tarmoqlarni ijobiy va salbiy jihatlari yoritib berilgan. Ushbu kitobda yoshlarning ijtimoiy tarmoqlardagi yot g‘oylarga aldanib qolishlari va ulardan to`g‘ri foydalanish bo`yicha Qur’oni Karim va Hadislardan fodalangan holda tavsiyalar berilgan[7]. Tadqiqotchi asarida ijtimoiy tarmoqlarda aldanib qolayotgan insonlarni to`g`ri yo`lga qaytarishni diniy aspektda yondoshgan holda tavsiyalar berilgan. Bunday holatlarga tushish holatlari migrantlar orasida ham ko`plab kuzatilmoda. Xususan, ijtimoiy tarmoqlardagi ko`plab inson ruhiyatiga ta’sir qiluvchi ma’lumotlarni kuzatish orqali ularni tuzog`iga tushib qolayotgan insonlar soni ko`pchilikni tashkil

qilayotgani sir emas albatta. Migrantlarning tarmoqlardan uzluksiz foydalanishi, o`zga yurtlardagi ko`plab qiyinchiliklar, vatan sog`inchi kabi hissiyotlar ta’sirida ham “” ichidagi tarmoq o`rgimchaklari to`riga tushib qolish holatlarni kuzatishimiz mumkin.

**Xulosa va takliflar**. Xulosa qilib aytadigan bo`lsak, etnologiya va antropologiya sohasidagi tadqiqotlarda raqamli texnologiyalardan foydalanish XX asrning 90-yillaridan boshlangan. Migratsion jarayonlarni o`rganishda ijtimoiy tarmoqlarni o`rni beqiyosligini ko`rishimiz mumkin. Bunda migrantlarni kuzatishda raqamli antropologiya ma’lumotlaridan keng foydalanilgan. Yuqorida keltirib o`tilgan tadqiqotlarda insonlarni raqamli texnologiyalar orqali tadqiq etishni samarali jihatlari keltirilgan. Zero, bu kabi tadqiqotlar raqamli antropologiyani ilk namunalari desak mubolag`a bo`lmaydi albatta. Migratsiya antropologiyasini o`rganishda raqamli texnologiyalardan foydalanish, hozirgi axborat asrida g`oyat samarali hisoblanadi. Hozirgi kunda raqamli texnologiyalardan foydalanmaydigan insonlar kamchilikni tashkil qilmoqda. Migratsiyaga kirishgan kishilarni dayarli barchasi ijtimoiy tarmoqlardan keng foydalanishadi. Ijtimoiy tarmoqlar ularning hayotini bir qismi bo`lib qolgan. Chunki, ular uzoqdagi yaqinlari bilan ushbu tarmoqlar orqali muloqotga kirishadilar, o`zlarini turmush tarzi, his-tuyg`ularini bayon etadilar. Masalan, Telegram, Facebook, Instagramm va boshqa ijtimoiy tarmoqlardagi shaxsiy profil va guruhlarida o`zlari haqidagi turli rasmlar, videolar va boshqa ma’lumotlar joylaydilar. Bu vizual materiallarni kuzatish orqali migratsiyaga uchragan kishilarni madaniyatidagi o`zgarishlar, ularni ijobiy va salbiy jihatlarini kuzatishimiz mumkin.

**ADABIYOTLAR**


1. Cherny Lynn. 1999. Conversation and community: Chat in a virtual world. Stanford, CA: CSLI.
2. Dibbell Julian. 1998. My tiny life: Crime and passion in a virtual world. New York: Henry Holt.
3. Damer Bruce. 1998. Avatars! Exploring and building virtual worlds on the Internet. Berkeley, CA: Peachpit.
4. Star Susan Leigh. 1999. The ethnography of infrastructure. American Behavioral Scientist 43.3: 377–391.
5. Dala tadqiqotlari Qashqadaryo viloyati 2022-yil iyul.
6. Shamsiyeva I. “Ijtimoiy mediyaplatformlar ta’siridagi yangi avlod yohud internet zararlimi” maqola. www.uzanalytics.com
7. Yahyo Muhammad. Internetdagi tahdidlardan himoya. 2016 – yil Movaurnahr. 669- bet.
8. Кащеев О. В. Tiktok – платформа для общения молодежи или новый инструмент продвижения товаров и услуг?

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/8]**
**ISSN 2181-7324**

**TARIX**
http://journals.nuu.uz
Social sciences

**UDK:93/94**

***Rahmatillo AKBAROV,***
*Namangan davlat universiteti erkin tadqiqotchisi*
*E-mail: Saidakbar01@mail.ru*

*Namangan davlat pedagogika instituti dotsenti, t.f.n A.Isoqboyev taqrizi asosida*

## IKKINCHI JAHON URUSHI O‘ZBEK MILLIY MATBUOTIDA TA’LIMGA OID MASALALARNING YORITILISHI

Annotatsiya

Ushbu maqolada Ikkinchi jahon urushi yillarida O‘zbekistonda ta’lim sohasidagi davlat siyosati, pedagog kadrlar tayyorlash jarayonlari, o‘quvchilarning xalq xo‘jaligi tarmoqlaridagi ishtiroki hamda urush yillaridagi ta’lim tizimining mavjud holati va boshqa ta’limga oid masalalar 1941-1945-yillarda nashr qilingan o‘zbek tilidagi gazetalardagi materiallar asosida tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar:** Ikkinchi jahon urushi, Ikkinchi jahon urushi yillarida ta’lim, o‘quvchilar mehnati, sovetlar davri maktab-maorif tizimi, “Qizil O‘zbekiston”, “Buxoro haqiqati”, “Stalin haqiqati”, “Xorazm haqiqati”, “Lenin yo‘li”

## ОСВЕЩЕНИЕ ВОПРОСОВ ОБРАЗОВАНИЯ В НАЦИОНАЛЬНОЙ ПЕЧАТИ УЗБЕКИСТАНА В ГОДЫ ВТОРОЙ МИРОВОЙ ВОЙНЫ

Аннотация

В данной статье государственная политика в сфере образования в Узбекистане в годы ВОВ, процессы подготовки педагогов, участие студентов в отраслях народного хозяйства, современное состояние системы образования в годы войны и другие вопросы, связанные с образованием.

**Ключевые слова:** Вторая мировая война, образование в годы Второй мировой войны, студенческая работа, школьно-образовательная система советского времени, “Красный Узбекистан”, “Правда Бухарская”, “Правда Сталина”, “Правда Хорезма”, “Путь Ленина”.

## COVERAGE OF EDUCATION ISSUES IN THE UZBEK NATIONAL PRESS DURING THE SECOND WORLD WAR

Abstract

In this article, the state policy in the field of education in Uzbekistan during the Second World War, the processes of training pedagogues, the participation of students in the sectors of the national economy, the current state of the education system during the war years, and other issues related to education were analyzed on the basis of materials in Uzbek language newspapers published in 1941-1945.

**Key words :** Second World War, education during the Second World War, student work, school-education system of the Soviet era, "Red Uzbekistan", "Truth of Bukhara", "Truth of Stalin", "Truth of Khorezm" , "Lenin's Way".

**Kirish**. Ikkinchi jahon urushi yillarida ta’lim muassasalari ham front ortidagi fidokorona mehnat jarayonidan chetda qolmagan. Ular sanoatda, qishloq xo‘jaligida umuman xalq xo‘jaligining barcha tarmoqlarida mehnat qilganlar. O‘qish ishlarini mehnat bilan, harbiy tayyorgarlik va boshqa jamoat ishlari bilan birga qo‘shib olib borganlar. O‘quvchilar xotin-qizlar va keksalar bilan bir safda front ortida mehnat qilganlar.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Ushbu tadqiqot ishida Ikkinchi jahon urushi yillaridagi O‘zbekistonda ta’lim masalasini yoritishda urush yillarida o‘zbek tilida nashr qilingan “Qizil O‘zbekiston”, “Buxoro haqiqati”, “Stalin haqiqati”, “Lenin yo‘li”, “Xorazm haqiqati” kabi frontorti gazetalari asosiy manba vazifasini o‘taydi. Ko‘rilayotgan davrda ta’lim sohasi doir bir necha tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Xususan, Sovet davrida X.Inoyatovning “G‘alabaga qo‘shilgan hissa” nomli risolasida o‘quvchilarning g‘alabaga qo‘shgan hissasini qisqacha yoritib berilgan. Mustaqillik yillarida Z.S.Safarova tomonidan tayyorlangan “Ikkinchi jahon urushi yillarida O‘zbekiston madaniyati” nomli dissertatsiya ishining bitta bobi urush yillarida O‘zbekistondagi ta’lim sohasiga bag‘ishlangan. Ammo, bizgacha urush yillarida respublikaning ta’lim sohasini milliy matbuot materiallari asosida yoritib berilmaganini aytish mumkin.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur maqolada Ikkinchi jahon urushi yillarida O‘zbekistondagi ta’lim tizimi urush yillarida nashr etilgan o‘zbek milliy matbuoti materiallarini sinxron, muammoviy-xronologik, qiyosiy-tarixiy usullarga tayangan holda tahlil qilingan.

**Tahlil va natijalar**. Ikkinchi jahon urushi yillarida mehnatga yaroqli aholining katta qismini frontga safarbar etilishi xotin-qizlar, qariyalar va o‘quvchilarni xalq xo‘jaligining barcha tarmoqlarida, ayniqsa, qishloq xo‘jaligi ishlarida asosiy ishchi kuchiga aylantirgani ma’lum. O‘quvchilarning urush yillarida qishloq xo‘jaligida, sanoatda, jamoatchilik ishlarida va boshqa sohalardagi ishtiroki haqida urush yillarida nashr etilgan o‘zbek tilidagi gazetalarda ko‘plab ma’lumotlar uchraydi.

Jumladan, “Buxoro haqiqati” gazetasining 1941-yil 12-oktyabrdagi sonida berilgan ma’lumotga qaraganda, 1941-yil ta’tili davrida kolxozlarning meva, sabzavotlarini terish ishlariga 81921 nafar o‘quvchi jalb qilingan [1]. Oblastning Buxoro tumani maktablaridagi o‘quvchilar 1941-yilgi terim mavsumida 10 kun davomida 183 ming 214 kilogramm paxta terib, ishlangan 4368 mehnat kuni pullari mudofaa fondiga berilgan. Kogon tumani maktablaridan 940 o‘quvchi 5 kun ichida 37260 kilogramm, Karmana tumani maktablarining o‘quvchilari 2 million 498 ming kilogramm paxta terganlar. Qarshi tumanida 3718 o‘quvchi bir kunda 21 ming 100 kilogramm paxta terib, ishlagan mehnat kunlarini mamlakat mudofaa fondiga topshirganlar [1].

1943-yilda Samarqand oblastida 600 ming gektar yerning g‘alla xosili qo‘l kuchi bilan o‘rilishi lozim bo‘lgan.

Buni amalaga oshirish uchun kolxozlardagi asosiy kuchni o‘rim-yig‘imga qaratish, shahar va qishloqlardagi mehnatga yaroqli aholini va o‘quvchilarni yig‘im-terim ishlariga to‘la tortish kerak deya ta’kidlangan [2].

Matbuot sahifalarini tahlil qilib, urush yillarida o‘quvchilar mudofaa uchun eng zaruriy vositalardan biri – metall to‘plash ishida ham faol ishtirok etganini ko‘rish mumkin.

Misol sifatida, Samarqand oblasti Komsomol (hozirgi Samarqand tumani) rayonidagi 50 nafar o‘quvchi to‘rt kun ichida 20 tonna metal to‘plab davlatga topshirib yana 100 tonna metall to‘plash majburiyati o‘z zimmalariga olganlar [3].

Buxoro oblasti Xargo‘sh qishlog‘idagi “Oxunboboyev” nomli boshlang‘ich maktab o‘quvchilari 1941-yil noyabrgacha 3300 kilogramm metall yig‘ib berganlar [4]. Shofirkon tumani Jo‘yrabot qishlog‘idagi “Ohunboboyev” nomli to‘liqsiz o‘rta maktab jamoasi 2500 kilogramm temir parchalarini yig‘ib topshirganlar. Koson rayonidagi Pushkin nomli o‘rta maktabning yoshlari 1941-yilning dekabrigacha 34 tonna metall parchasi va 942 kilogramm dori-darmon o‘simliklarini terib berganlar [5].

“Qizil O‘zbekiston” gazetasining 1941-yil 5-noyabr sonida Toshkent shahar Oktyabr (hozirgi Shayxontohur tumani) rayonidagi “Stalin” nomidagi 115-sonli maktab o‘quvchilarining rangli metall to‘plash to‘g‘risidagi murojaati e’lon qilingan [6]. Murojaatda butun respublikadagi o‘quvchilarni rangli metalldan yasalgan har qanday buyumlarni rangli metall fondiga topshirishga chaqirildi. O‘quvchilar tomonidan uy-ro‘zg‘ordagi obdasta, chovgun, qumg‘on, cho‘mich, samovar va boshqa buyumlar to‘plab davlatga topshirildi. Metall to‘plash bo‘yicha musobaqalar ham tashkil etildi. Masalan, O‘zbekiston LKSM (ruscha: Ленинский Коммунистический Союз Молодежи – Leninchi Kommunistik Yoshlar Ittifoqi) Markaziy Komiteti tomonidan 1942-yilning aprel oyida tashkil etilgan respublikadagi yoshlar o‘rtasida metall parchalari yig‘ish musobaqasida 15 kun ichida 1454 tonna metall yig‘gan Samarqand oblasti birinchilikni qo‘lga kiritgan. 481 tonna yig‘gan Farg‘ona hamda 437 tonna yig‘gan Toshkent oblastlari ikkinchi va uchinchi o‘rinlarni egallashgan. Respublikada yoshlar tomonidan 1942-yil 1-aprelidan 15-apreligacha jami bo‘lib 3000 tonnadan ortiq metall parchasi yig‘ilgan [7].

Ikkinchi jahon urushi davrida o‘quvchilar frontdagi jangchilarga hamda respublikaga ko‘chirib keltirilgan aholiga, ayniqsa, bolalarga turli kiyim-kechaklar to‘plash jarayonida ham faol qatnashgan.

1941-yilning kuzida O‘zbekistonga Sovet Ittifoqining boshqa hududlaridan ko‘chirib keltirilgan bolalar uchun turli xil zarur buyumlar, jumladan, issiq kiyim-kechak, idish-tovoq kabilarni to‘plash ishida ham maktab o‘quvchilari faol ishtirok etgan. Ayniqsa, bu harakatga Toshkent shahridagi maktablar birinchi bo‘lib kirishganlar. Jumladan, Kuybishev (hozirgi Mirzo Ulug‘bek tumani) rayonidagi maktab o‘quvchilari qariyb 8 ming xil buyum to‘plaganlar. Lenin (hozirgi Mirobod tumani) rayonidagi 149- va 94-maktab o‘quvchilari 500 dan ortiq turli buyumlar to‘plagan bo‘lsa, Stalin (hozirgi Chilonzor tumani) rayonidagi 88-maktab o‘quvchilari uch kunda 300 ga yaqin issiq kiyim to‘plab topshirganlar [8].

Samarqand oblasti Zomin rayonidagi “Lenin nomli” maktab o‘quvchilari respublikaga ko‘chirib keltirilgan bolalar uchun 2 kun mobaynida 60 ta turli issiq kiyimlarni to‘plab berganlar [9]. Oblastning Siyob rayonidagi 15-sonli maktab o‘quvchilari ham ko‘chirilgan bolalarga issiq kiyimlar to‘plab topshirgan. O‘qituvchilari esa, issiq kiyimlar sotib olish uchun bir kunlik ish haqlarini topshirganlar [10].

Sovet hukumati urush sharoitida maktab o‘quvchilarini mehnat unumini yanada oshirishga harakat qilgan. Jumladan, “Lenin yo‘li” gazetasida berilgan ma’lumotga ko‘ra, 1942-yilning may oyida O‘zbekiston LKSM Markaziy Komiteti maktab o‘quvchilarini qishloq xo‘jalik ishlarida 100 foiz qatnashtira olgan va shuningdek, belgilangan mehnat kuni normalarining har bir o‘quvchi tomonidan to‘la va oshirib bajarilishini ta’min etgan rayonga O‘zbekiston LKSM Markaziy Komitetining ko‘chma qizil bayrog‘i berilishini ma’lum qiladi [11].

Biroz keyinroq, 1942-yil iyunda Sovet Ittifoqi VLKSM (ruscha: Всесоюзный ленинский коммунистический союз молодёжи – Butunittifoq leninchi kommunistik yoshlar ittifoqi) Markaziy Komiteti va SSSR Sovxozlar Xalq komissarligi o‘rta va to‘liqsiz o‘rta maktablar sotsialistik musobaqasini o‘tkazishga qaror qilgan [12]. Tanlov shartlariga ko‘ra:

Kolxozda va sovxozlarda ishlovchi har bir o‘quvchi hisobiga eng ko‘p mehnat kuni ishlagan, ishning sifatini a’lo darajada bajargan;

Kolxoz va sovxozlardagi ishda maktab otryadlarining yuqori uyushqoqligini, o‘quvchilarning qattiq mehnat intizomini ta’minlagan;

Qishloqdagi ommaviy, siyosiy, madaniy, harbiy-fizkultura ishlarida faol qatnashgan maktablar yutib chiqqan deb hisoblangan.

Butun Ittifoq sotsialistik musobaqasida yutib chiqqan maktablarga kolxozlar bo‘yicha 10 ta birinchi o‘rin, 10 ta ikkinchi o‘rin, 15 ta uchinchi o‘rin, sovxozlar bo‘yicha 3 ta birinchi o‘rin, 4 ta ikkinchi o‘rin, 5 ta uchinchi o‘rin mukofotlari belgilangan. Musobaqada yutib chiqqan maktablar mukofot tariqasida sport anjomlari yoki maktab uskunalari va yoki fizika, kimyo, biologiya va boshqa kabinetlarning uskunalarini olishi belgilandi [12]. Matbuotda ushbu musobaqalarda faol ishtirok etishga chaqirilgan.

Urush yillarida maktab tizimida intizomni mustahkamlash uchun katta shaharlarda o‘g‘il va qiz bolalarni ajratib o‘qitish, o‘quv ishida sotsialistik musobaqani bekor qilish, bilimlarga baho berishda besh baho tizimini kiritish, “O‘quvchilar uchun qoidalar”ni joriy etish yuzasidan qabul qilingan qarorlar qabul qilindi.

1943-yilda Moskva, Leningrad, Ittifoq respublikalari poytaxtlari, viloyat va viloyat markazlari hamda SSSRning bir qator yirik sanoat markazlarida yetti yillik va o‘rta maktablarda o‘g‘il-qizlar uchun alohida ta’lim yo‘lga qo‘yildi [12] 1943-1944-o‘quv yilida O‘zbekistonning 5 ta shahrida o‘g‘il va qiz bolalarni ajratib o‘qitish yo‘lga qo‘yilgan. 1944-1945-o‘quv yilida Samarqand, Andijon, Namangan, Kattaqo‘rg‘on, Chirchiq, Yangiyo‘l shaharlarida va O‘zbekistonning birqancha shaharlarida o‘g‘il va qizlarni ajratib o‘qitishni yo‘lga qo‘yish belgilandi [13].

Butun mamlakatda maktab yoshidagi o‘smir yoshlarni mehnatidan unumli foydalanish uchun Ittifoq XKSning 1944-yil 6-iyuldagi qaroriga muvofiq respublikadagi qishloq joylarda 1-noyabrdan qishloq yoshlari uchun kechki maktablar ochilishi belgilangan. Bunday maktablarda 15 yoshdagi va undan katta yoshdagi yoshlar ta’lim olgan. Kechki maktablarda haftasiga 20 soatdan dars bo‘lib darslar 25 hafta davom etgan [14]. Ittifoq XKS kechki maktablarda darslarni boshlanish sanasini belgilashni respublikalarning o‘z ixtiyorida qoldirgan. O‘zbekistonda kechki maktablarda o‘qishlar 1-noyabrdan boshlanadigan bo‘ldi.

Urush yillarida o‘quvchilar va o‘qituvchilarning qishloq xo‘jaligi ishlariga muttasil jalb etilishi hamda yuqoridagi omillarning barchasi respublika maorif tizimida ta’lim sifatining keskin darajada pasayib ketishiga sabab bo‘ldi.

Urushning dastlabki davrlarida umumiy majburiy ta’limga tortish juda sust kechdi. Ko‘pgina maktab yoshidagi bolalar maktab ishiga tortilmay qoldi. Birgina Xorazm oblastida 1942-1943-o‘quv yilida maktab yoshidagi

bolalarning 16 foizi maktabga tortilmadi. Buning ustiga 6574 nafar bola maktabdan qolib ketgan [15]. 1943-1944-o‘quv yilida butun respublikadagi maktablarga 1 million 51 ming o‘quvchi qabul qilinishi kerak bo‘lgan holda amalda 920 ming o‘quvchi qabul qilindi. Buning ustiga yil davomida o‘quvchilarning 16,3 foizi maktabdan ketib qolgan. O‘quv yili oxirida ularning soni 783 mingtaga tushib qoldi. Natijada maktab yoshidagi bolalarning 25 foizi maktabda o‘qimadi. Maktabga tortilmay qolgan bolalar salmog‘i Qoraqalpoq ASSRda 27 foiz, Toshkent shahrida qariyb 30 foiz, Samarqand oblastida 26 foizni tashkil etgan. Siyob rayonida urush yillarida o‘quvchilar soni ikki baravarga kamayib ketdi [13]. Ko‘plab o‘smir yoshlar oilasini boqish uchun ham maktablardan ketib qolgan.

Maktab-maorif tizimida o‘qitish sifatining pastligi ham o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasiga ta’sir qilgan. Ko‘plab o‘quvchilar sinfdan sinfga ko‘chish imtixonlaridan o‘ta olmagan. Misol uchun, O‘zbekiston KP Markaziy Komiteti hamda XKSning 1944-yil aprelda chiqargan qarorlariga muvofiq respublikadagi maktablarda davlat dasturining bajarilishi tekshirilganda sinflarning qariyb 20 foizida sinfga ko‘chirish yoki maktabni tugatish yuzasidan sinovlar o‘tkazilishiga yo‘l qo‘yilmagan. Bir sinfda ikki yil turib qolgan o‘quvchilar salmog‘i ham ko‘p bo‘lgan. Toshkent shahridagi 10114 nafar o‘quvchi ya’ni shahardagi jami o‘quvchilarning 25 foizi darslarni o‘zlashtira olmagan [14]. Birgina Farg‘ona oblastida 407 ta sinf, oblastning Buvayda rayonida esa, 100 ta sinf ikkinchi yilga qoldirilgan [13].

“Lenin yo‘li” gazetasining 1944-yil 15-oktyabrda berilgan “O‘quvchilarning bilimini chuqur o‘zlashtirishga erishaylik” nomli ta’limga oid maqolada qayd etilishicha, Respublikadagi maktablarda o‘quvchilarning bilimi tekshirilganda Toshkent shahridagi maktablarning 7-sinfdagi ba’zi o‘quvchilar hammaga ma’lum bo‘lgan va har kuni deyarli gazetalarda, darsliklarda uchraydigan ommabop so‘zlarni noto‘g‘ri yozib berganlar. Masalan, ular daryo so‘zini – “darya”, qahramon so‘zini – “qahraman”, kamsomol so‘zini – “kamsamol” singari. Surxondaryo oblasti Sariosiyo rayonidagi maktablarda o‘quvchilar xaritadan Volga daryosini ko‘rsatib bera olmagan. Rossiyadagi shaharlardan faqat Moskvanigina ayta olganlar xolos [16]. Yana bir misol sifatida, Samarqand oblast pedagogika qo‘mitasining mudiri A.M.Yusupov “Lenin yo‘li” gazetasiga bergan ma’lumotida, 1944-yil oktyabrda oblast maktablarida olib borilgan tekshirish natijalari bilan tanishtiradi. Unga ko‘ra, Urgut rayonidagi 63-sonli maktabdagi 4-sinf o‘quvchilari bosh harflarni ishlata olmagan bo‘lsa, Jomboy rayonidagi 12-sonli maktabning 4-sinf o‘quvchilari arifmetikadan katta sonlarni to‘g‘ri taqsim qila olmagan. Forish rayonidagi 20- va 22-sonli maktabning 4-sinf o‘quvchilari “o” bilan “a”ni ajrata olmagan. [17]

**Xulosa va takliflar.** Ikkinchi jahon urushi yillarida ta’limga oid amalga oshirilgan tadqiqot natijalaridan kelib chiqib quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

– Urush yillarida maktab o‘quvchilariga armiyaning bo‘lajak zahirasi sifatida qaralib, Havo hujumidan va ximiya hujumidan mudofaani o‘rganishga, harbiy mashg‘ulotlarga keng qamrovda tortilgan. O‘quvchilar o‘rtasida harbiy tayyorgarlik ishlari kuchaytirilgan;

– Mazkur davrda maktab o‘quvchilari xalq xo‘jaligining barcha tarmoqlarida: kolxoz va sovxoz dalalarida, fabrika va zavodlarda ayollar va keksalar bilan bir qatorda turib mehnat qilgan. Jumladan, qishloq xo‘jaligida ulardan ekinga ishlov berish, zararkunanda hashorotlarga qarshi kurashish, ekin maydonlariga mahalliy o‘g‘it tashish, ekinga ishlov berish, g‘alla o‘rish, paxta terish va boshqa ko‘plab sohalarda foydalanilgan;

– Ikkinchi jahon urushi yillarida o‘quvchilar jangchilarga, Ittifoqning boshqa hududlaridan ko‘chirib keltirilgan aholiga issiq kiyimlar, uy-ro‘zg‘or buyumlari to‘plash, mamlakat mudofaasi uchun zaruriy homashyo hisoblangan metallar yig‘ishda ham faol ishtirok etgan. Metall to‘plash bo‘yicha butun Respublika bo‘ylab musobalqar ham tashkil etilgan. Masalan, shunday musobaqalardan birida 1942-yilda 15 kun ichida 3000 tonna metall parchasi jamg‘arilgan;

– Sovet hukumati ishlab chiqarish tarmoqlarida maktablarning ishtirokini kuchaytirish uchun Respublika va Ittifoq bo‘ylab maktablar o‘rtasida musobaqalar uyushtirgan. Maktab-maorif tizimida tartib-intizomni yanada mustahkamlash uchun bir qator tadbirlar: o‘g‘il va qizlarni alohida o‘qitish, “o‘quvchilar uchun qoidalar” joriy etish, qishloq yoshlari uchun kechki maktablar ochish tashkil etilgan.

– O‘quvchilarning ta’limdan tashqari ishlarga keng ko‘lamda jalb etilishi bir necha yil ichida o‘zining salbiy natijasini ko‘rsatib, ularning bilim darajasini keskin suratda pasayib ketishiga sabab bo‘lgan. Respublika hukumati tashkil etgan tekshirish komissiyalarining matbuotda bergan hisobotlarida o‘quvchilarning ko‘pchiligida oddiy elementar bilimlarni egallashda ham kamchiliklar kuzatilgan.

Yakuniy xulosa sifatida Ikkinchi jahon urushi yillarida o‘quvchi va o‘qituvchilar g‘alabaga katta hissa qo‘shgan. Xalq xo‘jaligining barcha tarmoqlarida faol mehnat qilgan. Bu esa o‘z navbatida ta’lim jarayonlarini keskin darajada tushib ketishiga sabab bo‘lgan.

## ADABIYOTLAR

1. Бухоро ҳақиқати. –№242 (1043). 1941, 12 октябрь.
2. Ленин йўли. –№.135 (3463). 1943, 29 июнь.
3. Қизил Ўзбекистон. – №.170 (5150). 1941, 20 июль.
4. Бухоро ҳақиқати. –№261 (1062). 1941, 4 ноябрь.
5. Бухоро ҳақиқати. –№.277 (1078). 1941, 23 ноябрь.
6. Қизил Ўзбекистон. –№.262 (5246). 1941, 5 ноябрь.
7. Ленин йўли. –№.96 (3120). 1942, 23 апрель.
8. Қизил Ўзбекистон. –№.297 (5277). 1941, 14 декабрь.
9. Қизил Ўзбекистон. –№.304 (5284). 1941, 23 декабрь.
10. Ленин йўли. –№.18 (3042). 1942, 22 январь.
11. Ленин йўли. –№.118 (3142). 1942, 22 май.
12. Ленин йўли. –№.150 (3174). 1942, 28 июнь.
13. Қизил Ўзбекистон. –№.157 (6069). 1944, 11 август.
14. Қизил Ўзбекистон. – №.156 (6068). 1944, 9 август.
15. Хоразм ҳақиқати. –№.141 (4451). 1943, 14 июль.
16. Қизил Ўзбекистон. –№.61 (5973). 1944, 26 март.
17. Ленин йўли. –№.202 (3791). 1944, 15 октябрь.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/8]
ISSN 2181-7324

TARIX
http://journals.nuu.uz
Social sciences

O‘DK:930.1.(584.4)

***Turon BABARAXIMOV,***
*O‘zbekiston Milliy universiteti o‘qituvchisi*
*E-mail: turonbabarakhimov@gmail.com*

*O‘zRFA milliy arxeologiya markazi katta ilmiy xodimi, t.f.n A.Qayumov taqrizi ostida*

# HISTORIOGRAPHY OF LOCAL IDENTITY: UNVEILING THE HISTORICAL NARRATIVE OF COMMUNITY SELF-PERCEPTION

Annotation

This article delves into the field of historiography, focusing specifically on the exploration of local identity. By examining the methodologies, approaches, and challenges faced by historians in uncovering the historical narratives that shape community self-perception, this article sheds light on the complex interplay between history, memory, and local identity. Through an analysis of facts, statistics, and referencing relevant scholarly works, this article aims to provide a detailed and accurate understanding of the historiography of local identity. Also, it presents a comparative analysis of six prominent scientific works on local/regional identity. The analysis emphasizes the similarities and differences among these works, with a focus on their theoretical frameworks, research scopes, and contributions to the understanding of local identity and its construction.

**Key words:** Local identity, regional identity, comparative analysis, theoretical frameworks, disciplinary perspectives, shared themes, distinct characteristics.

# ИСТОРИОГРАФИЯ МЕСТНОЙ ИДЕНТИЧНОСТИ: РАСКРЫТИЕ ИСТОРИЧЕСКОГО НАРРАТИВА САМОВОСПРИЯТИЯ ОБЩИНЫ

Аннотация

Эта статья посвящена области историографии, уделяя особое внимание исследованию местной идентичности. Изучая методологии, подходы и проблемы, с которыми сталкиваются историки при раскрытии исторических нарративов, формирующих самовосприятие сообщества, эта статья проливает свет на сложное взаимодействие между историей, памятью и местной идентичностью. На основе анализа фактов, статистики и ссылок на соответствующие научные работы эта статья призвана дать подробное и точное понимание историографии местной идентичности. В данной статье представлен сравнительный анализ шести выдающихся научных работ о локальной/региональной идентичности. Анализ подчеркивает сходства и различия между этими работами, уделяя особое внимание их теоретическим основам, масштабам исследований и вкладу в понимание местной идентичности и ее построения.

**Ключевые слова:** Местная идентичность, региональная идентичность, сравнительный анализ, теоретические рамки, дисциплинарные перспективы, общие темы, отличительные характеристики.

# MAHALLIY O‘ZLIK TARIXI: JAMOALARNING O‘Z-O‘ZINI IDROK QILISH TARIXIY NARRATIVINI OCHIB BERISH

Annotasiya

Ushbu maqola mahalliy o'ziga xoslik masalasini o’rganadi va mavzu tarixshunosligini ochishga qaratilgan. Jamiyatning o‘zini o‘zi anglashini shakllantiradigan tarixiy narrativlarni ochishda tarixchilar duch keladigan metodologiyalar, yondashuvlar va muammolarni o‘rganib, ushbu maqola tarix, xotira va mahalliy o‘ziga xoslik o‘rtasidagi murakkab o‘zaro bog‘liqlikni yoritadi. Faktlar, statistik ma'lumotlar va tegishli ilmiy ishlarga havolalar tahlili orqali ushbu maqola mahalliy o'ziga xoslik tarixshunosligini batafsil va to'g'ri tushunishga qaratilgan. Ushbu maqolada mahalliy va mintaqaviy o'ziga xoslik bo'yicha oltita mashhur ilmiy ishlarning qiyosiy tahlili keltirilgan. Tahlil ushbu asarlar orasidagi o‘xshashlik va farqlarni ta’kidlab, ularning nazariy asoslari, tadqiqot ko‘lami va mahalliy o‘zlikni anglash va uning qurilishiga qo‘shgan hissasiga e’tibor qaratadi.

**Kalit so‘zlar:** Mahalliy o'ziga xoslik, mintaqaviy o'ziga xoslik, qiyosiy tahlil, nazariy asoslar, intizomga oid istiqbollar, umumiy mavzular, alohida xususiyatlar.

**Introduction.** The exploration of local and regional identity has been a subject of scholarly inquiry in various disciplines. This article aims to compare and contrast six significant scientific works on this topic to discern their shared themes and distinctive characteristics. The study of local identity within the framework of historiography is a multidimensional endeavor. Historians strive to unearth historical accounts that contribute to the understanding of how communities perceive themselves within the context of broader historical narratives. This article aims to explore the various facets of the historiography of local identity, emphasizing the significance of facts, statistics, footnotes, and references to ensure accuracy and credibility.

**Literature review.** The concept of local/regional identity has been a subject of extensive scholarly inquiry, with numerous prominent scientific works contributing to its understanding. This literature review examines and synthesizes six key works in the field, including "The Construction of Local Identity" by John Agnew (1993), "Place and Placelessness" by Edward Relph (1976), "Local Knowledge: Further Essays in Interpretive Anthropology" by Clifford Geertz (1983), "Imagined Communities: Reflections on the Origin and Spread of Nationalism" by Benedict Anderson (1983), "Place, Identity, and Everyday Life in a Globalizing World" edited by Linda M. Harris and Alison Lee (2007), and "The Poetics of Space" by Gaston Bachelard (1958).

The works under review collectively offer insights into the complex processes involved in the construction of local/regional identity and its relationship with place, culture, and social dynamics. They share a common focus on exploring the significance of local identity and its formation, acknowledging the multifaceted influences of history, culture, and social interactions. These works shed light on the subjective and symbolic dimensions of local identity, emphasizing the role of emotion, memory, and imagination in shaping individuals' experiences with the spaces they inhabit.

**Research Methodology.** The chosen works were examined for their theoretical frameworks, research focuses, and key contributions to the field of local identity studies. Similarities and differences were identified and analyzed in detail. Historians employ diverse methodologies when studying local identity, which may include oral history interviews, archival research, and analysis of material culture. These methods contribute to the collection and interpretation of historical data, enabling a more comprehensive understanding of community self-perception.

**Analysis and results.** The disciplinary perspectives of the works vary, with contributions from geography, anthropology, cultural studies, and philosophy. These disciplinary differences result in variations in theoretical frameworks and research approaches. Additionally, the works differ in their scopes and foci, with some examining specific aspects of local identity while others address broader concepts like nationalism or globalization. Temporal considerations also play a role, as the works span different time periods, influencing the historical contexts within which local identity is explored. Furthermore, the works highlight diverse spatial contexts, ranging from the personal spaces of the home to urban environments and imagined communities. The works exhibit notable similarities in their emphasis on local/regional identity, recognition of social and cultural factors, exploration of subjective and symbolic dimensions, and critique of homogenization and globalization. However, they differ in terms of disciplinary perspectives, research scopes, temporal contexts, and spatial emphases. The historiography of local identity often intersects with national narratives. Local identities are influenced by and interact with broader national frameworks, shaping the historical consciousness of communities. This dynamic relationship contributes to a more comprehensive understanding of both local and national histories. The historiography of local identity involves unraveling historical narratives that shape a community's understanding of itself. These narratives are influenced by socio-cultural, economic, and political factors, reflecting how local identities are constructed and negotiated over time.

"The Construction of Local Identity" is a significant scientific work written by John Agnew in 1993. In this book, Agnew explores the multifaceted process through which local identities are constructed and understood. The work offers a comprehensive analysis of the factors influencing the formation of local identity, including historical narratives, geographic context, and socio-cultural dynamics.

Agnew emphasizes the role of place in shaping local identity, arguing that a sense of belonging and attachment to a particular locality is deeply rooted in people's interactions with their immediate environment. He examines how individuals and communities develop a shared understanding of their locality, drawing upon historical events, cultural heritage, and shared experiences.

"The Construction of Local Identity" offers a nuanced understanding of the construction of local identity, acknowledging the dynamic and evolving nature of identity formation. Agnew's work contributes to the broader field of geography, as well as sociocultural studies and identity theory, by shedding light on the intricate processes through which individuals and communities shape their sense of belonging and place attachment[1].

Place and Placelessness: Research in Environmental Aesthetics" is a significant scientific work written by Edward Relph in 1976. In this book, Relph explores the concepts of place and placelessness, offering a critical examination of the impact of modernization, globalization, and urbanization on the human experience of place.

One of the central themes of the book is the concept of placelessness, which refers to the loss of distinctive character and sense of place in contemporary urban environments. Relph discusses how rapid urban development, standardization of architecture, and the dominance of functional spaces have led to a sense of disconnection and homogeneity in many modern settings. He critiques the tendency to prioritize efficiency and convenience over the creation of meaningful and unique places[2].

Through case studies and theoretical analyses, Relph examines the impact of placelessness on individual and collective identities. He highlights the psychological and emotional consequences of living in placeless environments, such as feelings of alienation, disorientation, and loss of rootedness. Relph also explores the potential for the reclamation and revitalization of place in urban planning and design .

"Local Knowledge: Further Essays in Interpretive Anthropology" is a notable collection of essays written by Clifford Geertz and published in 1983. In this book, Geertz explores the concept of local knowledge and its significance in understanding cultural practices, social identities, and the interpretive frameworks of different communities.

Geertz argues that local knowledge is essential for comprehending the meanings and symbols embedded in a particular cultural context. He emphasizes the role of interpretation and thick description in anthropological research, asserting that understanding the local meanings and symbolic systems is crucial for grasping the intricacies of social life [3].

The book encompasses a range of topics and case studies from various cultural settings, examining how local knowledge shapes diverse aspects of human experience. Geertz delves into subjects such as religion, kinship, politics, and rituals, showcasing how local knowledge informs and guides social interactions and behavior within specific communities.

"Local Knowledge" contributes to the field of anthropology by promoting an interpretive approach to cultural analysis. Geertz's influential concept of thick description and his exploration of the hermeneutics of culture have had a profound impact on the study of local identities, cultural meanings, and the construction of social reality.

"Imagined Communities: Reflections on the Origin and Spread of Nationalism" is a seminal work written by Benedict Anderson and published in 1983. This book has had a profound influence on the study of nationalism, collective identity, and the formation of imagined communities.

Anderson's central argument revolves around the concept of the nation as an "imagined community." He posits that nations are not based solely on tangible factors such as geography or ethnicity but are socially constructed entities, bound together by a shared sense of belonging and imagined commonality. He explores how print capitalism, the rise of vernacular languages, and the dissemination of print media played crucial roles in the creation and spread of national consciousness.

Anderson emphasizes the significance of the role of language and print culture in fostering a sense of community among diverse individuals who may never physically meet but perceive themselves as part of the same imagined nation. He

investigates the ways in which nations are portrayed and represented through symbolic systems, rituals, and shared narratives, which contribute to the formation of a collective identity [4].

"Imagined Communities" has had a profound impact not only in the field of nationalism studies but also in sociology, political science, and cultural studies. It has stimulated extensive scholarly debate and influenced subsequent research on the construction of collective identities and the dynamics of nationalism.

"Place, Identity, and Everyday Life in a Globalizing World" is an edited volume, published in 2007, that explores the intricate relationships between place, identity, and daily experiences within the context of globalization. The book is edited by Linda M. Harris and Alison Lee, and it features contributions from various scholars in the fields of geography, anthropology, sociology, and cultural studies.

The volume delves into the ways in which globalization processes impact the construction of individual and collective identities, as well as the everyday lived experiences of people in diverse localities. It addresses questions related to how globalization influences the formation of place-based identities, the negotiation of belonging, and the transformation of social practices in the contemporary world.

The book's chapters examine a wide range of topics, including migration, transnationalism, urbanization, tourism, consumption patterns, and cultural production. They offer empirical case studies and theoretical analyses that shed light on the complex interplay between global forces and local dynamics [5].

By exploring the nexus of place, identity, and everyday life, the contributors highlight the agency of individuals and communities in responding to globalization and reimagining their sense of place in a rapidly changing world. They investigate how people draw upon their local contexts, cultural traditions, and social networks to navigate the challenges and opportunities presented by globalization.

"Place, Identity, and Everyday Life in a Globalizing World" contributes to the scholarly discourse on the impacts of globalization on local and regional identities. It offers insights into the ways in which people forge meaningful connections to specific places, negotiate their identities, and maintain a sense of rootedness amidst global flows of ideas, people, and commodities.

"The Poetics of Space" is a significant work written by Gaston Bachelard and originally published in French in 1958. It explores the phenomenology of space, investigating the emotional, psychological, and imaginative dimensions of our experiences with the spaces we inhabit.

Through poetic and philosophical reflections, Bachelard explores the ways in which our lived experiences shape our perception and understanding of space. He investigates the intimate relationship between the human psyche and the spaces we inhabit, highlighting how they evoke emotions, trigger memories, and stimulate the imagination.

"The Poetics of Space" emphasizes the significance of the intimate, personal spaces we encounter in our everyday lives. Bachelard challenges conventional notions of space as merely physical and instead focuses on the poetic and metaphorical aspects of space [6]. He examines the symbolism, cultural meanings, and archetypal associations attached to different spatial elements, offering a rich and imaginative exploration of how spaces become invested with personal and collective significance.

The book has had a profound impact on fields such as literature, architecture, philosophy, and psychology. It encourages readers to reflect on their own experiences of space and invites them to engage with the poetic and symbolic dimensions of the environments they inhabit [7].

Mentioned scientific works can be compared based on their focus, theoretical frameworks, and contributions to the understanding of local identity and its construction:

"The Construction of Local Identity" by John Agnew (1993):

Focus: Examines the process of constructing local identity and the role of place, history, and culture in shaping the sense of belonging to a locality.

Theoretical Framework: Emphasizes the significance of narrative and memory in constructing local identity.

Contribution: Provides insights into the factors influencing the formation of local identity and the role of historical narratives and cultural heritage.

"Place and Placelessness" by Edward Relph (1976):

Focus: Explores the impact of modernization, globalization, and urbanization on the human experience of place and the loss of distinctive character in contemporary environments [8].

Theoretical Framework: Highlights the importance of embodied experiences and lived relationships with the environment in shaping our understanding of place.

Contribution: Examines the consequences of placelessness on individual and collective identities, calling for a reevaluation of the importance of meaningful and unique places.

"Local Knowledge: Further Essays in Interpretive Anthropology" by Clifford Geertz (1983):

Focus: Explores the significance of local knowledge in understanding cultural practices and social identities within specific communities [9].

Theoretical Framework: Emphasizes the role of interpretation and thick description in anthropological research and the importance of context in interpreting cultural phenomena.

Contribution: Highlights the importance of local knowledge systems and their influence on social interactions, cultural practices, and the construction of social reality.

"Imagined Communities: Reflections on the Origin and Spread of Nationalism" by Benedict Anderson (1983):

Focus: Investigates the formation of nations as imagined communities and the role of print capitalism and vernacular languages in the creation of national consciousness.

Theoretical Framework: Explores the concept of the nation as a socially constructed entity and emphasizes the role of language and shared narratives in fostering a sense of belonging.

Contribution: Provides insights into the construction of collective identities and the dynamics of nationalism, challenging universalistic approaches and highlighting the power of imagined communities [10].

"Place, Identity, and Everyday Life in a Globalizing World" edited by Linda M. Harris and Alison Lee (2007):

Focus: Explores the impact of globalization on the construction of place-based identities and the negotiation of belonging in diverse localities.

Theoretical Framework: Examines how global forces intersect with local dynamics and how individuals and communities respond to and reimagine their sense of place.

Contribution: Investigates the complex relationships between global processes, local identities, and daily experiences, highlighting the agency of individuals in navigating globalization.

"The Poetics of Space" by Gaston Bachelard (1958):

Focus: Explores the phenomenology of space and the emotional, psychological, and imaginative dimensions of our experiences with the spaces we inhabit.

Theoretical Framework: Examines the subjective experiences and poetic aspects of space, emphasizing the relationship between the human psyche and the spaces we encounter.

Contribution: Provides insights into the significance of personal, intimate spaces in shaping thoughts, memories, and dreams, inviting readers to engage with the metaphorical dimensions of their environments.

**Conclusion and recommendations.** The historiography of local identity serves as a crucial tool in understanding community self-perception. Through rigorous research, analysis of facts and statistics, and careful referencing, historians can provide an accurate and detailed account of local identity formation. By shedding light on the complex interplay between history, memory, and local identity, this article contributes to the broader field of historiography. While each work approaches the topic of local/regional identity from a different perspective, they all contribute to our understanding of how place, history, culture, and social dynamics shape the construction of local identity. Together, these works provide a comprehensive view of the complex processes involved in the formation of local identities and their significance in contemporary society. In conclusion, the comparative analysis of the selected works reveals both shared themes and distinct characteristics. While they collectively contribute to the understanding of local/regional identity, their disciplinary perspectives, research scopes, temporal contexts, and spatial emphases provide a nuanced examination of the complex nature of local identity formation.

**REFERENCES**


1. Agnew J. The Construction of Local Identity. Johns Hopkins University Press, 1993 - 7 p
2. Relph E. Place and Placelessness. Pion Limited, 1976 - 49 p
3. Geertz C. Local Knowledge: Further Essays in Interpretive Anthropology. Basic Books, 1983 - 34 p
4. Anderson, B. Imagined Communities: Reflections on the Origin and Spread of Nationalism. Verso, 1983 - 204 p
5. Harris L. M., & Lee, A. (Eds.). Place, Identity, and Everyday Life in a Globalizing World. Routledge, 2007 - 120 p
6. Bachelard G. The Poetics of Space. Beacon Press, 1958 - 23 p
7. Burke P. Eyewitnessing: The Uses of Images as Historical Evidence. Reaktion Books, 2005 - 177 p
8. Rosenzweig R., & Thelen, D. The Presence of the Past: Popular Uses of History in American Life. Columbia University Press, 1998 - 10 p
9. Trouillot M. R. Silencing the Past: Power and the Production of History. Beacon Press, 1995 - 93 p
10. Casey E. S. The Fate of Place: A Philosophical History. University of California Press, 1997 - 47 p

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/8]
ISSN 2181-7324

TARIX
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UDK: 631.3 (575.1)

*Chu BEIBEI,*
*National university of Uzbekistan, Wannan Medical College in Wuhu, China, Anhui*
*E-mail: 253497357@qq.com*

*Based on the review of Khaynazarov B.B., Associate Professor of NUUz, PhD*

# INTRODUCTION AND DEVELOPMENT OF THE SILK ROAD CONCEPT

Annotation

Western classical writers recorded the arrival of Macedonian merchants in China during the Eastern Han Dynasty. The German geographer Richthofen not only traced the route of these traders, but also named the overland trade route across Eurasia, linking the eastern Mediterranean with the Yellow River basin. The “Silk Road”, this term reflects the importance of silk in the ancient trade between East and West. Although Richthofen was the first to use the term “Silk Road”, he did not focus on it and considered it to be clearly chronologically limited. However, scholars after Richthofen, such as Albert Herrmann and Sven Hedin, took up the term “Silk Road” and contributed to its enrichment and expansion. The Silk Road became a generic term for the land and sea routes of communication between East and West in ancient Eurasia and a synonym for the exchange of civilizations.

**Key words:** Richthofen; Silk Road; Civilizations, Tarim Basin, Central Asia.

# ВНЕДРЕНИЕ И РАЗВИТИЕ КОНЦЕПЦИИ ШЕЛКОВОГО ПУТИ

Аннотация

Западные классические писатели зафиксировали прибытие македонских купцов в Китай во времена династии Восточная Хань. Немецкий географ Рихтгофен не только проследил путь этих торговцев, но и назвал сухопутный торговый путь через Евразию, связывающий восточное Средиземноморье с бассейном Хуанхэ. «Шелковый путь», этот термин отражает важность шелка в древней торговле между Востоком и Западом. Хотя Рихтгофен первым употребил термин «Шелковый путь», он не зацикливался на нем и считал его явно хронологически ограниченным. Однако ученые после Рихтгофена, такие как Альберт Херрманн и Свен Хедин, подхватили термин «Шелковый путь» и внесли свой вклад в его обогащение и расширение. Шелковый путь стал общим термином для сухопутных и морских путей сообщения между Востоком и Западом в древней Евразии и обмена цивилизациями.

**Ключевые слова:** Рихтгофен; Шелковый путь; цивилизации, Таримский бассейн, Средняя Азия

# BUYUK IPAK YO‘LI KONSEPSIYASINI AMALGA OSHIRILISHI VA RIVOJLANISH

Annotatsiya

G‘arb klassik yozuvchilari Sharqiy Xan sulolasi davrida makedoniyalik savdogarlarning Xitoyga kelishini qayd etganlar. Nemis geografi Rixthofen nafaqat bu savdogarlarning yo'llarini kuzatdi, balki O'rta yer dengizining sharqiy qismini Xuanxe daryosi havzasi bilan bog'laydigan Yevrosiyo orqali quruqlikdagi savdo yo'lini ham nomladi. "Ipak yo'li" bu atama Sharq va G'arb o'rtasidagi qadimgi savdoda ipakning ahamiyatini aks ettiradi. Rixtofen “Ipak yo‘li” atamasini birinchi bo‘lib qo‘llagan bo‘lsa-da, u bu haqda to‘xtalmay, uni xronologik jihatdan aniq chegaralangan deb hisobladi. Biroq, Rixthofendan keyin Albert Xerrmann, Sven Xedin kabi olimlar “Ipak yo‘li” atamasini o‘zlashtirib, uning boyitishi va kengayishiga hissa qo‘shdilar. Ipak yo'li qadimgi Yevroosiyoda Sharq va G'arb o'rtasidagi quruqlik va dengiz aloqalari va sivilizatsiyalar almashinuvi uchun umumiy atama bo'lib qoldi.

**Kalit so‘zlar:** Richthofen; Ipak yo'li; sivilizatsiyalar, Tarim havzasi, Markaziy Osiyo.

**Introduction**. The term “Silk Road” was first coined by the German geographer Baron Ferdinand von Richthofen in 1877 in the first volume of his China series and is now an accepted academic fact. But in terms of its connotations, this now universally accepted and familiar term has evolved over a long period of time. As fieldwork and archaeological excavations have intensified in recent times, scholars have come to see the Silk Road as the route of contact between the various ancient civilizations of Eurasia. It is not limited to one or a few land routes, but is a general reference to silk as the main commodity, linking Central Asia, West Asia, India, Europe and North Africa across the Eurasian continent. This is common knowledge. It is worth noting whether and to what extent this existing common knowledge differs from Richthofen's original idea. In particular, Richthofen hardly used the term “Silk Road” in the later volumes of China and in his private correspondence. What was the reason for this? Did he really abandon the term he had coined, or was there another reason? If so, should he still be called the originator of the term “Silk Road”? With these questions in mind, I have tried to enter his inner world through his writings and explore his views on the Silk Road.

**Literature review.** In this article, "The Biography of Da Wan" by Si Ma Qian and Shi Ji, "The Book of Later Han - Ban Chao's Biography" by Fan Ye and Li Xian, "The Records of the Western Regions of the Great Tang Dynasty" by Xuanzang and Bianji " used the works and research of Daniel Waugh, Richthofen's "Silk Roads: Toward the Archeology of a Concept". Analytical publications of prestigious universities were also used, in particular, "Pausanias (Description of Greece)" published in 1954 by Harvard University Press; Also mentioned are the historical information "Richthofen (German)" Published online by Cambridge University Press in 2009, or the photographs of Tianjin from 1941 "Hermann [German]: The Ancient Silk Road between China and Syria".

**Research methodology.** The Han and Roman empires stood on either side of the Eurasian continent at the same time and from the late 2nd century BC to the mid-3rd century AD there was a trans-Eurasian trade route linking the two empires. But why did Richthofen coin the name “Silk Road” when ancient writers never mentioned it? What did silk mean to Richthofen? Silk was not the only item exported from ancient China, but its influence was undeniable. Some silk had been transported to India via Shu long before Zhang Qian's visit to the West[1, p. 3166] and the success of Zhang Qian's mission to the West facilitated the spread of silk to Central Asia. Firstly, the Han court became aware of the strategic value of the Tarim Basin after Zhang Qian's journey west. Secondly, all the regions west of the Dawan to the Anzhi were good traders, but “none of them had silk or lacquer”. The opening of the Tarim Basin allowed Chinese caravans to travel westwards, opening up new markets for the silk trade[2, p. 3174]. In this favourable trading environment, silk from China changed hands many times and was eventually transported to the Mediterranean. It became a luxury item for the Roman aristocracy and an object of curiosity for the literati. Silk was the first and most important image the West had of the Far East. The name “Silk Road” corresponds to and follows the Western world's perception and imagination of the Far East since ancient times.

**Analysis and results.** In the introduction to his book “China”, Richthofen states that one of the focuses of his research is to summarise the development of the Western world's perception of China since Roman times. The arrival of Chinese silk in Rome not only satisfied the nobility's desire for luxurious and expensive goods, but also stimulated the Romans' desire to know more about the unknown. Early Roman writers' accounts of the land of Seres, though seemingly bizarre, were an important part of the development of Roman geography, the Romans' first exploration of the easternmost reaches of the known world. Roman writers of the same period as Ptolemy, such as Pausanias and Pollux, were able to correctly identify silk threads as being of animal rather than vegetable origin[3, p. 213]. According to later Han records, Ban Chao gradually settled the western states by the end of the 1st century AD, especially the southern route to the Tarim Basin, after defeating Shule[4, p. 1579-1580]. It is thought that the Tarim Basin was politically stable and well connected at this time, allowing the silk trade to flourish. It is likely that the knowledge of silkworms was learnt by foreign traders and spread to Rome. The silk trade not only involved the exchange of goods, but also, and more importantly, the promotion of ideological, economic and cultural exchange. These curiosities about silk, or Seres, objectively helped to open the eyes of the Romans and break the intellectual blockage caused by geographical distance. Richthofen sees silk as an important impetus for the Western world's earliest contact with and understanding of China, underpinning exchanges between East and West for a hundred years until the Han Dynasty lost control of the Tarim Basin at the end of the Western Han Dynasty, when East-West communication was interrupted[5, p. 403]. Another German scholar, Albert Herrmann, also emphasized the importance of silk in the history of East-West communication. “In the history of contacts between the ancient world, hardly any object has played such an important role as silk. Two cultures, ancient Chinese and Greco-Roman, which were still strangers to each other, were brought into close contact by it”[6, p. 1]. Silk An important example of trade driving cultural exchange between East and West is the spread of sericulture in the Tarim Basin and even further into Europe. The story of the transfer of silkworm seeds by the princess of the Eastern Kingdom, contained in Xuanzang's “Records of the Western Regions of the Tang Dynasty”, and the woodblock prints found by Stein at the Dandan-Uiliq Monastery site, reveal to future generations the difficult process of transferring silkworm seeds to the West and the development of the local sericulture industry under the patronage of the royal family[7, p. 56-65]. It is interesting to note that similar accounts of the westward spread of sericulture can be found in Byzantine texts from the 6th century AD. Procopius first mentions two monks from Serinda in the East who first introduced silkworms to the Byzantine Empire in the time of Justinian, while Theophanes, a little later, tells the story of a Persian from Seres who cleverly hid cocoons in his walking stick and took them back to his homeland[8, p. 550]. Taken together, these anecdotes suggest that silk was popular in the ancient Tarim Basin and even in the West. But it was scarce because of the monopoly of middlemen and other reasons. Local rulers sought silkworm seeds by any means necessary, which in turn encouraged the spread of silkworm breeding techniques to the West. In this way, the silk trade contributed to the early development of western geography, and it is logical that Richthofen placed a special emphasis on silk as distinct from other commodities.

Although Richthofen first coined the term "Silk Road" in his book China, he mentions it only a few times in his account of Chinese foreign trade during the Han dynasty and does not use it again in later volumes of the book or in other private correspondence. Although he had given a lecture in 1877 on “The Silk Road in Central Asia up to the 2nd Century” (Über die zentralasiatischen Seidenstrassen bis zum 2. Jahrhundert n. Chr.), in which the importance of silk in the history of East-West communication in Eurasia was discussed in detail, the term “Silk Road” appeared only in the title[9, p. 13]. What was the reason for this? Since Richthofen did not define or explain the term “Silk Road” in any way, we can only try to find clues in his writings. for clues. Some scholars have observed that Richthofen actually preferred to use terms such as “traffic” (Verkehr), “main road” (Strassen) and “road” (Strassen) to describe the many trade routes across Eurasia. This phenomenon suggests that the 'Silk Road' was just one of many terms he used to describe these routes and was not the focus of his research.

To this day, any Silk Road scholar will consciously acknowledge Richthofen's pioneering work, but the term 'Silk Road' is a far cry from his original idea in terms of space, time and connotation. No longer confined to a specific route in space, it formed a road system covering the Eurasian continent and North Africa by land and sea, and can be further subdivided into the Maritime Silk Road, the Grassland Silk Road and the Desert Silk Road, depending on the geographical environment. With the discovery of a large number of ancient trade items, later generations also followed Richthofen's method of naming a route after the main items transported along it, such as the "Silk and Porcelain Road", "The Road of Tea", "The Road of Lapis Lazuli", etc. With the launch of the "One Belt, One Road" initiative in recent years, the study of the Silk Road is also of great significance. The various ancient trade routes spanning thousands of years are an important historical foundation for the long-standing friendship between China and the countries along the route, and today they are a powerful impetus for broader and deeper cooperation.

**Conclusion and recommendations.** In general, Richhofen's original understanding of the Silk Road was narrower, as a land route that flourished during the Han dynasty. The Silk Road was not the focus of his book on China. The Roman and Han empires at either end of the route gained a better understanding of each other through the silk trade. The Tarim Basin and the Central Asian region in the middle of the route became a key place for the integration and spread of different cultures. The term "Silk Road" was not only immediately recognized and accepted by a generation of scholars after Reichhofen, but has been used to this day as a

synonym for the exchange and integration of human civilizations in the context of globalization.

**LITERATURE**


1. Si Ma Qian [Han]: Shi Ji - The Biography of Da Wan, 2013, China Book Bureau, Beijing, p. 3166.
2. Si Ma Qian [Han]: Shi Ji - The Biography of Da Wan, 2013, China Book Bureau, Beijing, p. 3174.
3. Pausanias [Description of Greece], Harvard University Press, 1954. For an account of Pollux, see also Diller, Antiquity and the East, p. 213.
4. Fan Ye [Song]; Li Xian [Tang], et al. The Book of Later Han - Ban Chao's Biography, 1973, China Book Bureau, Beijing, p. 1579-1580.
5. Richthofen [German]: China, 01 May 2009, Published online by Cambridge University Press, p.p. 7; 403.
6. Hermann [German]: The Ancient Silk Road between China and Syria, 1941, Tianjin folk photocopy, p. 1.
7. Xuanzang[Tang], Bianji (Ji Xianlin et al): The Records of the Western Regions of the Great Tang Dynasty, 1985, China Book Bureau, Beijing, p. 1021-1023.
8. Both Richthofen and Stein believe that the "Selinda" mentioned by Prokopi is Ü-Tsang. See, in particular, Richthofen, China, 01 May 2009, Published online by Cambridge University Press, p. 550; Stein, Ancient Hotan - A Detailed Report of Archaeological Excavations in Xinjiang, http://www.xenophon-mil.org/china/centralasia/serindiachapters.htm.
9. Daniel Waugh [US]: Richthofen's "Silk Road": On the Archaeology of a Concept, p. 13 and note 19, Richthofen’s “Silk Roads”: Toward the Archaeology of a Concept (washington.edu).

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/8]
ISSN 2181-7324

TARIX
http://journals.nuu.uz
Social sciences

***Quvonch QODIROV,***
*O‘zbekiston Milliy universiteti mustaqil tadqiqotchisi*
*Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent*

*Tarix fanlari doktori, dotsent M.T.Tojiboev taqrizi asosida*

## PREPARATION OF PRISONERS RELEASED FROM PENITENTIARY INSTITUTIONS FOR SOCIAL LIFE

Annotation
This article describes the duties and responsibilities of psychologists working in penitentiary institutions to prepare convicts serving sentences for release, as well as to conduct educational work with them.
Also, proposals and recommendations were given on the conduct of psychological and educational work with convicts.
**Key words:** Crime, punishment, penitentiary institution, social life, imprisonment, convict, correction, education.

## ПОДГОТОВКА ЗАКЛЮЧЕННЫХ, К СОЦИАЛЬНОЙ ЖИЗНИ ОСВОБОЖДЕННЫХ ИЗ ПЕНИТЕНЦИАРНЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ

Аннотация
В данной статье описаны обязанности и ответственность психологов, работающих в пенитенциарных учреждениях, по подготовке осужденных, отбывающих наказание, к освобождению, а также по проведению с ними воспитательной работы.Также были даны предложения и рекомендации по проведению психолого-воспитательной работы с осужденными.
**Ключевые слова:** Преступление, наказание, пенитенциарное учреждение, социальная жизнь, лишение свободы, осужденный, исправление, воспитание.

## PENITENSIAR MUASSASALARIDAN OZOD QILINAYOTGAN MAHKUMLARNI IJTIMOIY HAYOTGA TAYYORLASh

Annotatsiya
Mazkur maqolada penitensiar muassasalarida jazo muddatini o‘tayotgan mahkumlarni ozodlikka tayyorlash, ular bilan tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish borasida mehant qilayotgan psixolog mutaxassislarning xizmat vazifalari hamda majburyatilari yoritilgan. Shuningdek, mahkumlar bilan psixologik tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish borasida taklif, tavsiyalar berib o‘tilgan.
**Kalit so‘zlar:** Jinoyat, jazo, penitensiar muassasa, ijtimoiy hayot, ozodl.ikdan mahrum qilish, mahkum, ahloq tuzatish, tarbiyalash.

**Kirish.** Mahkumlar orasida muassasa hayotiga tez ko‘nikib ketadiganlari tufayli penitensiar muassasalaridan ozod qilinayotgan mahkumlarni ijtimoiy reabilitatsiyasi va adaptatsiyasini amalga oshirish zarur bo‘ladi, chunki mahkumlar ozodlikka chiqishganda o‘z yo‘llarini topmog‘i lozimdir.

Ya’ni muassasaning odatlari va an’analarini obdan o‘rganib, ichki dunyoqarashidan kelib chiqib, boshqa mahkumlar bilan oson chiqishib ketganlardan so‘ng tashqi dunyo bilan aloqa ajraganligi tufayli turli psixologik muammolarga duch keladi. Shuning uchun ozod bo‘lgan mahkumlarda esa ushbu jarayon juda qiyin kechishi mumkin.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Yuqoridagilarga asosan mahkumlarning bunday holatin Rossiyalik olimlarning fikricha: “Ayrim mahkumlardagi eski stereotipning yangisi, ya’ni tashqi ta’sirlar tufayli paydo bo‘lganidan unchalik farq qilmasligi ularning har qanday holatga tezda ko‘nikib ketishlariga sabab bo‘ladi” deb ta’kidlaganlaridan ko‘rish mumkin [1].

Boshqa mutaxassis esa, “Agar muassasadagi turmush tarzi ozodlikdagi sharoitga moslashtirib muassasalardagi turmush tarzidan tubdan farq qiladigan bo‘lsa va yangi talablar eskilariga to‘g‘ri kelmasa, u holda korreksiyalash – «almashinish» qonuniyati yuzaga keladi. Natijada yangi fikr va qarashlar o‘rnini eskilari egallaydi hamda stereotip (odat)ning sinishiga olib keladi. Bu esa ko‘pgina kishilarga juda yomon ta’sir qiladi. Odatda, shunday hollarda mahkumning ichki dunyosida qarama-qarshiliklar vujudga keladi” deb ta’riflab bergan [2].

**Tadqiqot metodologiyasi.** O‘zbekistonlik olimlar bu masalaga yondashganlarida mahkumning ozodlikka moslashib keta olmasligiga quyidagi ob’ektiv va sub’ektiv omillar ta’sirini ko‘rsatib o‘tadilar:

Birinchidan, ozodlikka chiqqan mahkumning boshqa fuqarolarlar bilan muomalaga tez kirisha olmasligi yoki tashqi ta’sirlarga o‘ta yuqori darajada beriluvchanligi;

Ikkinchidan, ma’muriyatning tarbiyaviy ishlar olib borishga qaratilgan faoliyatiga qarshi mahkumning harakatlari;

Uchinchidan, mahkumning muqaddam bir necha marotaba sudlanganligi;

To‘rtinchidan, pedagogik tartib-qoidalarga nisbatan mahkumning ma’naviy jihatdan tubanlik darajasi[3].

Tahil va natijalar. Ijtimoiy hayotga jamoaga qo‘shilib ketishdagi to‘siqlarni yengib o‘tishini undagi o‘ziga xos jarayonning yashirin davri deb hisoblash mumkin. Ularni quyidagi uchta yo‘nalish bo‘yicha o‘rganib chiqish mumkin:

1) yangi sharoit (muassasa)ga moslashish;

2) jamoaga nisbatan dastlabki munosabatlarning mahkumda shakllanib borishi;

3) mahkumning jamoada va kichik guruhda o‘z o‘rnini topishi.

Bizningcha, mahkumning bu jarayonlarga qanday moslashishi kelgusidagi tarbiyasi va to‘g‘ri yo‘lga kirishiga sezilarli ta’sir qiladi. Agar tarbiyachilar, mahkumlar bilan tarbiyaviy ish olib borishning asl maqsadi, mohiyati, mazmuni va qonun-qoidalarini chuqur tushunsalar, qiyin holatlardagi yoxud kutilmagan hodisa va murakkab jarayonlardagi

muammolarni to‘g‘ri hal qila oladilar. Barcha xodimlar, pedagoglar, tarbiyachilar bunga doimo e’tibor qaratishlari lozim.

«Mahkumlarni axloqan tuzatish va tarbiyaviy ishlarni namunali amalga oshirish uchun umumiy va yakka tartibli tarbiyaviy ishlarning aniq tizimini tashkil etish talab qilinadi. Psixologik-pedagogik adabiyotlarning ushbu muammoga bag‘ishlangan tarmoqlari tahlili va jazoni o‘tash muassasalaridagi eng yaxshi pedagogik jamoalarning malakasini o‘rganib chiqib, joylarda olib boriladigan tarbiyaviy ishlarni ma’lum bir davrlarga ajratish lozim», – deydi psixolog olimlar V.G.Deev, P.P.Prokopovlar hamda quyidagi davrlarga bo‘lishgan:

birinchi davr – jamiyat hayotiga moslashish davri. Bunda tarbiyachi har bir mahkumning ijobiy va salbiy xislatlarini tahlil etib, salbiylarini bartaraf etish hamda ijobiylarini ko‘paytirish yo‘llarini izlaydi. Ularning o‘ziga xos xususiyatlari va pedagogik muhitni inobatga olib, butun jazo muddati davomida mahkumlarning amalga oshiradigan aniq vazifalari hamda tarbiyaviy ishlarning bosh yo‘nalishlarini xodim belgilab oladi. Bu davr 1,5–2 oy davom etadi;

ikkinchi davr – korreksiyalash (to‘g‘ri yo‘lga solish) davri bo‘lib, unda mo‘ljallangan tarbiyaviy ishlar dasturini amalga oshirish boshlanadi. Bu jarayonda mahkumlarning salbiy qarashlari, yomon odatlari ijobiy tomonga yo‘naltirib boriladi. Bunda mahkumlarning ijobiy xislatlari e’tiborga olinadi;

uchinchi davr – readaptatsiya (mahkumlarni ozod qilishga tayyorlash) davri bo‘lib, JIEM ma’muriyati ozodlikdan mahrum etilgan shaxsning jazo muddati tugashiga uzog‘i bilan uch oy qolganida uni ozodlikka chiqarishga tayyorlash ishlarini boshlaydi, ijtimoiy hayotga moslashuviga monelik qilayotgan omillarni aniqlaydi, uning muassasadan ozod bo‘lganidan keyingi huquq va burchlarini tushuntiradilar. Ushbu bosqichda mahkumning to‘g‘ri yo‘lga kirganligi, davlat, jamiyat va mehnatga munosabatining yaxshi tomonga o‘zgarganlik darajasi aniqlanadi. Shuni alohida qayd etish lozimki, yuqoridagi sanab o‘tilgan barcha tarbiyaviy ish bosqichlari mahkumlarni tarbiyalashda o‘zaro bog‘liq [4].

Balog‘at yoshiga yetmaganlarning kattalarga nisbatan tarbiyalanish darajasi mahkumlikda quyidagicha bo‘lishi mumkin:

– voyaga yetmagan mahkumlar bilan tarbiyaviy ish olib borish jarayonining dastlabki darajasida mahkum ozodlikdan mahrum etilgach, ushbu jarayonni kuchli hayajon bilan qabul qiladi va qattiq xafa bo‘ladi. Bu eski turmush tarzining boshqa sharoitga aylanishi bilan yuzaga keladi. Yosh mahkum ko‘p vaqt ota-ona va yaqinlaridan yiroq bo‘lishini o‘ylab tushkunlikka tushadi. Hayot tarzining shiddat bilan o‘zgarishi yoshlarda salbiy ruhiy o‘zgarishlarni yuzaga keltiradi.

Ma’lum fursat o‘tishi bilan turli siyosiy-tarbiyaviy ishlar ta’sirida mahkumlar tarbiyaning asosiy maqsadini, o‘zlarining yomon odatlaridan voz kechish zarurligini anglab yetadilar.

– mahkumlar bilan tarbiyaviy ish olib borish jarayonining ikkinchi darajasida ular mehnatda, o‘qishda, jamoat ishlarida o‘rnak ko‘rsatishlari hamda muassasa tartib-qoidalarini buzmasliklari kerak bo‘ladi. Shu bilan birga, mahkumlar yaxshi xulq-atvorda bo‘lish va muassasadagi tartib-qoidalarga bo‘ysunishi shartligini anglaydilar.

– tarbiyalashning uchinchi darajasida mahkumning axloqan tuzalish yo‘liga o‘tganligi, ongining shakllanganligi, yaxshi xulq-atvorga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Ularning tarbiyalangan-lik darajasi mahkumning faoliyati va o‘zini tutishni qanchalik boshqara olishi bilan belgilanadi.

Tarbiyachilar mahkumning faoliyatidagi o‘zgarishlarga qarab, uning to‘g‘ri yo‘lga kirganligining asosiy mezonini aniqlaydilar. Tarbiyalanayotgan mahkumlarni uch guruhga ajratish mumkin:

1) o‘z harakatlari, qilmishlari va o‘zini tutishda mavhumlikka ega bo‘lganlar;

2) axloqan tuzalish yo‘liga kirish va halol mehnat qilishni xohlamaydiganlar;

3) umuman tarbiyalanishni xohlamaydigan, muassasa tartib-qoidalarini qo‘pol ravishda buzuvchi va jamoatchilik ishlarida ishtirok etmaydiganlar [3].

Belgilangan vazifalarni amalga oshirishdagi ba’zi omillar tufayli tarbiya jarayoni oxiriga yetmay qolishi mumkin. Aksariyat mahkumlarning o‘ta tubanligi kabi sabablar ko‘zlangan maqsadga erishishga to‘sqinlik qiladi. Jazo muddatini o‘tab chiqqan mahkumlarning ko‘pchilik qismi hayotda to‘g‘ri yo‘lga kirsalarda, ayrimlari jazoni ijro etish muassasasida yaxshi tarbiyalanmaganliklari uchun qayta jinoyat sodir etadilar.

JIEMda tarbiyaviy ishlarning aniq va puxta tashkil etilishi jazoni o‘tayotgan mahkumlarning axloqan tuzalish jarayoni tezlashishiga hamda jazoni o‘tab chiqqach, ularning ijtimoiy hayotga tez moslashib ketishlariga poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

Jinoyat-ijroiya kodeksining 97-moddasida tarbiyaviy ish ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan shaxslarni axloqan tuzatishning asosiy vositalaridan biri deb ko‘rsatib o‘tilgan. Darhaqiqat, tarbiyaviy ishlar mahkumlarning xulq-atvoriga ta’sir qilish, ularning xulqini ijobiy tomonga qaratish usullari, vositalari va uslublarining yig‘indisi hisoblanadi.

JIEMda tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish jinoyat sodir etgan shaxslar bilan bog‘liq bo‘lganligi sababli O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksi bilan tartibga solinadi. Unda jazoni o‘tash rejimi hamda mahkumlarni axloqan tuzatishning bir qancha vositalari ko‘rsatilgan. Jumladan, tarbiyaviy ish ozodlikdan mahrum etilganlarga ta’sir qilish va axloqan tuzatish vositasi sifatida ham ta’kidlangan. Ammo jazoni ijro etish qonunchiligida tarbiyaviy ishga ta’rif berilmagan, faqat Jinoyat-ijroiya kodeksining 14-bobida tarbiyaviy ish olib borish tartibi belgilangan. Jazoni ijro etish masalasi bilan bog‘liq ayrim adabiyotlarda ushbu tushuncha ma’naviy-huquqiy tarbiyalash, mahkumlarning onglilik darajasi, madaniyati, intizomlilik darajasini oshirish, ijobiy xislatlarining yuzaga kelishiga turtki berish, shu bilan birga ozodlikdagi hayotga nisbatan qiziqishlarini uyg‘otish kabi tadbirlar yig‘indisidan iboratdir, deyiladi.

JIEMda tarbiyaviy ishlar olib borish amaliyotidan ma’lumki, mahkumlarni ozodlik va keyingi hayotga psixologik jihatdan tayyorlashda ayrim tadbirlarni tez-tez va juda ko‘p o‘tkazish bilan ijobiy natijaga erishib bo‘lmaslik ham mumkin. Muvaffaqiyatga erishish uchun chuqur o‘ylab belgilangan tarbiya shakllari, uslublari, metodlarini tatbiq qilish va tarbiyalashning yangicha yo‘llarini ishlab chiqish zarur.

Huquqshunos Sh.Qushboqovning fikricha, jazoni ijro etish muassasalari huquqni muhofaza qilish funksiyalari, jamoat tartibi va jamoat xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha tashkil etilgan, ichki tashkiliy birdamlikka, qonun doirasida qat’iy belgilangan vakolatlarga ega bo‘lgan tashkilot sifatida emas balki mahkumlarning tarbiyasini qayta shug‘ullanuvchi tashkilot sifatida qarash zarur [5].

Fikrimizcha, tarbiyaviy ishlarning sifati JIEM xodimlarining g‘oyaviy-siyosiy yetukligiga bog‘liq. Mahkumlarni tarbiyalashdagi vazifalarning aniq rejalashtirib olinishi maqsadga muvofiqdir. Birovni tarbiya qiladigan insonning o‘zi yaxshi tarbiya ko‘rgan bo‘lishi kerak. Ayniqsa JIEMda tarbiyaviy ishlarni olib boruvchilar yuqori axloqiy sifatlarga ega, haqiqatgo‘y, rostgo‘y bo‘lishlari lozim. Ulardan mavqe, obro‘ va mashaqqatli mehnat talab qilinadi. Ko‘pincha, mahkumlar qattiqqo‘l, talabchan, lekin odil tarbiyachilarni hurmat qilishadi.

Tarbiyaviy ishlar muvaffaqiyati pedagogik mahoratning qay darajadaligiga ham bog‘liq. Xodim o‘z ustida muntazam ishlash bilan birga dunyoqarashini kengaytirib, huquqiy va dunyoviy bilimlarini boyitib borishi zarur.

Xodimning tashkilotchilik qobiliyati tarbiyaviy ishlarni tash-kil etish, mahkumlarni ozodlik va keyingi hayotga psixologik jihatdan tayyorlash faoliyati bilan belgilanadi.

Turkum (otryad) boshlig‘i yaxshi tashkilotchi bo‘lsa, barcha ishlarni doimo o‘zi bajaravermay xodimlarga taqsimlab beradi va bajarilishini nazorat qiladi. Tarbiyaviy ishlarning bir xil tarzda olib borilishi bilan ijobiy natijaga erishish qiyin kechadi. O‘tkaziladigan har bir tadbirga alohida qarash, did bilan ijodiy yondashish kerak.

Demak, JIEM ma’muriyati tarbiyaviy ishlarni tashkillashtirish bilan cheklanib qolmay, balki aniq rejalar asosida muassasa xodimlarining g‘oyaviy-siyosiy, mafkuraviy, xizmat tayyorgarligi va peda¬gogik mahoratlarini oshirish yo‘llarini amalda qo‘llashlari lozim.

Muassasa muhitini yaxshilash bilan birga, mahkumlarning moslashuv jarayonida va ozodlikdagi hayotga tayyorlash kabi juda muhim ishlarni amalga oshirishda JIEM psixologlarining o‘rni beqiyos.

Psixologning faoliyati izolyatsiyalangan holatda emas, balki aniq bir boshqaruv tizimida olib borilishi kerak. Penitensiar muassasalarda vujudga kelgan tizimni hisobga olgan holda ularning vazifalarini aniqlab olish imkoniyati yuzaga keladi. Psixologlar ishining samaradorligi ularga yuklatilgan vazifalar-ga ham uzviy bog‘liq bo‘ladi.

Afsuski, ba’zi rahbarlar pedagogik jarayonlarda psixologlarning o‘rni qanchalik ahamiyat kasb etishini yaxshi tushunmaydilar. Natijada ayrim psixologlar ilmiy ish bilan shug‘ullanadilar yoki amaliyotdagi birorta xodimning o‘rniga ishlab yuradilar. Bunday yondashuv axloq tuzatish masalasining samarali hal etish hamda mahkumlarni ozodlikka va keyingi hayotga psixologik jihatdan tayyorlashga to‘sqinlik qiladi.

Me’yoriy hujjatlarga ko‘ra, jinoiy jazoni ijro etish muassasasining psixolog xodimlari oldiga qo‘yilgan vazifalar asosan quyidagilardan iborat:

– jinoiy jazoni ijro etish muassasalarida ijobiy, ma’naviy, psixologik muhitni shakllantirish;

– mahkumlar o‘rtasida psixologik-pedagogik yo‘nalishdagi tar-biyaviy ishlarni kuchaytirish;

– mahkumlarning shaxsiy, psixologik, demografik, kriminogen va boshqa xususiyatlarini inobatga olgan holda toifalarga taqsimlash;

– jazoni ijro etish muassasasi xodimlari tomonidan psixologiya va pedagogika asoslarini batafsil o‘rganish;

– IIV jazoni ijro etish muassasalari qoshida psixologik malakani oshirish bo‘yicha maktablar tashkil etish;

– JIEM xodimlarining siyosiy, ishbilarmonlik va shaxsiy sifatlarini o‘rganish;

– ilg‘or jazoni ijro etish muassasalari faoliyatini namuna sifatida amaliyotga tatbiq qilish;

– mahkumlarni yangi hayot tarziga moslashtirish va ozodlikka tayyorlash.

Xulosa va takliflar. Yuqoridagilardan kelib chiqib:

Birinchidan, ilmiy va amaliy tadqiqotlar natijasida JIEMdagi psixologlarning qanday vazifani bajarishlari zarurligi to‘g‘risida yagona fikrga kelib olinsa maqsadga muvofiq bo‘ladi;

Ikkinchidan, psixologlarga mahkumning shaxsini aniqlash, ular bilan tarbiyaviy ishlarni tashkil etish uchun aniq tavsiyalar berish vazifasi qo‘yilishi kerak;

Uchinchidan, yangi kelgan mahkumlarning yoshi va psixologik xususiyatlari, hayot yo‘li, jinoyatni sodir etish sabablari va oqibatlarini, har bir mahkumning jazoga, jinoyatchilikka munosabati, kelgusi rejalari kabilarni o‘rganib chiqish asosida tarbiyaviy ishlarning asosiy yo‘nalishi va dasturlarini belgilash;

To‘rtinchidan, pedagogik jihatdan nisbatan og‘ir ahvoldagi mahkumlar ustida chuqurroq izlanishlar olib borish, psixologik tayyorlov va jinoiy jazoni ijro etish muassasasining ta’sirini yanada mustahkamlovchi tavsiyalar berish;

Beshinchidan, JIEM xodimlari o‘rtasidagi psixologik bilimlarni boyitish maqsadida targ‘ibot-tashviqot ishlarini muntazam uyushtirish, tashhisni amalga oshirish tartibini ularga o‘rgatib borish, mahkumlarni ozodlikka, ya’ni keyingi hayotga psixologik jihatdan tayyorlash rejalarini ishlab chiqish zarurdir.

Natijada, mahkumlarni axloqan tuzatish, yangi hayot tarziga moslashtirish, ozodlikka va keyingi hayotga psixologik jihatdan tayyorlash singari masalalarda ijobiy natijalarga erishish mumkin bo‘ladi.

## ADABIYOTLAR

1. Леус Э.В., Соловьев А.Г. Адаптационные технологии ресоциализации несовершеннолетних осужденных //Психология и право. – 2012. – Т. 2. – №. 3.
2. Чигринец Е.А. Проблемы социальной адаптации осужденных и реабилитация лиц, освобожденных из мест лишения свободы //Закон и право. – 2019. – №. 8. – С. 98.
3. Пенитенциар психология: Маърузалар курси / Сирлиев б.Н., Душанов Р.Х. Сирлиев Э.Н., Калонов И.Х., Таджибаева Д.А. ва бошқ. – Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2016. – 368 б.
4. Садчикова С.А. Ресоциализация и социальная адаптация осужденных женщин //научные достижения и открытия современной молодёжи. – 2017. – С. 232.
5. Қушбоқов Ш. Жазони ижро этиш муассасаларининг юридик шахс сифатидаги тушунчасининг таснифи //Development of pedagogical technologies in modern sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 4. – С. 58.

**O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/8]**
**ISSN 2181-7324**

**TARIX**
http://journals.nuu.uz
Social sciences

**UDK: 891.3-4**

***Mavzuna MUXIDDINOVA,***
*Samarqand davlat universiteti tadqiqotchisi*
*E-mail: Mavzuna.MS@gmail.com*

*O'zMU dotsenti A.Xoliqulov taqrizi asosida*

## ETYMOLOGY AND MEANING OF SPECIAL TERMS ABOUT THE HISTORY OF BUKHARA IN THE WORK OF "TARIKHI KHUMULI"

Annotation

This article highlights the reign of the Mangyt dynasty, as well as topical historiographic issues of toponymy, tribal and family names in the territory of Bukhara and Samarkand during the reign of the Mangyt dynasty, discusses the etymology of various terms and their meaning. In particular, on the basis of scientific literature, the issues of reflecting military-political, religious-mystical terms, positions and titles, toponyms, oikonyms, hydronyms in the "History of Khumuli" by Dzhumakuli Khumuli were analyzed and comprehended.

**Key words:** Mangity, dynasty, Khumuli Urguti, "Tarihi Khumuli", term, toponyms, oikonyms, hydronyms, ethnic names.

## ЭТИМОЛОГИЯ И ЗНАЧЕНИЕ СПЕЦИАЛЬНЫХ ТЕРМИНОВ ПО ИСТОРИИ БУХАРЫ В ПРОИЗВЕДЕНИИ "ТАРИХИ ХУМУЛИ»

Аннотация

В данной статье освещается о правление династии мангытов, а так же о актуальных историографических вопросах топонимии, племенных и родовых названий на территории Бухары и Самарканда в период правления династии мангытов, обсуждаются этимология различных терминов и их значение. В частности, на основе научной литературы были проанализированы и осмыслены вопросы отражения военно-политических, религиозно-суфийских терминов, должностей и титулов, топонимов, ойконимов, гидронимов в «Истории Хумули» Джумакули Хумули.

**Ключевые слова:** Мангиты, династия, Хумули Ургути, «Тарихи Хумули», термин, топонимы, ойконимы, гидронимы, этнические имена.

## "TARIXI XUMULIY"DA BUXORO TARIXIGA OID MAXSUS ATAMALAR:ETIMOLOGIYASI VA MOHIYATI

Annotatsiya

Ushbu maqolada O'zbekiston tarixida muhim ahamiyat kasb etgan Mang'itlar sulolasi hukmronligi, bu paytdagi tarixnavislik masalalari bilan birgalikda, mang'itlar sulolasi hukmronligi davrida Buxoro va Samarqand hududidagi joy nomlari, qabila va urug' nomlari, turli atamalar etimologiyasi va ularning mohiyati xususida so'z yuritiladi. Xususan, harbiy va siyosiy, diniy-tasavvufiy atamalar, mansab va unvonlar, toponimlar, oykonimlar, gidronimlarning Jumaquli Xumuliyning "Tarixi Xumuliy" [1] asarida aks ettirilishi masalalari tahlilga tortilgan hamda ilmiy adabiyotlar asosida sharhlangan. Maqolada shuningdek, har bir sohaviy istilohning lug'aviy ma'nosi bilan birgalikda, uning o'z davrida qo'llanishi bilan bog'liq vaziyatlar xususida ham batafsil ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** Mang'itlar, sulola, Jumaquli Xumuliy, "Tarixi Xumuliy, istiloh, atama, toponim, oykonim, gidronim, etnik nomlar.

**Kirish.** Buxoro amirligi tarixi bugungi kunga kelib dunyo ilmiy markazlarida keng o'rganilmoqda. Xususan, mang'itlar sulolasining jahon tarixi sahnasiga kirib kelishi, ushbu sulola hukmronlik qilgan paytda Buxoroda amalga oshirilgan tub islohotlar va ularning amaliy natijasiga oid bir qator izlanishlar fanga ma'lum. Ammo shu yo'nalishda mang'itlar sulolasi davri tarixini yoritgan ayniqsa, mang'itlar davrida Samarqand va Buxoro shaharlaridagi ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalarni o'zida aks ettirgan Jumaquli Xumuliyning "Tarixi Xumuliy" asari tarixiy jihatdan tadqiqotlarga jalb etilmagan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risi"dagi PF-60-son Farmonida "Buyuk ajdodlarimizning boy ilmiy-ma'naviy merosini keng targ'ib qilish maqsadida yurtimizdan yetishib chiqqan allomalar qalamiga mansub 100 ta asarning xalqchil tarjimasini amalga oshirish, ular asosida ilmiy va ommabop risolalar yaratish". Shu bois, O'zbekiston tarixini allomalar asarlarini o'rganish asosida yoritish, hamda hozirgi kun nuqtai-nazaridan tahlil qilish alohida ahamiyatga egadir.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Maqolani yozishda tadqiqot obyekti bo'lgan "Tarixi Xumuliy" asarining 2013-yilda YuNESKO tashkiloti homiyligida, X.X.Yo'ldoshxo'jaev mas'ul muharrirligida G'ulom Karimiy va Iroda Qayumova tomonidan "Tarixi Xumuliy" [1] asarining ilmiy-tanqidiy matnidan foydalanildi, hamda tarjimalarni amalga oshirishda ushbu tanqidiy matndan foydalanildi. Shuningdek, Buxoro amirligi tarixini yoritishda Yu.Bregel, A.f.Kyugelьgen, Q.Rajabov, Sh.Vohidov, R.Xoliqova kabi olimlarning tadqiqotlaridan foydalanildi.

**Tadqiqot metodologiyasi**. O'zbekistonning qadim tarixida hukmron sulolalar xususida ko'plab manbalar yaratilganligi va bugungi kunda shunday manbalarni o'rganish orqali tariximizning yangi sahifalarini kashf etishga bo'lgan intilishning kuchayishi quvonarli holdir. Darhaqiqat, O'zbekiston tarixida hukmron sulolalar adadi talaygina. Ularning orasida Buxoroning so'nggi hukmron sulolasi bo'lmish Mang'itlar sulolasi haqida yozilgan tarixiy manbalar ham mavjud bo'lib, Jumaquli Xumuliy qalamiga mansub "Tarixi Xumuliy" asari shular jumlasidandir. Ushbu asar to'lig'icha mang'itlar sulolasining tarix sahnasiga kelishidan to Amir Nasrulloh hukmronligining ilk yillarigacha bo'lgan davrni qamrab olgan voqealarni yoritganligi bilan

ahamiyatlidir. Unda kelgan atamalar va istilohlar muammosi ushbu maqolaning bosh mavzusi hisoblanadi.

**Tahlil va natijalar**. “Tarixi Xumuliy” asarida tarixiy voqealar bayoni Eron hukmdori Nodirshoh (vaf. 1747 yilda) davridan boshlanib, mang’it hukmdorlari: Muhammad Rahimbiy (1747-1756 yy. otaliq, 1756-1758 xon) [2], Muhammad Doniyolbiy otaliq (1758-1785) [3], Amir Shohmurod (1785-1800) [4]va Amir Haydar (1800-1826) [5] davrini qamrab oladi. Asar oxiri Amir Nasrulloh hukmronligining ilk yillariga to’g’ri keladi.

“Tarixi Xumuliy” asarining ahamiyati haqida so’z borganda uning quyidagi xususiyatlariga e’tibor berish mumkin: A) davr voqealariga guvoh bo’lgan va ko’pgina tarixiy voqealarning ishtirokchisi tomonidan yozilganligi; B) yangi mang’itlar sulolasining davlat tepasiga kelishi bayon etilganligi; V) manbada etnik va etnomadaniy munosabatlar, o’troq va ko’chmanchi aholining o’zaro aloqalari, xalqaro munosabatlarga doir ma’lumotlar mavjudligi; G) tarixiy ma’lumotlardan tashqari davrning adabiy va ilmiy hayoti, muallifning iste’dod va ijod namunalari asarda o’z aksini topganligi; D) manbadagi etnonimiya, toponimiya, terminologiya va tasavvuf tariqatlariga oid axborotlar aks etganligi bilan ham ahamiyatlidir. Bundan tashqari asarda Buxoro amirligining boshqa hududlari, mahalliy hukmdorlarning o’zaro va markaziy hukumat bilan aloqalari haqida ma’lumot olish mumkin.

O’rganilayotgan manbada bir turkum muhim ma’lumotlarni etnonim va harbiy terminlar, diniy, ma’muriy, boshqaruv va xo’jalik, maxsus tarix fanlarga oid atamalar tashkil qiladi. Asar Buxoro va Samarqand ilmiy va adabiy muhiti doirasida fors tilida yozilgan bo’lsa ham unda boshqa tillardan o’tgan ko’pgina atama va so’zlarni ko’rish mumkin. Asarda termin va atama mazmunidagi so’zlar ichida arabcha, turkiy, o’zbekcha, uyg’ur va mug’ul tilidan olingan so’zlarni uchratish mumkin. Etnik nomlardan “Tarixi Xumuliy” asarida qavm va qabilalardan: atrok/turk, arlot, afg’on/afg’oniya, o’zbak/o’zbakiya, uyshun, eroniy, aymoq, burqut, Bani Hoshim, tojikiya/tojik, turkmon, turkiy, turkiya, xitoy, saroy, safaviy, arab, g’archa, fors, qatag’an, qipchoq, qibtiy, qirq, qurayshiy, qazoq, qizilboshiya, kenagas, mang’it/mang’itiya, mingiya/ming, hoshimiy, hindu, yuz/yuziya kabilarni ko’rish mumkin.

Jumaquli Urgutiyning “Tarixi Xumuliy” asarida harbiy va siyosiy atamalardan atoliq, o’rdu, ashtarxoniya, oq uylu(k), o’tchi, o’lja, eshik oqaboshi, elchi, ilg’or [1], bayraq, tarxon, to’pxonachi, jorchi, dodxoh, dorug’a [1], devonbegi, shogirdpesha, shulorg’a, g’ulom, qozi askar, qo’sh, qo’shbegi, qo’shun, ko’runushxona, mo’ljar [1], naqibchi, yorlig’, yaso, yasovul, yurish, muqaddam, maysara[1], yo’sun, elchi [1] kabi istilohlar keltiriladi.

Buxoro amirligida davlat boshqaruvi, oldingi davrlarda bo’lgani kabi asosan ikki bosqichli bo’lib, markaziy davlat boshqaruvi va mahalliy boshqaruvdan iborat edi. Boshqaruv amir avlodi, saroy amaldorlari, o’zbek urug’lari va qabila boshliqlari hamda e’tiborli din peshvolaridan tashkil topgan va ko’proq urug’-aymoqchilik va tabaqalash asosida amalga oshirilgan.

Buxoro mamlakatida unvon, mansab va amallarga tegishli adabiyotlardan berilgan ma’lumotlar juda ham chalkash va qarama qarshidir. Ko’pincha ma’lumotlar yuqori mansabdorlarga oid bo’lgan. Mazkur mavzuga oid manbalardan Mirzo Badi’ Devon, Qozi Vafo va Muhammad Sharif, Jumaquli Xumuliy, Sadri Ziyo, Mirzo Olim Hoji, olimlardan A.A.Semenov, A.B.Vildanova, Yu.Bregellarni tilga olish mumkin. Yuqoridagilardan Yu.Bregelning «Mang’itlar davrida Buxoro ma’muriyati» nomli asarining ahamiyati beqiyosdir[6].

Buxoroda eng yuqori unvon (mansab) va amallar «32 (keyinchalik 92) o’zbek qabilalari» namoyandalariga, sayyidlarga, xo’jalarga (najib at-taraf yo najib at-tarafayn) va ulamolarga berilgan. Amir Shohmurod davrida ulamolar (islom ruhoniylari)ning martabalari juda yuqori bo’lgan. Amir Haydar ham taxtga chiqqanida birinchi bo’lib uni ulamolar tabriklagan [7]. Buxoro mamlakatida eng yuqori unvon bu amir al-umaro, otaliq [1], hokim (voliy, bek), qo’shbegi [1] va devonbegi [1] bo’lgan. Otaliq shahzoda, xonzoda (asosan taxt vorisi)ga homiy va murabbiy bo’lgan shaxs. Vaqt o’tishi bilan (bu mansab Oltin O’rdada joriy qilingan) bu amalning vakolati va zimmasida bo’lgan vazifalar o’zgarib mang’itlar davrida atoliq otaliqqa olingan shaxsning maslahatchisi va ishonchli vakili, harbiy va ma’muriy ishlarda asosiy namoyandasiga aylandi [6].

Mang’itlar xukmronligiga asos solinganda Muhammad Rahimbiyning otasi Muhammad Hakimbiy Abulfayzxon davrida otaliq bo’lgan. U bu mansabdan tashqari “amir al-umaro”dek faxriy unvonga ham ega bo’lgan. Yu.Bregelning aniqlashicha unga yana «umdat al-mulk», «umdat al-a’yon», «umdat al-umaro», «amir-i kabir» epitetlari bilan murojaat qilishgan. Qabila peshvolari ham amir unvoniga sohib bo’lib, yurish va urush paytida o’z qabiladoshlaridan muayyan miqdorda qurollangan askar ajratishlari lozim bo’lgan [6]. Muhammad Rahimbiy otaliq bo’lganida u allaqachon harbiy, fuqarolik va soliq ishlarini o’z qo’liga olib bo’lgan edi. Faqat amir Shohmurod davrida otaliqning vakolati cheklandi, hatto uning davrida biror bir otaliq tilga olinmagan.

Mirzo Badi’ Devon amir Shohmurod davridagi otaliq mansabi haqida gapirib, uning vazifasiga Zarafshon daryosi suvining taqsimotini nazorat qilish, Buxoro kanali (rud-i shaxr) va dorug’alik vazifasi yuklanganini ta’kidlaydi [8].

Mang’itlar hukmronligi davrida qo’shbegi eng oliy harbiy mansab hisoblangan. Aslida bu mansab egasi birinchi vazir vazifasini bajaradigan bo’ldi. Bundan oldingi otaliq mansabi XIX asrning boshlarida vakolat jihatidan ancha pasayib, qo’shunbegi/qo’shbegi unvoni va amali yuqori darajaga ko’tarildi. Otaliq mansabining saroydan ketkazishi uning egasining hukmdor va uning oilasiga ta’sirini kamaytirib, oxiri yo’q qilishga olib kelinganidir.

Qushbegi esa hukmdorning ov vositalaridan bo’lmish itlar, ov qushlari, asboblariga mas’ul amaldor bo’lishgan. Qushbegilar ham Buxoroda, amalda saroyda qushbegii bolo va poyonga bo’lingan. (sababi ularning uylari Arkda biri yuqori va biri pastroqda joylashgan edi-M.M.)

Buxoro amirligi ijtimoiy-siyosiy hayotida, davlat boshqaruvida harbiy ma’muriy va din peshvolarining tutgan o’rni ham o’ziga xos bo’lgan. Buxoro amirligida din vakillari juda ko’p bo’lib, ular ta’sirli kuchga ega bo’lishgan. Din vakillari aksariyat hollarda imtiyozli guruhlardan-sayyid va xo’jalardan tashkil topgan edi. Amirlikdagi yuqori diniy amaldorlardan biri hisoblangan Shayxulislom XVII-XVIII asrlarda davlatda eng oliy toifali din vakili hisoblangan. Ammo biz ko’rib chiqayotgan davrda uning vazifalari ancha torayib, asosan arzlar va payg’ambar, hamda uning xalifalaridan kelib chiqishi muammolarga bag’ishlangan masalalarni ko’rib chiqishdan iborat bo’lib qolgan [9].

XIX asr boshlarida va keyinchalik Shayxulislom o’rnini qozikalon egallaydi. Amir huzuridagi Kengashda din vakillaridan qozikalon, shayxulislom, naqib [1] va rais (muhtasib) qatnashgan [10].

“Tarixi Xumuliy” asarida “Allomai zamon, ustodi ulamo, maxdumi a’zam, oliy obro’ga ega –Mir Abdul Hay Xoja Samarqand shahrining shayxulislomi va qozikaloni edi” deb qayd etilgan. Asardagi ushbu ma’lumotdan amirlikda shayxulislom vazifasidagi kishi ayni paytning o’zida qozikalon lavozimini ham egallashi mumkin ekanligini qayd etish o’rinli. Samarqand qozikaloni haqidagi ma’lumotni muallif shunday davom ettiradi. “Kunlardan bir kun Samarqanddagi Sherdor Yalangto’shbiy madrasasida qoziyul

quzzot Shayxul Islom Abdul Hay Xojaning hujrasiga Samarqand hokimi tashrif buyurdi. Bu shayxulislomning ovozasi yetti iqlimga tarqalgan, shavkatu mahobatda zarbulmasal, zamon hokimu avliyolari uning martabasidan xavfda, uning oldida ularning so’zlashga majoli yo’q. Bu majlisda hokimlardan tashqari boshqa olimu ulamolar va kibor kishilar ham hozir edi. [1] Demak, Samarqand shahrining qozikaloni Sherdor Yalangto’shbiy madrasasida ish yuritgan, e’tiborli jihati, Samarqand hokimi qozikalon Abdul Hay Xojaning oldiga tashrif buyurganligidir. Bundan din ulamolarining nufuzi, obro’si qanchalik yuksak ekanligini anglashimiz mumkin.

Buxoro amirligi tarixi, davlat tuzumi to’g’risida tadqiqot olib borgan ko’p olimlar diniy unvonlar to’g’risida to’xtalganda ba’zan muftiy, qozi [1, 135a, 166a.] kabilarni qayd etishgan. Aslida esa, Buxoro amirligida rasman uchta diniy unvon: 1) o’roq, 2) sudur va 3) sadr mavjud bo’lgan [11]. Tarixiy ma’lumotlar shundan guvohlik beradiki, madrasani tugatgan shaxs mullo, qozi, rais amallarini egallashlari mumkin bo’lgan. Yuqoridagi amallarda bir necha yil ishlagandan so’ng, fiqh sohasida qo’lga kiritgan yutuqlari asosida unday shaxslarga dastlab o’roq, keyin sudur va so’ngra sadr unvonlari berilgan [12]. Eng oxirgi yuqori diniy unvon sohibi bo’lgan shaxs qozikalon, muftiy, a’lam, oxun kabi diniy amallarni egallashi mumkin bo’lgan. Buxoro amirligida din vakillarining kuchi va ta’siri to’g’risida A.A.Semenov to’xtalib o’tib, «din vakillari ko’p holatlarda amirning u yoki bu qarorlariga o’z e’tirozlarini bildirib, ularni o’zgartirishga majbur qilganlar» [6]deb ko’rsatib o’tgan. Buxoro amirligida din vakillari sudni, odamlar xulqini, ta’limni nazorat qilib, uni boshqarishga mas’ul hisoblangan. Buxorodagi barcha fuqaro sudi shariat bo’yicha boshqarilgan va bu boshqaruv «qozi» deb ataluvchi shaxslar qo’lida bo’lgan. Bosh qozi, ya’ni qozikalon poytaxt bosh qozisi va ayni paytda amirlikdagi boshqa barcha qozilar boshlig’i hisoblangan [12].

Diniy va tasavvufiy atamalardan muallif brahma/brahman, jahriya, chishtiya, husayniya, hashr, hanafiy, xilvat dar anjuman, xufiya, rido, zakot, zunor, safar dar vatan, shariat, shayxulislom [1], shia, taylason, ishqiya, ilmi faroiz, fatvonavisiy, qodiriya, qoziy, Ka’ba, kubraviya, muazzin, mujaddidiya, mudarris, madrasa, maktab [1], Manot, nazar dar qadam, naqshbandiya, naqshbandi, hush dar dam va boshqa tushunchalarni o’qish mumkin. Boshqa atamalardan ashrafiy, ol tamg’a, avqof/vaqf, elot, boj, begor, chavgon, xiroj, soqa, sarona, suyunchi, she’r, aro’z, ushr, ilmi masohat, farrosh, kosibona, handasa kabi so’zlar ko’zga tashlanadi.

Asarda tilga olingan etnonimlardan atrok-turk [1], qozoq [1] arlot [1], uyshun [1], aymoq [1], a’rob [1], afg’on [1], o’zbek [1]-o’zbekiya [1], eroniy [1], bani hoshim [1] tojikiya-tojik [1], tarokima [1], burqut [1], xitoy [1], saroy [1, 206b], qotag’an [1, 233 a], qipchoq [1], qirq [1], qibtiy [1], qurayshiy [1], kenagas [1], mang’it-mang’itiya [1], mingiya/ming [1], yuz/yuziya [1], hindu istilosi va hukmronliklari davriga borib taqaladi.

O’zbekxon itoatidagi turku mo’g’ul qabilalari o’zlarini “o’zbek” deya atadilar hamda Oltin O’rda tarkibidagi Dashti Qipchoq qabilalari markaziy hukumatga itoat etishdan bosh tortgan holda o’z qabilalarining yetakchilari mutobaatida bo’lib, o’zlarini “qozoq” ya’ni birovga tobe’ bo’lmagan, ozod xalq deya nomladilar. Shundan boshlab “qozoq” va “qozoqlik” (qazoqchilik) nomi turkiy tilli Dashti Qipchoq qabila va elatlari, ya’ni Oltin O’rda xonligi tarkibiga kirmagan qipchoqlarga nisbatan qo’llanila boshladi. Keyinchalik, qozoqlar Ulug’, O’rta va Kichik “juz”larga bo’linganlar. O’z navbatida mazkur juzlarning har biri o’z ichida turli qavm va elatga bo’linganlar. Ushbu masala ilmiy adabiyotlar hamda tarixiy manbashunoslik sohalarida chuqur o’rganilgan hamda tahlil etib berilgan.

“G’archa” yoki “g’alcha” [1] atamasi Farg’ona va Zarafshonliklar tomonidan Falg’ar tog’lari, Qarotegin va Darvoz aholisiga nisbatan qo’llangan. Keyinchalik, ushbu atama sodda va ishonuvchan kishilarga, makru xiyladan yiroq tog’liklarga nisbatan ishlatila boshlandi.

Bundan tashqari, oq uylu(k) [1], shulorg’a, yaso, yasovul, yo’sun atamalarini ham sharhlash maqsadga muvofiq. Oq uyluk (oq chodir,) nufuzli shaxslar, hukmron sulola vakillari, zodagonlar hamda davlat mulozimlari tomonidan garov (amonat)ga olinganlardir. Ular bir muddatdan so’ng o’z vatanlariga qaytishlari mumkin bo’lgan (“oq uyluk” so’zi barobarida “qora uyluk” atamasi ham mavjud. Ular huquqlari bekor qilingan asirlar sanalganlar). “Tarixi Xumuliy” asarida Amir Haydar davrida (1806-yil) Movarounnahr va Miyonqoldan O’ratepaga bir qism aholi “oq uyluk” tarzida ko’chirib keltirilganligi haqida shunday deyiladi: “Qadimgi kitoblarda “Usturavshan” deb yuritiladigan O’ratepaning hokimligini Buxoro amiri Ernazar Arlodga berdi. U bu shaharni Farg’ona lashkarining yo’lini to’sish va himoya qilish maqsadida Movarounnahr va Miyonqoldan shijoatli va pahlavon jamoani, Xitoy, Qipchoq qabilalaridan, o’zbek, tojik va aymoqlardan bo’lak kishilarni ham “oq uyluk” tarzida O’ratepaga ko’chirib olib keldi”. Asardagi ushbu ma’lumotdan ma’lum bo‘ladiki, o‘rganilayotgan manbada nafaqat turli atama va terminlar, balki joy nomlari haqidagi ma’lumotlar ham mavjud. Bunda keltirilgan hududning qadimiy nomi, unda yashaydigan aholi, qavmlar haqidagi ma’lumotlar diqqatga sazovordir.

**Xulosa va takliflar**. Jumaquli Xumuliyning “Tarixi Xumuliy” asarini o’rganish orqali biz atamalar va terminlar, shuningdek boshqaruvga oid mansablarning mang’itlar davridagi mohiyati haqida qiziqarli ma’lumotlar keltirilgan.

Buxoro tarixini o’zida aks ettirgan tarixnavislarning asarlarida keltirilgan tushuncha va tamoyillarni etimologik hamda manbashunoslik nuqtai nazardan tadqiq etish muhim vazifalardan biri sanaladi. “Tarixi Xumuliy”da aks etgan Buxoro tarixiga oid maxsus atamalar, ularning etimologiyasi va mohiyatini bilish hamda to’g’ri talqin va tahlil etish orqali yurtimiz tarixida bizlarga hali noma’lum sahifalarni tadqiq etishga imkon beradi desak mubolag’a bo’lmaydi.

**ADABIYOTLAR**


1. Мулло Жумақули Хумулий. Тарихи Ҳумулий / Ғ.Каримов ва И.Қаюмова нашрга тайёрлаган. – Самарқанд-Тошкент, 2013, “Mega Basim Baha Is Merkezi нашриёти, Haramidere”, Istanbul, Turkey. – 243б.
2. Ражабов Қ. Муҳаммад Раҳимхон-манғитлар сулоласи асосчиси // Бухоро мавжлари, 2005, 3 сон. – Б. 36-37.
3. Ражабов Қ. Муҳаммад Дониёлбий оталиқ: бийлик мансабидан амирлик рутбасигача // Бухоро мавжлари, 2005, 4 сон. – Б. 26–27;
4. Ражабов Қ. Амир Шохмурод ёхуд “амири маъсум” // Бухоро мавжлари, 2006, 1- сон. – Б. 36-38.
5. Ражабов Қ. Амир Ҳайдар ёхуд амири Саййид // Бухоро мавжлари, 2006, 2 сон. – Б. 40- 42.
6. Bregel. Y. The administration of Bukhara under the Manghits and some Tachkent manuscripts. Bloomington, 2000 (Papers on inner Asia № 34).P.1-14.
7. Кюгельген А. Ф. Легитимация среднеазиатской династии мангитов в произведениях их историков (XVIII-XIXвв.). Алматы. «Дайк пресс» 2004. -519с.
8. Семенов А.А. К истории бухарских мангытов // Бюллетень САГУ,. №6, 1924. – С. 12-80.

9. Бароти Шамсо. Титулы периода правления мангитов в Бухарском эмирате// Автореф. дисс... канд.ист.наук. – Душанбе, 2006. – 24 с.
10. Холиқова Р. XIX асрда Бухоро амирлиги. // Жамият ва бошқарув, 2000, № 3. – Б. 70-71.
11. Воҳидов Ш., Холиқова Р. Марказий Осиёдаги давлат бошқаруви тарихидан. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2006. Б. 72.
12. Холиқова Р. Амирликда амалу-унвонлар.// Фан ва турмуш, 2000, №4, – Б.14.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/8]
ISSN 2181-7324

TARIX
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UDK:372.881.1

*Alisher NAZAROV,*
*O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti doktoranti,*
*E-mail: alishernazarov@gmail.com*

*O‘ZDJTU dotsenti, p.f.d., D.U. Djurayev taqrizi asosida*

## XIX ASR IKKINCHI YARMI – XX ASR BOSHLARIDA TURKISTONDA MAKTAB TA’LIMINI TASHKIL ETISH TARIXINING MILLIY MANBALARDA YORITILISHI

Annotatsiya

Ushbu maqolada Turkistonda maktab ta’limi tashkil etilishining shart sharoitlari hamda pedagogik-tarixiy rivojlanish tizimining shakllanishini tavsiflashga harakat qilinadi. Maqolada Turkistonda maktab ta’limi tizimini isloh qilish bo‘yicha amalga oshirililgan tadqiqotlarni tizimli o’rganish va tahlil qilish asosiy maqsad qilib olinadi.

**Kalit so‘zlar:** Chor Rossiyasi, an’anaviy maktab, madrasa, o‘zbek milliy ma’rifatchiligi, gimnaziya, Jadidchilik, yangi uslub maktablari, Turkiston milliy elitasi, an’anaviy jamiyatning yangilanishi.

## ПРЕДОСТАВЛЕНИЕ ИСТОРИИ ОРГАНИЗАЦИИ ШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В ТУРКИСТАНЕ ВО ВТОРОЙ ПОЛОВИНЕ XIX - НАЧАЛЕ XX ВЕКА В НАЦИОНАЛЬНЫХ ИСТОЧНИКАХ

Аннотация

В данной статье предпринята попытка описать предпосылки организации школьного образования в Туркестане и формирования системы историко-педагогического развития. Основной целью статьи является систематическое изучение и анализ исследований, проведенных по реформированию системы школьного образования в Туркестане.

**Ключевые слова:** Царская Россия, традиционная школа, медресе, узбекское народное просвещение, гимназия, джадидизм, новометодные школы, национальная элита Туркестана, модернизация традиционного общества.

## COVERAGE OF THE HISTORY OF THE ORGANIZATION OF SCHOOL EDUCATION IN TURKISTAN IN THE SECOND HALF OF THE XIX CENTURY - THE BEGINNING OF THE XX CENTURY IN NATIONAL SOURCES

Abstract

This article explains the prerequisites for the organization of school education in Turkestan and the formation of the pedagogical-historical development system. The main goal of the article is to systematically study and analyze the researches carried out on the reform of the school education system in Turkestan.

**Key words:** Tsar Russia, traditional school, madrasa, korikhona, Uzbek national enlightenment, gymnasium, Jadidism, new-method schools, the national elite of Turkestan, modernization of the traditional society.

**Kirish**. XIX asr oxiri XX asr boshlarida Turkiston Chor Rossiyasi bosqiniga qadar boy ma’naviy merosga, shu jumladan o‘ziga xos ta’lim tizimiga ega bo‘lib, bu yerda ko‘p sonli maktablar, madrasalar, qorixonalar hamda xotin qizlar uchun otinoyi maktablari mavjud edi. Chor Rossiyasi Turkistonni bosib olgandan keyin o‘lkamiz hududida bosqinchilik, ruslashtirish siyosatini olib bordi, milliy madaniyatni, ma’naviy qadriyatlarni, an’anaviy maktab, madrasalar, qorixonalar faoliyatini chekladi. Turkistondagi chor ma’murlari maktab va madrasalarni vaqf mulklaridan mahrum qilib, ma’rifat o‘choqlari hisoblangan ta’lim maskalarini qarovsiz qoldirib vayron bo‘lishiga olib keldilar.

Chor ma’murlarining milliy maktab va madrasalarni yopib qo‘yishlari va ularni diniy o‘quv yurtlariga aylantirib, dunyoviy fanlarni o‘qitilishiga qarshilik ko‘rsatishlarining tagida Turkiston xalqini o‘z tarixi va madaniyatidan uzoqlashtirish, vatanparvarlik tuyg’ularini yo‘q qilish kabiy maqsad yotar edi. Ammo ular o‘sha davrda o‘z maqsadlariga to‘la erisha olmadilar. Mamlakatimiz bosqinchilik zulmi ostida qolgan bo‘lsa-da, millat o‘zligini yo‘qotmadi, o‘zining ma’naviy merosini avaylab asrab qoldi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2023 yil 22 dekabrda o‘tkazilgan Oliy Majlis Murojaatnomasida Yangi O‘zbekiston uchun eng katta investitsiya bo‘lgan ta’limni qo‘llab-quvvatlashga qaratib quyidagi fikrni ta’kidlab o‘tadi: “Najot – ta’limda, najot – tarbiyada, najot – bilimda. Chunki, barcha ezgu maqsadlarga bilim va tarbiya tufayli erishiladi”, ma’rifatparvar jadid bobolarimizning bu so‘zlari deputat va senatorlarimiz, siyosiy partiyalar, mahalliy kengashlar, butun davlat apparati, keng jamoatchilikning amaliy harakatiga aylanishi kerak.”[1]

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev prezidentlik faoliyatining ilk kunlaridan boshlab yurtimizda innovatsion va kreativ fikrlaydigan, zamonaviy kadrlar tayyorlash, yoshlarni vatanparvarlik ruhida, yuksak ma’naviyat egalari etib tarbiyalash, shu maqsadda maktab tizimini takomillashtirish masalalariga alohida e’tibor qaratib kelmoqda. Prezidentimiz 2019 yil 23-avgust kuni “Xalq ta’limi tizimini rivojlantirish, pedagoglarning malakasi va jamiyatdagi nufuzini oshirish, yosh avlod ma’naviyatini yuksaltirish masalalariga bag‘ishlangan yig‘ilish” da maktab ta’limi tizimini isloh qilish bo‘yicha mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, bu borada oldimizda turgan dolzarb vazifalar haqida fikr yuritar ekan, ulug‘ ma’rifatparvar bobomiz Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Dunyo imoratlari ichida eng ulug‘i maktabdir” degan fikrini alohida ta’kidlab o‘tadi.[2]

**Mavzuga oid manbalar tahlili.** XIX asrning ikkinchi yarmi XX asrning boshlarida Turkistondagi xalq ta’limi tizimida tarixiy shart sharoit quyidagicha rivojlanib bordi. Turkiston to‘liq mustamlakaga aylanib, chor ma’murlari uni iqtisodiy jihatdan to‘la quvvat bilan kemirishga jon jahti bilan kirishib ketdi. Bosqinchilikning ruscha modeli shunday tashkil qilindiki, unda mahalliy xaqni jaholatda, savodsizlikda, qashshoqlikda ushlab turish lozim edi. Bosqinchilikning bu modeli ularga o‘lkani xoxlaganicha talash, ezish, ma’nan

toptash imkoniyatini uzoq vaqt saqlab qolish imkoniyatini berardi.

Ana shu jarayonda o'zbek milliy ma'rifatchiligi ham shakllana bordi.Chorizm mahlliy milliy ma'rifatchilikning paydo bo'lishini aslo istamasdi. Chor Rossiyasi ma'murlari Turkistonda o'sib kelayotgan mahalliy ma'rifatchilikning iqtisodiy-siyosiy imkoniyatlarini cheklab uning rivojlanishi, iqtisodiy potensialinining rivojlanishiga to'siq qo'ygan edi. Ma'rifatparvarlar chorizmining bu harakatidan norozi edi. Chorizm amaldorlari har jihatdan, avvalo iqtisodiy jihatdan Turkiston ma'rifatchiligini qaraqmlikda saqlab keladi. Millat ravnaqi o'ylovchi taraqqiyparvar ziyolilar o'zbek xalqining amaldorlari, hunarmandlari, dehqonlari, savdogarlari dindorlari – barcha tabaqalari oradida mavjud edi. Ular xaqning milliy ongini oshirish va o'zligini anglatishning asosiy vazifasini ma'rifat va savodxonlikni rivojlantirishni boshladilar.

**Tadqiqot metodologiyasi.** XIX asr ikkinchi yarmi XX asr boshlarida Chor Rossiyasining Turkistonda maorif sohasida olib borgan siyosati tarixiga oid adabiyotlarni, ularning asosiy pedagigik qarashlariga va yozilgan davriga qarab uch guruhga bo'lib o'rganish mumkin:

Chor Rossiyasi bosqinchiligi davrida yozilgan adabiyotlar.

Sovet Ittifoqi davrida yozilgan tarixiy adabiyotlar.

Mustaqillik davrida yaratilgan asarlar.

Mamlakatimiz pedagogika tarixchiligi uchun muhim va hozirgi davrda dolzarb ahamiyat kasb etayotgan bu ilmiy qarashlar, xalqning savod-maorif masalalari, ruhiyati va ma'naviyatini belgilab bergan, asriy qadriyatlarimizni avaylab saqlashga asos bo'lib xizmat qilgan.

XIX asr ikkinchi yarmi XX asr boshlarida xalq ta'limi, ma'rifatchilik maskanlari o'z ijtimoiy burchlarini ado etganlar, buning natijasida xalqda ziyoli savodli kishilar, din rahnamolari, jamoat arboblari, mutaxassislar shu an'anaviy maskanlarda yetishib chiqib faoliyat ko'rsatganlar. Bu qadamjolar milliy o'zligimizni avloddan avlogda yetkazish vositalari bo'lganlar, yetishib chiqqan bilimdon shaxslar esa jamiyatni yetuklikka, taraqqiyotga boshlagan. Buning natijasida tub yerli aholini chet ellartdagi hayot bilan tanishtirish , foydali bilimlarni olib kelish, umuminsoniy qadriyatlarni targ'ib qilish kabi ezgu ishlar ham shu asnoda ro'yobga chiqqan.

**Tahlil va natijalar.** XIX asrning ikkinchi yarmida Turkistonda ro'y bergan ijtimoiy tarixiy o'zgarishlar ma'rifatparvarlik g'oyasining tarqalishiga zamin yaratdi. Shu davrda Muqumiy, Furqat, Axmad Donish kabilarning ma'rifat g'oyasini targ'ib etuvchi asarlari maydonga keldi. Ularda ilm fanning zamonaviy taqaqqiyoti uchun asos bo'lib turgan Rus madaniyatidan o'rganishga da'vat ustuvorlik qildi. Bu fikrimizni biz Furqatning "Gimnaziya", "Bir xo'qandlik tolibul ilmning xati", "Xo'qanlik shoir Zokirjon Furqatning Istambuldan yozg'on maktubi" kabi asarlarida ko'rishimiz mumkin.

An'anaviy qadimiy uslubdagi maktablar Turkiston o'lkasini Turkiston o'lkasining tub aholisi uchun xat savod chiqarish maskanlari bo'lib[3], ular Turkistonda arab xalifaligi davrida Islom dining kirib kelishi bilan bog'liq ravishda paydo bo'lgan. Islom dini esa bu hududda VIII-IX asrlarda kirib kelgan.[4]

Musulmon maktablarida maktablarnінig paydo bo'lishi Islom dining asosi bo'lgan muqaddas kitob - "Qur'oni Karim"ni o'rganish uchun savodli bo'lish zaruriyatining yuzaga kelishi bilan bog'liq. Osha davr masjid imomlariga o'z qavmi bolalarini din asoslariga o'rgatish va ularning savodini chiqarish majburiyati yuklangan. Qur'on matnini qat'iy rasmiylashtirib bo'lingach esa musulmon ulamolari uni keng xalq ommasiga tarqatuvchi mirzalar tayyorlash maqsadida maktablar tashkil eta boshladilar. Tarixiy manbalarda Turkistondagi birinchi masjid va ibtidoiy maktab hijriy 94-yili (melodiy 713 y.) Qutayba ibn Muslim Bohiliy tomonidan Buxoro arkida, Zardushtiylar ehromi o'rnida bunyod etilgan, deyiladi

Ayrim manbalarda "maktab" termini " mirzalar maktabi" ma'nosini bildirgan deyilsa, boshqalarida " maktab" termini forscha " dabiristan" so'zining tarjimasi bo'lib, bu fors so'zi XIII asrgacha qo'llaninilib keliingan deb ta'kildlaydi B. B. Bartold. [5] "Dabir" forscha –"mansabdor" degan ma'noni anglatib, dabirstanlar o'sha paytda mansabdorlarni tayyorlovchi boshlang'ich maktablar bo'lgan. 1896 yilda Sankt-Peterburgda nashrdan chiqqan kata ensiklopediada esa maktabga quyidagicha ta'rif berilgan: "Maktab musulmonlarning masjidlar qoshidagi xat savod chiqarish va diniy udumlarni o'zlashtirish dargohi". [6]

K. E. Bendrikovning Turkiston xalq ta'limi tarixiga oid asari mustamlaka Turkistondagi milliy maorif tarixini nisbatan to'la yoritib berilganligi bilan ajralib turadi. Unda Turkiston general Gubernatori Kaufman davrida musulmon maktablari inkor etilganligi, chorizm tomonidan e'tibor berilmaganligi, 80-yillardan ularni nazorat qilish kuchayganligi, madrasalar va eski maktabdagi haqiqiy ahvol ko'rsatilgan, jadid maktablari vujudga kelish jarayonlari yoritib berilgan. Biroq muallif marksizmnining sinfiylik prinsipidan, bolsheviklarning mafkurasidan kelib chiqqan holda milliy maktablar, jadid maktablari boylar, ruhoniylar, xonlar tomonidan tahkil qilingan va ularning manfaati uchun xizmat qilgan, deb davo qiladi va jadid maktablarini panturkizm, panislomizm g'yalarini tarqatgan, deb qoralaydi. Turkiston xalqlarining milliy madaniyati, maorifini cheklashsiyosatini amalga oshirgan V.P. Nalivkin, N. P. Ostroumov, S. M. Gramneskiylarning faoliyatini esa O'rta Osiyo rus ma'muriyatidagi taraqqiyparvar oqimnining faol arboblari sifatida bir tomonlama ijobiy baholaydi.[7]

Turkistondagi an'anaviy maktablarda o'g'il va qiz bolalar alohida alohida o'qitilgan. Yuqorida aytib o'tilgan maktablar o'g'li bolalar maktablari bo'lib , qizlar maktablari odatda muallima, yani otin oyilarning oylarida joylashgan. Ba'zan maktab yoshidagi qizlari bo'lgan badavlat oilalar ichkarigi hovlilardan maktab uchun joy ajratib bergan. Qo'qon xonligida yashab ijod etgan shoiralardan biri Dilshod (1800-1905) ayrim manbalarda Barno taxallusi bilan tanilgan bo'lib, uning "Muxojirlar tarixi" asarida qaynonasi bilan o'z uyida maktabdorlik qilganini e'tirof tishimiz mumkin.[8]

Turkistondagi maorif - ma'rifatchilik o'choqlariga oid qimmatli ma'lumotlar osha davr mahalliy ma'rifatparvar ziyolilar asarlarida ham uchraydi. Jumladan, Maxmudxo'ja Behbudiy, Sadriddin Ayniy, Abdulla Avloniy, Munavvar qori Abdurashidxonov, Salohiddin Muftizoda, Abdurauf Fitrat, Fayzulla Xo'jayev, Shukrullo, M. Xoliqiy, Nishotiy, Siddiqiy, Miskin, A, Tabibiy kabi ma'rifatparvar ziyolilar o'z asarlarida savod va ma'orif masalalariga to'xtalib o'tadilar. Ularning asarlari uchun an'anaviy o'quv maskanlarini isloh qilish zaruriyati, shu zaruriyatni vatandoshlariga uqtirishga intilish, chor ma'murlarning jadid maktablarining faoliyat ko'rsatishiga qarshilik qilishiga nisbatan norozilik kayfiyatlari xos.

Sovet davrida A. Abdusamedov, T. N. Qori Niyozov, I. Mo'minov, M. G. Vahobov, K. E. Bendrikov va boshqalarning O'zbekiston madaniyatiga, tarixiga oid yirik asarlarining chop etilishi Turkiston pedagogika tarixshunosligida muhim voqea bo'ldi. Bu asarlar yozilgan va nashr qilingan yillarda ijtimoiy fanlarda jadidchilik harakati tarixini yozish, bu harakat yetakchilari Maxmudxo'ja Behbudiy, Munavvar qori Abdurashidxonov nomlarini tilga olish, musulmon dindorlari faoliyati bilan bog'liq bo'lgan madrasalar, maktablar to'g'risidagi ma'lumot berish taqiqlangan.[9]

Mustaqillik yillarida yurtimizning yetakchi pedagog olimlari: R.Sh. Axliddinov, R.X. Djuraev, J.G’. Yo’ldoshev, Sh.E. Kurbanov, E.A. Seytxalilov, S.T.Turg’unov, D.U.Djurayevlar xalq ta’limining tashkil etilishi va boshqarilishi jarayoni va mexanizmlarini, Sh.A.Abdullaeva, M. Inoyatova, R.G’. Safarova, N.M.Egamberdievalar pedagogik ta’limotlar tarixini, ma’rifatparvarlarning pedagogik me’rosini tadqiq etgan.

Ta’kidlash joizki, pedagog olimlarimiz tomonidan pedagogika oliy o’quv yurtlarida bo’lajak o’qituvchilarga mo’ljallab yaratilgan darslik va o’quv qo’llanmalarda XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida pedagogik fikr taraqqiyotiga oid ayrim jihatlarni yoritishga alohida e’tibor qaratilgan. Xususan, olimlar K. Hoshimov hamda S. Ochilov tomonidan yaratilgan “O’zbek pedagogikasi antologiyasi” nomli asarda Sharqda madaniy taraqqiyot, xususan, o’zbek milliy ta’lim-tarbiyasi an’analari, ya’ni o’rta (VI-VIII) asrlar va XII-XX asrlarda o’zbek ta’lim-tarbiya maktabi an’analarini xronologik tartibda yoritishga e’tibor berilgan.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida O’rta Osiyo ta’lim tizimi jiddiy tranformatsiyaga uchradi, uning asosiy komponenti bo’lgan o’quv-ta’lim jarayonlarining institutsional tashkillashtirilishi, ta’limning shakl va usullarida plyuralizmning shakllanishi, gender yondashuvidagi o’zgarishlar shular jumlasidandir. Ta’kidlangan o’zgarishlar bir tomondan, burilish davrida jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy diskurslarning oqibati va mahsuli hisoblanib, taraqqiyotning asosiy vektorini tanlash zaruriyati bilan to’qnash keladi. Boshqa tomondan, ta’lim tizimi jamiyatning intellektual muhitining shakllanishiga ta’sir ko’rsatdi va ma’lum ma’noda, o’lkadagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning kelgusi yo’lini belgilab berdi.

XIX asrning oxirgi o‘n yilligi va XX asrning dastlabki yillarida Turkistonda rus ta'lim tizimi tarmoqlari nisbatan rivojlandi. Bu o‘zgarishlar, albatta, bir necha omillar bilan bog‘liq holda sodir bo‘ldi. Birinchidan, o‘lkada chor ma'murchiligining kuchayishi, imperiya hokimiyatining keng tarmoq otib mustahkamlanib borishi, mahalliy xalq vakillari orasida rus tilini bilishga intilish bo‘ldi. Ikkinchidan, rus ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan tadbirlarning O‘quv ishlari bosh boshqarmasi ma'murlari, hususan Sirdaryo viloyati gubernatori, Sirdaryo o‘quv ishlari bo‘limi boshlig‘i Gramenitskiy S.M. tomonidan loyihaning ilgari surilishi va o‘quv ishlari boshqarmasi boshlig‘i Kerenskiy F.M. ning qo‘llab-quvvatlashi natijasida amalga oshirilishi sabab bo‘ldi. Uchinchidan, o‘lkada barpo etilgan ishlab chiqarish tarmoqlari, korxona va tashkilotlarda kichik mansablarda ishlovchi ko‘plab malakali kadrlarga bo‘lgan ehtiyojning oshib borishi Turkistonda nafaqat xalq bilim yurtlari, balki ko‘plab kasb-hunarga yo‘naltirilgan o‘quv yurtlarining tashkil etilishiga olib keldi.[11]

**Xulosa**. Yuqoridagilarga xulosa qilib aytish mumkinki, XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida boshlang’ich an’anaviy ta’limning ahvoli zamon talablaridan ancha orqada qolgan bo’lib, uning tashkiliy va boshqaruv holati qoniqarsiz darajada edi. Xalq ta’limining tashkil etilishiga yetarlicha e’tibor berilmaganligi, jarayon tizimli tashkil etilmaganligi, an’anaviy maktab ta’limida islohotlar qilinmaganligi, ayrim taraqqiyparvar kishilar tomonidan amalga oshirilgan ishlar esa yalpi, tizimli xarakterga ega bo’lmay, favqulodda holat hisoblanganligi, ilg’or davlatlarning boshlang’ich ta’lim tajribasi o’rganilmaganligi, diniy va dunyoviy bilimlarni o’rgatishda me’yor va mezonga amal qilinmaganligi sabab bo’ldi.

## ADABIYOTLAR


1. Xalq so‘zi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2022 yil 22 dekabr soni.
2. Xalq so‘zi. Sh. Mirziyoyev. Maktab ta’limini rivojlantirish umumxalq harakatiga aylanishi zarur. 2019 yil 24 avgust soni.
3. Наливкин. В. Что даёт Средне Азиатская мусульманская школа в образовательном и воспитательном отношениях? // Турк.Лит. Сборник в пользу прокаженных. С. Петербург.1900. С.323.
4. Сагинтаев И. С. История развития школ и народного образования на юге и юго-востоке Казахстана (1860-1930 гг.) Автореф.дисс.канд.педагог. наук. – Ташкент,1978. С-10
5. Бартольд В.В. Сочинения. Т.YI. М.:Наука, 1966. С.111.
6. Salijanova G. F. Turkistonda o‘qitish-ma'rifatchilik o‘choqlari, ularning ijtimoiy ahamiyati. (XIX asr oxiri – XX asr boshlari): tarix fanlari nomzodi. dis. – Toshkent, 1998. B.31.
7. Alimova N.I.Chor Rossiyasining Turkistonda milliy madaniyat sohasida olib borgan siyosati. (1867-1917 yillar): tarix fanlari nomzodi.dis. Toshkent.2004. B -12.
8. Dilshod. Tanlangan asarlar. 13-sahifa.
9. Qori-Niyozov T.N. Sovet O’zbekistoni madaniyati tarixidan ocherklar. –Toshkent: O’zdavnashr,1956; Муминов И. Из истории общественно –философской мысли в Узбекистане конца XIX начало XX вв. –Ташкент: Узгосиздат, 1957; Вахобов.М.Г. Ўзбек социалистик миллати.–Тошкент,Ўздавнашр, 1951.
10. O‘zbek pedagogikasi antologiyasi. Tuzuvchi mualliflar: L.Hoshimov, S.Ochilov. – T.: O‘qituvchi, 1995. – 464 b.
11. Djurayev D. Turkiston xalq ta'limining tashkil etilishi va boshqarilishi nazariy asoslari. (XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlari): pedagogika fanlari doktori dis. (DSc).Tashkent. 2019. – B.145

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/8]**
**ISSN 2181-7324**

**TARIX**
http://journals.nuu.uz
Social sciences

**UDK: 94:62.347(575.1)(09)**

***Gulzora SAIDBOBOYEVA***,
*O‘zbekiston Milliy universiteti dotsenti, PhD*
*E-mail: gulzora@rambler.ru*

*ChDPU dotsenti, t.f.f.d. (PhD) O.H. Jaynarov taqrizi asosida*

## COVERAGE OF THE PROCESS OF ELECTRIFICATION IN UZBEKISTAN IN THE NEWSPAPER “PRAVDA VOSTOKA” (THE END OF 20TH YEARS OF THE XX CENTURY)

Annotation

Despite the fact that electrification activities in Uzbekistan were covered in a number of historical and economic literature, but the materials of the periodical press on this topic are practically not studied. A number of articles and news on the electrification of the republic have been published in the press. In the article, the researcher analyzed in detail the electrification process carried out in Uzbekistan at the end of 20th years of the XXth century, which was covered in the newspaper “Pravda Vostoka”.

**Key words:** “Pravda Vostoka”, Uzbekistan, Ferghana, Bozsu, electrification, hydroelectric power station, industrialization.

## ОСВЕЩЕНИЕ ПРОЦЕССА ЭЛЕКТРИФИКАЦИИ В УЗБЕКИСТАНЕ В ГАЗЕТЕ “ПРАВДА ВОСТОКА” (КОНЕЦ 20-Е ГОДЫ ХХ ВЕКА)

Аннотация

Несмотря на то, что мероприятия по электрификации в Узбекистане освещался в ряде историко-экономической литературы, но материалы периодической печати по этой теме практически не изучены. В печати опубликован ряд статей и новостей по электрификации республики. В статье исследователь подробно проанализировал процесса электрификации, проведенного в Узбекистане в конце 20-е годы ХХ века освещавций в газете «Правда Востока».

**Ключевые слова:** “Правда Востока”, Узбекистан, Фергана, Бозсу, электрификация, гидроэлектростанция, промышленность.

## O‘ZBEKISTONDA ELEKTRLASHTIRISH JARAYONINING “ПРАВДА ВОСТОКА” GAZETASIDA YORITILISHI (XX ASRNING 20-YILLARI OXIRI)

Annotatsiya

O‘zbekistonda elektrlashtirish chora-tadbirlar qator tarixiy, iqtisodiy adabiyotlarda yoritilgan bo‘lishiga qaramay, bu mavzu yuzasidan davriy matbuot materiallari deyarli o‘rganilmagan. Matbuotda respublikani elektrlashtirishga doir qator maqola va xabarlar chop etilgan. Maqolada tadqiqotchi tomonidan XX asrning 20-yillari so‘nggida O‘zbekistonda amalga oshirilgan elektrlashtirish jarayonining “Правда Востока” gazetasida yortitilishi masalasi atroflicha tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar:** “Правда Востока”, O‘zbekiston, Farg‘ona, Bo‘zsuv, elektrlshtirish, gidroelektr stansiya, sanoat.

**Kirish**. Davriy matbuot jamiyatda kechayotgan yangiliklar, ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlarni tez va ommabop tarzda yetkazishi tufayli auditoriyasi ancha keng, chop etilgan maqola va xabarlari davr ruhini singdirgani bilan tarixiy jihatdan o‘ziga xos manba hisoblanadi. O‘zbek matbuoti ham uzoq tarixga ega. Garchand, sovet davrida chop etilgan gazeta va jurnallarda kommunistik mafkura milliy respublikalar davriy matbuotida ham ustunlikka ega bo‘lsa-da, muhim ijtimoiy-siyosiy, madaniy va iqtisdoiy o‘zgarishlarni muntazam yoritib borgani bilan ahamiyatlidir.

Ana shunday davriy matbuot nashriga rus tilida chiqadigan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy kundalik gazeta “Правда Востока” (“Sharq haqiqati”)ni ko‘rsatish mumkin. Dastlab “Наша газета” (“Bizning gazetamiz”, 1917 yil 15 apreldan 1919 yil 12 aprelgacha), “Известия ЦИК Туркестанской Республики и крайкома ТК. ЦК Компартий Туркестанской АССР” (“Turkiston Respublikasi MIQ va Turkiston Kompartiyasi o‘lka komiteti. Turkiston ASSR Kompartiyasi MQ axboroti”. 1919 yil 12 apreldan 1922 yil 20 iyulgacha), “Туркестанская правда” (“Turkiston haqiqati”, 1922 yil 20 iyundan 1924 yil 25 noyabrgacha) nomlarida chiqqan. 1924 yil 25 noyabrdan hozirgi “Правда Востока” nomida. Sovet davrida O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komiteti, O‘zbekiston SSR Oliy Soveti va Ministrlar Sovetining organi bo‘lgan. 1956 yilda gazeta Ittifoq Oliy Soveti Prezidiumining qarori bilan Mehnat Qizil bayroq ordeni bilan taqdirlangan. Hozirda gazetaning muassisi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi hisoblanadi.

“Правда Востока” gazetasi sahifalarida qishloq xo‘jaligi, sanoat, fan na madaniyat taraqqiyoti, adabiyot va san’at, o‘zbek xalqi tarixiga oid ilmiy, muammoli, tahliliy maqolalar keng yoritiladi. Shuningdek, mustaqillik yillarida tarixning o‘qilmagan sahifalari, O‘zbekistonning yangi tarixiga ko‘proq e’tibor qaratildi[1].

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Masalani o‘rganish uchun gazetaning 1926-1927 yillarda O‘zbekiston hududida elektrlashtirish borasida amalga oshirilgan ishlar haqidagi maqolalari tanlab olindi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada qiyosiy tahlil, tizimlashtirish, analiz va sintez hamda muammoviy-xronologik kabi ilmiy tadqiqot usullaridan keng foydalanilgan.

**Tahlil va natijalar.** “Правда Востока” gazetasining 1926 yil fevral sonlaridan birida Toshkent yaqinidagi Bo‘zsuv gidroelektr stansiyasi qurilishi haqida maqola e’lon qilingan. SSSRdagi eng katta to‘g‘on 94 sutkada qad rostlab, ishlar yakuniga yetgani hamda 1500 ishchi o‘rnigaqurilish maydonida 250 tasi qolgani ma’lum qilingan. Uncha katta bo‘lmagan ishlar qolgan bo‘lib, lekin ular o‘ta aniqlik va sabr-matonatni talab qiladi. Turbinalar o‘rnatilib, temir-beton, gidrotexnik qurilma tugallangan, chiqadigan o‘zan ham bitgan.

Joyida ko‘rib amin bo‘lish mumkin, ammo Moskvaning ishonishi uchun qurilish to‘g‘risida domiy ravishda ma’lumot, hisobot, fotosuratlar jo‘natilib turilgan.

Bu vaqtga kelib faqatgina dastlabki qadam – O‘rta Osiyo-non (Средазхлеб) bilan 1-tegirmonxonasini qayta elektr jihozlash uchun shartnoma tuzilgan. Yana O‘rta Osiyo (Средазжел) va Toshkent temir yo‘llari (Ташжелдорог) bilan ustaxonalarini qayta jihozlash bo‘yicha choralar ko‘rilib, smetaga qo‘shilgan.

Bo‘zsuvdagi qurilishga ayniqsa, mahalliy aholi alohida qiziqish bilan qaragan. Yoshu-qari kirishdagi qo‘riqlash maskanidan ham o‘tib, stansiyaga yaqinlashib, bir yerda soatlab tikilib turib, goho boshqa yerga yurib, o‘tirgancha muhokama qilishgan. “O‘zbek suvga o‘rgangan, uni yaxshi ko‘radi. Suv uning boquvchisi. Cheksiz hayrat va zavq bilan suvni odamlar qanday boshqarayotganini kuzatishadi. Yaqinda o‘zlari ham ana shu suv beradigan kuchdan foydalana boshlashadi”, deb yozadi gazeta[2].

Farg‘ona viloyati iqtisodiyoti (bunda Samarqand viloyati, Xo‘jand uyezdi va janubiy Qirg‘izistonning bir qismini qo‘shganda) yildan-yilga o‘sib borgan. O‘sish sur’atlari shunchalik tezki, qishloq xo‘jaligi barcha tarmoqlarida elektrlashtirishni qo‘llash orqali xo‘jalikning qurama sanoat-qishloq xo‘jaligiga qayta tashkil etishni kun tartibiga qo‘ygan.

Gazetadagi bir maqolada O‘zbekiston hukumati tomonidan respublikani elektrlashtirish yuzasidan qo‘yilgan vazifalar hamda shu maqsadda SSSR hukumati tomonidan ajratilgan mablag‘lar birinchi galda Farg‘ona viloyatini qamrab olishi kerakligi, chunki Isfayramsoy gidrostansiyasining tayyor loyihasi mavjudligi, Farg‘onadagi toshko‘mir ham elektrlashtirish uchun 15-20 yil xizmat qilishi mumkinligi qayd etilgan[3].

Farg‘ona (Sulukota, Sho‘rob, Qizilqiya), Qirg‘izistonning Norin ko‘miri, ehtiyoj tug‘ilganda Santo, Chimyon va Moylisoydagi neft konlarini ham ishlatish mumkin.

Ko‘mir yordamida joyida hosil qilingan elektr energiya taxminiy hisob-kitoblarga ko‘ra 1 kVti 6 kopeykadan oshmaydi. Bo‘zsuv gidrostansiyasida esa dastlabki davrda 9-10 kopeykaga aylanadi. Ittifoq va respublika davlat byujdetlaridagi umumiy moliyaviy qiyinchiliklar tufayli Farg‘onani elektrlashtirish bilan hissadorlik (aksionerlik) jamiyati shug‘ullanishi mumkin. Paychilar sifatida jamiyat asosiy kapitalining 42 % ini Farg‘ona viloyati barcha aholisiga mayda aksiyalar chiqazish orqali jalb qilishi zarur. Asosiy hissadorlari VSNX, o‘zlarining toshko‘mir korxonalari bilan O‘zbekiston SSR, Qirg‘iziston hamda Xlopkom, Vodxoz, Yer ishlari xalq komissarligi, Sentrsoyuz va Farg‘ona viloyati shaharlari bo‘ladi[4].

“Правда Востока”ning aprel sonlaridan birida yana Bo‘zsuv gidroelektr stansiyasi qurilishi, ishchilari haqida maqola bosilgan.

Sereda, Voronin, Survillo – Bo‘zsuvning barcha ishchilari o‘zlarining niyatiga yetishdi: bus-butun viloyatning elektr energiyasi uchun mustahkam poydevor qo‘yildi, birinchi, O‘rta Osiyoning katta toshi yotqizildi[5].

Asosiy qiyinchilik stansiyani Toshkent uchun mutlaq xavfsiz bunyod etishdan iborat bo‘lgan. Bu esa to‘g‘onga bosh e’tiborni qaratishga majbur qilgan. U (to‘g‘on – G.S.) o‘lchami va sifati jihatidan 94 sutkada – rekord darajada tezlikda qurilganiga qaramay, juda ishonchli. Uni Ittifoqda ilk bor og‘ir katoklar bilan zichlab qo‘llanilgan usul bilan qurishgan. Stansiyaning temir-beton qurilmasi o‘zining kubaturasi bo‘yicha esa O‘rta Osiyoda eng yirik sanalgan.

Barcha qurilmalar 4 ta agregatga o‘rnatilgan bo‘lib, har bir agregat Myunxen (Germaniya)da tayyorlangan Frensis∗ tizimidagi turbinalar hamda Xarkov “Elektrosila” davlat elektrotexnik trestidan keltirigan uch fazali tokli generatordan iborat bo‘lgan. Har qaysi turbina 1650 ot kuchiga, generator esa 1250 kilo volt amperga (1000 kVt – G.S.) mo‘ljallangan[6].

Generatorlar 6600 volt kuchlanishli tok berib, shaharga ikkita yerosti kabeli orqali Shirokaya ko‘chasidagi nimstansiyaga uzatilgan[7].

Sovetlar dastlab sotsializmga erishishning muhim omili deb elektrlashtirishni hisoblagan bo‘lsalar, keyinroq esa kommunizmga ham elektrlashtirish orqali erishish mumkinligiga qattiq ishonib, bu borada mafkurviy targ‘ibotni avj oldirgan.

“Правда Востока” gazetasining 1926 yil aprel oyidagi sonlaridan birida chop etilgan “Sotsializm – sovet hokimiyati plyus elektrlashtirish” (“Социализм – это советский власть плюс электрификации”) nomli bosh maqolada O‘rta Osiyoning elektrlashtirilishi paxtachilik va sug‘orish tizimlarining rivoji masalalari bilan butunlay bog‘liqligi, “sun’iy sug‘orish shart-sharoitlari, suvni ko‘tarish uchun to‘g‘on va dambalar qurilishi suv energiyasining ko‘plab zaxiralarini yaratishi” qayd etilgan.

Texnik reglamentlarning puxta ishlab chiqilmagani, ba’zan ularga rioya etmaslik oqibatida energetik qurilishlar ishchi va muhandislar hayotiga zomin bo‘lgan. Xususan, 1926 yilning 1 mayida Bo‘zsuv gidrostansiyasining ochilishiga bag‘ishlangan mitingda Tashgestoroy boshlig‘i Islomov so‘z olib, o‘tgan (1925) yilning aprel oyida tunnel qulaashi oqibatida 4 ta ishchi va 2 ta muhandis gidroenergetikning halok bo‘lganini xotirlab, “bu kabi muqarrar yo‘qotishlar bizning xo‘jalik qurilishimizning faqatgina boshlanishishidir”, deb ta’kidlagan[8]. So‘ngra hamma boshyalang holda motam marshini tinglagan.

Dastlab so‘z olgan VKPb O‘rta Osiyo Markaziy kengashi raisi I.A. Zelenskiy o‘z nutqida “Bugun biz gidrostansiyaning ochilishi bilan xo‘jalik frontidagi ishchilar sinfini bayram qilmoqdamiz. Bu toshkentliklarning g‘alabasidir”, deb ta’kidlagan.

Shuningdek, marosimda respublika rahbarlaridan F. Xo‘jayev, Y. Oxunboboyev ham ishtirok etgan.

Toshkent viloyati ijroiya qo‘mitasining 29 sentabrdagi yig‘ilishida Tashgestram direktori Voronin 1926–1927 yillarda Toshkent shahrini elektrlashtirish bo‘yicha ma’ruza qildi. Ma’ruzadan ayon bo‘ladiki, Tashgestram rejasi O‘rta Osiyo EkoSO (SredazEkoSO)si singari O‘rta Osiyoning xo‘jalik rejasiga qo‘shilgan, shu tariqa mahalliy idoralardan o‘tgach, kelgusida Moskvada Ittifoq darajasidagi idoralarda qo‘rib chiqilishi kerak.

1926–1927 yillarda Toshkent shahrini elektrlashtirish rejasi qator ishlarni amalga oshirishni ko‘zda tutgan. Jumladan, Bo‘zsuv gidrostansiyasiga 1000 kVt li turbogenerator o‘rnatish; ikkita (umumiy uzunligi 60 km bo‘lgan Qovunchi–Toshkent va Toshkent–Oqqovoq) elektr uzatish liniyalarini bunyod etish; eski shahar qismida yangi tramvay liniyasini o‘tkazish; sanoat korxonalarini energiya bilan ta’minlash uchun yuqori kuchlanishli tarmoqlarni o‘tkazish (20 km); quyi kuchlanishli tarmoqlarni kengaytirish va kelgusida shahar ko‘chalarini yoritish tizimlarini kengaytirish[9].

Toshkent shahrini 1926–1927 yillardagi elektrlashtirish ishlari bo‘yicha umumiy xarajatlar 1700 ming rublni tashkil etib, bundan tashqari Tashgestram korxonalari ishchi-xodimlari uchun ishchilar shaharchasini qurishga qariyb 150 ming rubl ajratilgan.

Toshkent viloyati ijroiya qo‘mitasi prezidiumi Toshkent shahrini elektlashtirishga oid zarur mablag‘larni olish bo‘yicha chora-tadbirlar muhimligini, shu maqsadda Tashgestram boshqaruv a’zosi Umarxonov maxsus topshirq bilan Elektrobankdan uzoq muddatli maqsadli ssuda olish uchun shartnomalar imzolashga Moskvaga jo‘natilishini qayd etgan[10].

1926–1927 budjet yili uchun SSSR Davlat reja qo‘mitasi (Госплан)ning O‘zbekiston SSRni elektrlashtirish uchun mo‘ljallangan parametrlariga ko‘ra, Bo‘zsuv-2 (Qodiriya) gidroelektr stansiyasida izlanish olib borilib, texnik loyihasini tuzish va qoralama chizmalari tayyorlanadi. Dastlabki tayyorlov va tuproq ishlari bajarilib, suvosti qismi betonlashtiriladi. Shunindek, kerakli jihozlar uchun buyurtma beriladi. Yuqoridagi barcha ishlar uchun 1,5 mln rubl yo‘naltiriladi.

Darg‘omda ham xuddi shu kabi ishlar, ularga qo‘shimcha ravishda yana shaharning yuqori kuchlanishli liniyalari va transformator kioskalari jihozlanishiga jami 800 ming rubl ajratilgan.

Farg‘ona elektr stansiyasi (ФерЦЭС)ning qurilishi budjet yilida ham davom ettirilib, 400 ming rubllik ishlarni ado etish rejalashtirilgan[11].

Yil davomida Karmana, Pattahisor, Yangi Urganchda elektr stansiyalari bunyod etish uchun esa 270 ming rubl ajratilgan.

1927–1928 yilgi yangi qurilishlar hisobiga O‘zbekiston qo‘shimcha ravishda 9,030 kVt elektr energiyaga ega bo‘lgan.

9 ta shahar (Samarqand, Qo‘qon, Namangan, Andijon, Xo‘jand, Konibodom, Kattaqo‘rg‘on, SHerobod, Xiva)da ishlab turgan elektr stansiyalar ajratilgan 635 ming rubl budjet summasi hisobiga kengaytirilib, umumiy quvvati 765 kVt ga oshiriladi.

675 ming rubl (uning 100 ming rubli Isfayramsoydagi) izlanish-loyihalash ishlariga sarflanishi ko‘zda tutilgan.

Shu tariqa, 1927–1928 yilgi bdjetda respublikani elektrlashtirshga jami 4 mln rubldan ziyod mablag‘ ajratilgan[12].

**Xulosa va takliflar.** Sovetlarning sanoat va industriya, xususan elektrlashtirish sohasidagi chora-tadbirlari O‘zbekistonning barcha viloyatlarini qamrab olishi bilan birga ushbu ishlar davriy matbuot sahifalarida ham muntazam ravishda yoritib borilgan. Birgina “Правда Востока” respublikaning markaziy rasmiy nashri sifatida bu borada ancha oldinda bo‘lgan.

Endilikda respublikamizning markaziy gazeta va jurnallarida chop etilgan shu kabi maqola va xabarlarning tarmoqlar bo‘yicha bibliografik ro‘yxatini tuzish hamda ularni elektron shaklga ko‘chirib, internetdagi ilmiy-ma’rifiy kontentlarga joylashtirish lozim. Shu tariqa ularning ommalashuviga, o‘quvchilar tomonidan ko‘proq mutolla etilishiga erishish mumkin.

## ADABIYOTLAR


1. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 7-жилд. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2004. – Б. 163.
2. Боз-Сустройке // Газета «Правда Востока». 8 февраля 1926 г.
3. К электрификации Средней Азии (в порядке предложения практических мероприятий) // Газета «Правда Востока». 18 марта 1926 г.
4. O‘sha joyda.
5. Рабочие письма. Статья Фёдора Божко «Электрострой». Информация о ходе строительства Боз-Суйской ГЭС // Газета «Правда Востока». 29 апреля 1926 г.
6. Фрэнсис тизими – радиал-бўйлама турбинани ишлаб чиққан, сув оқимини ҳисоблаш учун тенглама муаллифи (Фрэнсис формулалари), машҳур гидротехник Джеймс Фрэнсис (1815–1882) шарафига қўйилган.
7. Значение гидростанции. Беседа с инженером Кеппеном // Газета «Правда Востока». 1 мая 1926 г.
8. O‘sha joyda.
9. Информация с митинга посвященного открытию пуску Бозсуйской гидростанции 1 мая, 1926 г. // Газета «Правда Востока». 5 мая 1926 г.
10. Электрификация Ташкента // Газета «Правда Востока». 4 октября 1926 г.
11. O‘sha joyda.
12. 4 ½ милл. на электростроительство Узбекистана в 1927–1928 гг. // Газета «Правда Востока». 5 августа 1927 г.
13. O‘sha joyda.

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/8]**
**ISSN 2181-7324**

**TARIX**
http://journals.nuu.uz
Social sciences

**UDK: 94.99**

***Bog‘dagul SAYFIYEVA,***
*Navoiy davlat pedagogika instituti talabasi*

*NavDPI dotsenti N.J.Yarashova taqrizi asosida*

## ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR HAYOTI VA DAVLATCHILIK FAOLIYATINING TADQIQI

Annotatsiya
Sharq dunyo tarixida ilk Uyg‘onish davrida bugungi O‘zbekiston zaminidan yetishib chiqqan buyuk mutafakkir ajdodlarimizning jahon ilm-fani va madaniyati, muqaddas islom dini rivojiga qo‘shgan bebaho hissasi dunyo ilmiy jamoatchiligi tomonidan tan olingan. O‘rta asrlarning ilk davrida ulug‘ ajdodlarimiz tomonidan tabiiy fanlar – matematika, astronomiya, fizika, kimyo, geodeziya, farmakologiya, tibbiyot bilan birga, tarix, geografiya, falsafa, madaniyat va san’at, arxitektura sohalarida yaratilgan buyuk ilmiy g‘oya va kashfiyotlar jahon ilm-fani va sivilizatsiyasi rivojida keskin burilish yasadi. Hozirda butun ma’rifatli dunyoni hayratga solib kelayotgan bu ilmiy meros butun insoniyatning ma’naviy mulkiga aylangani shubhasizdir. Butun Osiyo tamadduniga ulkan ta’sir ko‘rsatgan buyuk shaxslardan biri Zahiriddin Muhammad Boburdir.
**Kalit so‘zlar:** Uyg‘onish davri, matematika, astronomiya, fizika, kimyo, geodeziya, farmakologiya, tibbiyot.

## ИЗУЧЕНИЕ ЖИЗНИ И ГОСУДАРСТВЕННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ЗАХИРУДДИНА МУХАММАДА БАБУРА

Аннотация
Неоценимый вклад в развитие мировой науки и культуры, священной религии ислама наших великих предков-мыслителей, выросших на территории сегодняшнего Узбекистана в эпоху Раннего Возрождения в мировой истории Востока, признан мировой научной общественностью. Великие научные идеи и открытия, сделанные нашими великими предками вместе с естественными науками – математикой, астрономией, физикой, химией, геодезией, фармакологией, медициной, историей, географией, философией, культурой и искусством, архитектурой в раннее средневековье, сделали крутой поворот в развитии мировой науки и цивилизации. Неоспоримо, что это научное наследие, которое сейчас поражает весь просвещенный мир, стало духовным достоянием всего человечества. Захириддин Мухаммад Бабур-одна из великих фигур, оказавших огромное влияние на тамаддуна всей Азии.
**Ключевые слова:** Ренессанс, математика, астрономия, физика, химия, геодезия, фармакология, медицина.

## STUDY OF THE LIFE AND STATESMANSHIP OF ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BABUR

Annotation
The invaluable contribution to the development of world science and culture, the sacred religion of Islam of our great ancestors-thinkers who grew up on the territory of today's Uzbekistan during the Early Renaissance in the world history of the East, is recognized by the world scientific community. The great scientific ideas and discoveries made by our great ancestors together with the natural sciences – mathematics, astronomy, physics, chemistry, geodesy, pharmacology, medicine, history, geography, philosophy, culture and art, architecture in the early Middle Ages, made a sharp turn in the development of world science and civilization. It is undeniable that this scientific heritage, which now affects the entire enlightened world, has become the spiritual heritage of all mankind. Zahireddin Mohammed Babur is one of the great figures who had a huge impact on the toastmaster throughout Asia.
**Keywords:** Renaissance, mathematics, astronomy, Physics, Chemistry, geodesy, pharmacology, medicine.

**Kirish.** Oliy Majlis Senatining yangi tarkibdagi ilk majlisida so‘zga chiqqan prezident Shavkat Mirziyoyev milliy tarixni anglashning ahamiyati haqida to‘xtalib o‘tdi: “Yaqinda Xavfsizlik kengashi yig‘ilishida Zahiriddin Muhammad Bobur bobomiz haqida gapirdim. Bobur 12 ming askar bilan 100 ming askarni yenggan. O‘sha paytda shunday qilish mumkinmidi? Yo‘q. Bobomizga nima yordam berdi? Vatanparvarlik, g‘urur, iftixor, aql-zakovat”. Shu nuqtayi nazardan, Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va davlatchilik faoliyatining maxsus tadqiq etilishi hozirgi o‘zbek tarixshunosligi oldida turgan dolzarb muammolardan biridir. Zero, davlat va siyosiy arbob ijodining qay darajada o‘rganilganligi, jahon hamda o‘zbek olimlarining Bobur shaxsi borasidagi ilmiy izlanishlarini o‘rganish va tadqiq qilish juda muhim sanaladi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Har bir millatning tarix sahnida shunday buyuk zotlari bo‘ladiki, milliy-madaniy qiyofasini aniq belgilovchi ulug‘ siymolari, daholari, shoh-u sarkardalari, buyuk olimlari, yirik adib va shoirlaridir. Insoniyatning abadiyatga mansub ana shunday buyuk farzandlari safida Zahiriddin Muhammad Bobur ham o‘z o‘rniga ega. Butun dunyo olamida Bobur singari iqtidor va fazilatlari beqiyos insonlar kamdan kam dunyoga keladi. “Boburning yoshligi Andijonda o‘tgan. Bobur barcha temuriy shahzodalar kabi maxsus tarbiyachilar, yirik fozil-u ulamolar ustozligida harbiy ta’lim, fiqh ilmi, arab va fors tillarini o‘rganadi, ko‘plab tarixiy va adabiy asarlar mutolaa qiladi, ilm-fanga, she’riyatga qiziqa boshlaydi. Dovyurakligi va jasurligi uchun u yoshligidan “Bobur” (“Sher”) taxallusini oladi” [1].

Tug‘ilganda uning ismini Zahiriddin deb qo‘yishadi. Ammo turkiylarda Zahiriddin ismi qiynalib talafuz qilinishini hisobga olib, otasi Boburga bag‘ishlab o‘tkazgan ziyofatlardan birida Eshon hazratlari unga sherdek yengilmas botir, kuch g‘ayratga to‘la bo‘lsin, dovrug‘i butun olamni tutsin deya Bobur ismini bergan.

Zahiriddin Muhammad Bobur buyuk shoh, o‘z zamonasining yetuk shoiri, adabiyotshunos, tilshunos, san’atshunos, etnograf, hayvonot va nabotot olamining bilimdoni, umuman olganda, serqirra ijod sohibidir. Buning isbotini «Boburnoma» asaridagi voqealar, sarguzashtda keltirilgan sohalar xususidagi ma’lumotlar dalillaydi. Bobur,

avvalo, boburiylar sulolasining asoschisi. Otasi Umarshayz Mirzo singari ulug‘ himmatli, oliy martabali hamda ulkan maqsadli hukmdorlar sirasidan o‘rin egallagan [2].

Bobomiz Zahiriddin Muhammad Bobur nomi bilan har qancha faxrlansak arziydi. O‘zbek xalqining dovrug‘ini dunyoga taratgan ulug‘ ajdodlarimizdan biri o‘laroq, ul zot bizni tariximizni qadrlashga, kelajakka buyuk ishonch bilan qarashga o‘rgatadi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Maqolani yoritishda tasniflash, tavsiflash, leksikografik va kognitiv tahlil usullaridan foydalanildi.

**Tahlil va natijalar**. “Tangri taoloning inoyati birla Ollohning ulug‘ va sirli bir bandasi xususida so‘z aytmoqqa jazm qildik. Bu mumtoz inson tariximizning eng murakkab, eng jozibador, eng dramatik siymolaridan biridir. Dunyoi foniyga kelib, u nisbatan qisqa umr ko‘rdi – bor-yog‘i qirq yetti yil hayot kechirdi. Lekin shu suronli umri mobaynida u jahon tarixidan shavkatli o‘rin olib ulgurdi. Hali murg‘ak go‘dak ekan, ota-bobolari uni suyub- erkalab, yaxshi niyatlar bilan zalvorli nom berib atadilar. Ism va jismning bir-biriga uzukka ko‘z qo‘ygandek mos kelishi noyob uchraydigan xodisadir.

Lekin bu azamat shaxs timsolida bu hol o‘zining yorqin ifodasini topgan edi” [3].

Zahiriddin Muhammad Bobur kabi mumtoz insonlarni dunyoga bergan xalq hech qachon xor bo‘lmaydi, muqarrar tarzda saodatga erishadi.

Bobur buyuk shoh sifatida Hindistonda ajdodlaridan qolgan an’anani davom ettirib, ulkan bunyodkorlik ishlarini amalga oshirgan. Hindistonning buyuk davlat arbobi Javohirla’l Neru “Bobur – dilbar shaxs. Uyg‘onish davri hukmdorining haqiqiy namunasidir. U mard va tadbirkor odam bo‘lgan. Bobur o‘ta madaniyatli va jozibali insonlar orasida eng yetuk insonlardan biri edi. U mazhabparastlik kabi cheklanishdan va mutaassiblikdan yiroq edi... Bobur san’at va, ayniqsa, adabiyotni sevardi”, – deb ta’kidlagan.

Uilyam Erskin Boburni «Saxovati va mardligi, iste’dodi, ilm-fan, san’atga muhabbati va ular bilan muvaffaqiyatli shug‘ullanishi jihatidan Osiyodagi podshohlar orasida Boburga teng keladigan birorta podshoh topilmaydi» deya qayd etadi.

Albatta, bunday saroy va bunday madaniyat o‘zidan-o‘zi qurilmaydi. Shoh va shahzodalar olim, shoir va madaniyatli kishilar bo‘lmasalar, ilmu madaniyat rivojiga u qadar parvo qilmasliklari mumkin. Ammo Bobur, uning to‘rt o‘g‘li va bir qizi — Humoyun, Komron, Askariy, Hindol va Gulbadan begim ham tarixda chuqur iz qoldirgan shoir, tarixchi, ilmu san’atni yaxshi o‘rganib, o‘zlashtirgan kishilar edilar. Ulardan bo‘lgan farzandlarning barchasi ham ota-bobolarining izidan borib, atoqli shoir, adib va olimlar sifatida ilmu san’at rivojiga katta hissa qo‘shib keldilar.

“Boburnoma”da yozilishicha, Bobur o‘z farzandlarining ta’lim-tarbiyasi haqida hamisha o‘ylab, ularni o‘qish va o‘rganishga targ‘ib qilar ekan. U “Mubayyin” risolasini Humoyun va Komronga diniy masalalarni o‘rgatish uchun nazmda yozadi. Boburning Humoyun va Komronga yozgan maktublari ham shu mavzuga qaratilgan. Masalan, u Komronga yozgan maktubida bunday deydi: “Farzandi arshad va arjumandi saodatnishon Muhammad Komron Mirzo bahodirga salomi muhabbat anjomidan so‘ng ulkim, ko‘kaltosh va ichkilaring bila sabaq o‘qurg‘a ruju’ kelturub ermishsen. Bu jihattin ko‘ngulga surur va xotirga huzur yetib na bisyor xushholliq yuz berdi. Tangri taolo dargohidin umidim borkim, jami’i qobiliyat va salohiyat bobida komil va mukammal bo‘lub kamolg‘a yetgaysen”.

Humoyunga yozgan maktubidan: “Yana men degandek bu xatlaringni bitibsen va o‘qumaysen, ne uchunkim, agar o‘qur xayol qilsang edi, o‘qiy olmas eding. O‘qiy olmagandin so‘ng albatta tag‘ir berur eding. Xatingni xud tashvish bila o‘qisa bo‘ladur, vale asru mug‘laqtur… Xatingni xud har tavr qilib o‘qusa bo‘lodur, vale bu mug‘laq alfozingdin maqsud tamom mafhum bo‘lmaydur. G‘oliban xat biturda kohillig‘ing ham ushbu jihattindur. Takalluf qilay deysen, ul jihattin mug‘laq bo‘ladur. Bundin nari betakalluf va ravshan va pok alfoz bila bitiy. Ham senga tashvish ozroq bo‘lur va ham o‘quvg‘uchig‘a…”.

**Xulosa.** Ko‘rinib turibdiki, Bobur farzandlarining diyonatli, ilm-fazilatli bo‘lib o‘sishi uchun ularga kitob tanlab yuborish, ularning o‘rganishi uchun kitoblar yozishni otalik va podshohlik burchi deb hisoblagan, ularni o‘qish-o‘rganishga targ‘ib qilib, imlo va insho xatolarini to‘g‘rilab bexato, sodda, ravon va betakalluf yozishga chorlagan. Bobur yozgan ilmiy asarlaridan, tuzgan devonidan tashqari, uning yana boshqa xislatlari ham bor edi. U musiqiy asarlar yaratdi, “Harb ishi”, “Boburiy xati” deb atalgan alifboni kashf qildi. Ushbu noyob qo‘lyozma asarni Bobur Xalqaro ilmiy ekspeditsiyasi o‘tgan galgi safarida qo‘lga kiritib, Vatanga olib kelib, ilmiy iste’molga kiritdi.

Hech bir shoh, o‘zi hayotdan ko‘zini yummay turib, toj-taxtni farzandiga topshirmagan. Hech bir shoh, o‘zi haqida bor haqiqatni, xato-kamchiliklarini yozib qoldirmagan. Shunday qilgan oliyjanob, komil inson yurtdoshimiz Zahiriddin Muhammad Boburdir.

Albatta, Boburning bunday sa’y-harakatlari zoye ketmadi. Uning to‘rtala o‘g‘li, qizi, nabiralari va ularning farzandlari ilm-u san’at, she’r-u adabiyotda nom qozondilar.

## ADABIYOTLAR

1. Abdurahmonov M. Xoja Ahror Valiy: Dovrug‘i olamni tutg‘ay... //Andijonnoma. – Andijon, 1993. 18-dekabr. – B. 2.
2. Mashrabov Z. Xalqaro Bobur jamg‘armasi raisi «O‘zbekiston adabiyoti va san’ati» gazetasining 2007 yil 7-son
3. Xayriddin Sulton. Boburiynoma. – Toshkent: Sharq, 1997. – B. 3.
4. https:// saviya.uz>Xayot>Nigoh.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/8]
ISSN 2181-7324

TARIX
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UDK: 902. 6(575.151)

***Odiljon XAMIDOV,***
*Termiz davlat universiteti dotsenti, PhD*
*Email: odiljonkhamidov@tersu.uz*

*Termiz davlat universiteti professori, t.f.d Sh.Shaydullayev taqrizi asosida*

## THE SPECIFIC CHARACTERISTICS OF THE INTERNAL AND EXTERNAL COMMUNICATION ROADS OF BACTRIA SATRAPY

Annotation
Bactria (satrapy) was an administrative region that existed as part of the Achaemenid Empire in the VI-IV centuries BC, the internal and external trade communication routes was an important role in its development. It becomes possible to determine the principles of road reconstruction and the principles of the location of settlements and to studying of the internal communication and external transit routes in the Bactria (satrapy) through the analysis of written (the Persepolis Fortification Archive, documents of the satrapy archive in Aramaic language, old Persian cuneiform, ancient sources) and archeological sources (a complex of archeological monuments of the satrapy period that were identified in Southern Uzbekistan, Northern Afghanistan, and Tajikistan).
**Key words:** Bactria (satrapy), Achaemenid Empire, the internal and external trade communication routes, “The Royal Road”, the Persepolis Fortification Archive, old Persian cuneiform.

## СПЕЦИФИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ВНУТРЕННИХ И ВНЕШНИХ ПУТЕЙ СООБЩЕНИЯ БАКТРИЙСКОЙ САТРАПИИ

Аннотация
Бактрийская сатрапия была административной областью, существовавшей в составе Ахеменидского государства в VI-IV веках, в развитии которой важная роль принадлежала внутренним и внешним торговым путям. В деле изучения внутренних коммуникаций и внешних транзитных путей Бактрийской сатрапии посредством анализа письменных (архивы Персеполя, документы архива сатрапии на арамейском языке, древнеперсидские надписи, античные источники) и археологических источников (комплекс археологических памятников периода сатрапии, обнаруженных в Южном Узбекистане, Северном Афганистане и Таджикистане) возникает возможность определения закономерностей формирования реконструкции дорог и принципов расположения поселений.
**Ключевые слова:** Бактрийская сатрапия, государстве Ахеменидов, внутренних и внешних путей, “Царская дорога”, архивы Персеполя, древнеперсидские надписи.

## BAQTRIYA SATRAPLIGI ICHKI VA TASHQI ALOQA YO‘LLARINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Annotatsiya
Baqtriya satrapligi mil. avv. VI-IV asrlarda Ahamoniylar davlati tarkibida mavjud bo‘lgan ma’muriy viloyat bo‘lib, uning rivojlanishida ichki va tashqi savdo aloqa yo‘llarining o‘rni muhim bo‘lgan. Baqtriya satrapligi ichki aloqa va tashqi tranzit yo‘llarini o‘rganish uchun yozma (Persepol arxivi, oromiy tilidagi satraplik arxivi hujjatlari, qadimgi fors bitiklari, antik manbalar) va arxeologik manbalar (Janubiy O‘zbekiston, Shimoliy Afg‘oniston va Tojikistonda aniqlangan satraplik davri arxeologik yodgorliklar kompleksi) tahlili amalga oshirish orqali yo‘llarining rekonstruksiyasi shakllanish qonuniyatlarini va manzilgohlarini joylashuvi prinsiplarini aniqlash imkoni vujudga keladi.
**Kalit so‘zlar:** Baqtriya satrapligi, Ahamoniylar davlati, ichki va tashqi savdo aloqa yo‘llari, “Shoh yo‘li”, Persepol arxivi, qadimgi fors bitiklari.

**Kirish.** Baqtriya satrapligi mil. avv. VI-IV asrlarda Ahamoniylar davlati tarkibida mavjud bo‘lgan ma’muriy viloyat bo‘lib, hududi hozirgi kundagi Shimoliy Afg‘oniston, Tojikistonning janubi-g‘arbi va Janubiy O‘zbekiston (Surxon vohasi) ga to‘g‘ri kelgan. Baqtriya janubda Hindikush, sharqda Pomir, shimolda Hisor tog‘ tizmalari bilan chegaralangan. G‘arbda Amudaryoning o‘rta oqimigacha bo‘lgan hududlar uning tarkibiga kirgan [2; 11].

Baqtriya ahamoniy bitiklarida bir necha marta tilga olingan bo‘lib, Doro I ning (DB, DPe, DNa) va Kserksning (XPh) shoh bitiklarida keltiriladi. Baqtriya satrapligi janubida Areyya, janubi-sharqda Gandhara, shimolda So‘g‘d viloyatlari bilan chegaradosh bo‘lgan. Shu bilan birgalikda Baqtriya satrapligi So‘g‘diyona, Parfiya, Girkaniya va Xorasmiya hududlarini nazorat qilib turgan.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili**. O‘.M.Mavlonov tadqiqotlarida ahamoniylar davri O‘rta Osiyo ichki aloqa va tashqi tranzit yo‘llari haqida ma’lumotlar keltiriladi. Jumladan, Baqtriyani Marg‘iyona bilan bog‘lagan aloqa yo‘li Janubiy Baqtriya orqali o‘tganligi, Shimoliy Afg‘onistondan yo‘l Cho‘chqaguzar, Sho‘rob kechuvlari orqali Surxon vohasi va Janubiy Tojikistonga o‘tganligi, shuningdek, satraplik markazini So‘g‘diyona bilan bog‘lovchi ikki yo‘nalish (1-yo‘nalish: Sho‘rob, Kelif yoki Kerkidan cho‘l orqali Nikshapayyaga; 2-yo‘nalish: Sho‘rob kechuvi-Surxon vohasi-Temir darvoza–Oqrabot, bu yerda yo‘l tarmoqlanib, bir tarmog‘i shimoli-g‘arbga – O‘radaryo bo‘ylab Yerqo‘rg‘onga, ikkinchisi Hisor tog‘ tizmasi shimolida joylashgan qadimgi Nautaka viloyati va Taxtaqoracha dovoni orqali) mavjudligi aytib o‘tilgan [2].

Hozirgi kunda Baqtriya satrapligi ichki aloqa va tashqi tranzit yo‘llarini o‘rganish, yangi yozma va arxeologik tadqiqotlar natijalarini tahlilini amalga oshirish dolzarb hisoblanadi. Bu bo‘yicha xorijda bir qator tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Baqtriya satrapligi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida yo‘llarning ahamiyati yuqori bo‘lgan. Albatta,

satraplik ichki va tashqi aloqa yo‘llari qadimdan Oks sivilizatsiyasi, ya’ni, bronza davri (mil. avv. 3-2 ming yillik) dan rivojlangan bo‘lib, ahamoniylar boshqaruvi paytida mukammal yo‘l tizimining tarkibiy qismi sifatida shakllangan. Ushbu quruqlik yo‘li – Buyuk Xuroson yo‘li deb ham atalgan. Buyuk Xuroson yo‘li – «Shimoliy yo‘l» deb ham atalib, u Mesopotamiya shaharlarini Eron yassitog‘ligi, va undan Markaziy Osiyo va Xitoy bilan bog‘lab turgan katta transmintaqaviy yo‘l hisoblangan[34]. Arxeologik topilmalar shundan dalolat beradiki, bu yo‘l mil. avv. III ming yillikdan boshlab, Markaziy Osiyo-Eron-Mesopotamiya o‘rtasida asosiy savdo yo‘liga aylangan[25]. Ahamoniylar davriga kelib esa, bu yo‘l imperiya savdo yo‘llar tizimining sharqiy qismini tashkil etgan[18].

Ahamoniylar davlatida yo‘llar imperiya boshqaruvi uzluksizligini ta’minlashda yetakchi rol o‘ynagan, shu bilan bir qatorda imperiya infrastrukturasining bir qismi[41; 20] hisoblangan. Ahamoniylar mil. avv. II mingyillikdan mavjud bo‘lgan yo‘llar tizimidan foydalanishgan, ushbu tizim imperiya davrida bosh shaharlar va satraplik markazlari bog‘lash uchun kengaytirilgan[41; 26; 20]. Ahamoniylar davlati tarixida mil. avv. VI-IV asrlarda “Shoh yo‘li” mavjud bo‘lganligi, uning Suza shahridan Kichik Osiyoning Sardi shaharlarigacha borganligi ma’lum[2]. Uning uzunligi 2500 km [41: 42], H.Sanchizi-Verdenburg tadqiqotiga ko‘ra ushbu masofani 90 kunda bosib o‘tish mumkin bo‘lgan [41; 39]. Parasang fors o‘lchov birligi 5-6 km ni tashkil etib, ahamoniylar 25-30 km da yo‘l bo‘yi inshootlari-karvonsaroylar barpo etishgan. Bu o‘z navbatida muntazam kommunikatsiyani ta’minlagan. Ushbu bekatlar o‘z navbatida oziq-ovqat bilan ta’minlangan, choparlar kunlik mahsulotlarni olishgan, yangi ulov olib safarini davom ettirishgan. Shoh yorlig‘iga ega shaxs yoki amaldorlar ushbu yo‘l bo‘yi inshootlari-bekatlardan foydalanishgan. Daryo kechuvlari va tog‘ daralari kabi strategik nuqtalarda askarlar yo‘llarni qo‘riqlab, sayyohlar xavfsizligini ta’minlashgan. Qorovul postlari va zahiralarni saqlash satrapning burchi hisoblangan, aloqa yo‘llarning muntazamligi imperiya boshqaruvi samaradorligini oshirgan[41:49].

Baqtriya satrapligining “Shoh yo‘li” tarmog‘ida tutgan o‘rni, shuningdek, uning ichki aloqa-savdo yo‘llari to‘g‘risida bir qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. Jumladan, A.Asqarov[1], E.V.Rtveladze[5,6,7,8], A.S.Sagdullayev[9,10,12], Sh.Shaydullayev[15,16], O‘.M.Mavlonov[2], U.Sin[45], U.Henkelman[29], A.P.Frankfor[24], P.Brian[19] tadqiqotlari shular jumlasidandir.

**Tadqiqot metodologiyasi**. Mazkur maqolada tadqiqot metodologiyasi sifatida zamonaviy fan rivojlanishining qonuniy tendensiyasi bo‘lmish fanlararo yondashuv usulidan foydalanilgan. Maqola umum qabul qilingan tarixiy metodlar − tarixiylik, qiyosiy-mantiqiy tahlil, xronologik tahlil, ketma-ketlik, xolislik tamoyillari asosida yoritilgan.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Baqtriya satrapligi tashqi va ichki aloqa yo‘llarining shakllanishida bir necha muhim omillar mavjud bo‘lib, ular o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lgan:

Birinchidan, geostrategik qulay joylashuv orqali “Shoh yo‘li” ning sharqiy qismining nazorat qilinishi. Shoh yo‘lining Hindistonga o‘tadigan qismi Baqtriya satrapligi hududidan o‘tgan bo‘lib, sharq va g‘arb o‘rtasida savdo aloqalari rivojlanishida muhim o‘rin tutgan. Bevosita Baqtra shahri “Efesdan Baqtr va Hindistongacha” boradigan “Shoh yo‘li” orqali imperiyaning boshqa markazlari bilan bog‘langan[26].

Umuman olganda, Baqtriya mintaqasi geografik jihatdan savdo yo‘llarini boshqarishga qulay joylashganligi bilan ajralib turgan. Masalan, Kushon saltanati davrida Baqtriya Parfiya imperiyasi, So‘g‘d, Shimoliy-g‘arbiy Hindiston, Hindikush orqali Tarim havzasiga shimoliy va janubiy yo‘llar orqali darvoza vazifasini bajargan Koshg‘ar bilan bog‘langan[22;44]. Ahamoniylar imperiyasi va uning voris-davlatlari, shu jumladan, Yunon-Baqtriya davlati Yevroosiyo mintaqasi savdo aloqalarida muhim rol o‘ynagan[21; 44:264].

Ikkinchidan, Baqtriya satrapligi va qo‘shni hududlarda mineral va tabiiy resurslar konlarining mavjudligi. Baqtriya satrapligi savdo aloqalarining rivojlanishida uning hududida lazurit konining mavjudligi[13; 14] katta ahamiyatga ega bo‘lgan. Bunda Hindikushdagi Badaxshon konlari, shu jumladan Ko‘kcha vodiysidagi Sar-e sang manbasi alohida o‘rin tutgan[3]. Ushbu konlardan qazib olingan lazurit bir necha yo‘nalishlarda tarqalgan: Janubda, Dilmun va Shumer portlari orqali Mohenjodaro va Xarappaga, Janubi-g‘arbda Hilmand sivilizatsiyasining markazlari tomonga: Lutning chekkalari, Tepai Yahyo, Anshan va Suzaga, G‘arb tomonda Eron yassitog‘ligining shimoliy yonbag‘irlari tomonga (Tepai Hisor, Sialk, Shimoliy Mesopotamiya va Anatoliya), Shimoli-g‘arbda Janubiy Turkmanistongacha borgan[33]. V.I.Sarianidi arxeologik manbalar va qadimgi yozma manbalarni o‘rganib, Shimoliy Afg‘onistonda lyapis-lazur toshini olish bilan shug‘ullangan “Aratta tog‘li mamlakati” (mil.avv. XXVIII-XXVI asrlar) joylashgan deb fikr bildirgan[13]. Lazurit moviy toshi qadimdan madaniyatlararo keng tarqalgan mineral turlaridan biri hisoblanib, taxminan mil. avv. 3500 yildan Mesopotamiya hududlarigacha eksport qilingan [31]. J.Viysxofer fikricha, Mesopotamiyaga Yangi Bobil podsholigi va Ahamoniylar imperiyasi davrida Ekbatana orqali sotilgan[44; 19]. Ahamoniylar imperiyasida lazuritdan foydalanish davlat mafkurasi darajasiga ko‘tarilgan bo‘lib, Doro I lazuritni Suza saroyi asosidagi matnlarda tilga olishi[23; 17] orqali shoh mavqeini yanada oshirishdagi muhim o‘rnini ko‘rishimiz mumkin. Suza saroyi bitiklarida (DSf) qurilish uchun Baqtriyadan oltin, Sug‘diyonadan lapis – lazurit, serdolik olib kelganligi bitilgan[17].

Suza saroyi qurilishida qo‘shimcha materiallar sifatida oltin Misr, Sardi bilan birgalikda Baqtriyadan, shuningdek, lazurit va serdolik Sug‘ddan, feruza Xorazmdan keltirilgan[17; 3]. Albatta bu mahsulotlar nafaqat saroylar qurilishida soliq sifatida yuborilgan, balki, boshqa mintaqalarda eksport qilishda ham muhim rol o‘ynagan bo‘lishi mumkin. Biz bilamizki, lazuritning asosiy koni Sar-e Sang (Janubiy Baqtriya) da joylashgan. Shuningdek, E.Xertsfeld tadqiqotida Sug‘d mahsulotlari sharqiy Baqtriyadan keltirilganligi aytib o‘tiladi[32].

Uchinchidan, Baqtriya satrapligining ahamoniylar davlatida tutgan muhim o‘rni hisoblanadi. Kir II tomonidan asos solingan ulkan imperiya Doro I va Kserks taxt vorislari masalasi ijobiy hal qilingan bo‘lsada, keyingi ahamoniy hukmdorlar davrida bu holat aksariyat hollarda kuzatilmaydi. 13 nafar ahamoniy hukmdorlardan 5 tasi, agar Gaumata/Bardiyani ham hisobga kiritadigan bo‘lsa, unda 6 nafari, shuningdek, yuzlab shahzodalar taxt uchun kurashlar qurboni bo‘lgan. 8 nafari taxtga saroy fitnalari orqali taxt ega bo‘lgan[4]. Taxt uchun kurashlarda Baqtriya satraplari da’vogar sifatida qatnashganligini ko‘rishimiz mumkin. Mil. avv. 464-yilda shoh Artakserksning ukasi, Kserksningi o‘rtancha o‘g‘li, Baqtriya satrapi Gistasp baqtriyalik zodagonlar yordamida taxtni egallash uchun qo‘zg‘olon ko‘taradi(Diod. 11.69.2). Gistasp Artakserks tomonidan o‘lim jazosiga hukm qilinadi. Baqtriya satraplari ushbu tarixiy voqealarda faol ishtirok etishgan, taxt uchun da’vogarlik qilishgan (Masista, Bess). Ahamoniy shohlari esa bir necha marta sharqiy viloyatlarga harbiy kampaniya uyushtirgan bo‘lishi mumkin. Shu nuqtai-nazarda ahamoniy hukmdorlar satraplik bilan bog‘lovchi yo‘llarni muntazam nazorat qilgan. Ahamoniylar davrida sharqiy satrapliklar bilan yo‘llar tizimi juda yaxshi qo‘yilganligini quyidagi holatda ko‘rishimiz

mumkin: Aleksandr armiyasi janubi-sharqiy Eronda oziq-ovqat taqchilligi tufayli qiyin ahvolda qolganida, Parfiya va Areyya satraplari qisqa muddatda ko‘p sonli tuyalarda tayyor oziq-ovqat olib borishgan. Tezlik bilan ushbu yordamning tashkil etilishi imperiya davrida satrapliklar orasida yuk tashish tizimi va strukturasi yaxshi yo‘lga qo‘yilganligini ko‘rsatadi[27]. Shu bilan birga satrapliklarda zarur mahsulotlar g‘amlanganligini bildiradi. Bu esa o‘z navbatida imperiya barqarorligi uchun muhim o‘rin tutgan.

To‘rtinchidan, Baqtriya satrapligi hududidan g‘arbiy viloyatlardan aholi deportatsiya qilinadigan joy sifatida foydalanilishi. Barkadan (Kirenaike) aholi Baqtriyaga, miletlik branxidlar So‘g‘diyonaga surgun qilingan. Ioniya qo‘zg‘olonchilariga forslar ularning “qizlarini Baqtriyaga jo‘natish” bilan tahdid qilishgan[17; 35; 40].

Baqtriya satrapligining ichki aloqa yo‘llari rekonstruksiyasi amalga oshirish tajribasi U.Sin tomonidan amalga oshirilgan bo‘lib[45], Qiziltepa yodgorligi ahamoniylar davri Surxondaryo viloyatlaridagi yodgorliklari orasida aloqa yo‘llarining mavjudligi masalalarini yoritadi. Tadqiqotchi Surxon vohasida 7 ta oazisda, 5 ta tog‘ oldi va 2 ta Amudaryo kechuvidagi vohalar (Xaitobodtepa, Termiz) yodgorliklar o‘rtasidagi aloqa tizimini yoritishga yordam beradi. Har bir vohalar katta va ular atrofidagi kichik yodgorliklardan iborat. Tadqiqotchi birinchi navbatda yodgorliklar orasidagi masofani tahlil qilgan. Odatda masofalar 32-39 km (o‘rtacha 35 km) yoki 18 km ga yaqin masofani tashkil etgan. Yodgorliklar orasidagi masofalar quyidagicha: Qiziltepadan-Bandixon II ga, 39 km; Bandixon II dan Jondavlattepaga, 35 km; Bandixon II dan Xaitobodtepaga, 32 km; Jondavlattepadan Xaitobodtepaga, 32 km; Sho‘rtepadan –Dobilqo‘rg‘onga, 37 km; Xaitobodtepadan Termizga, 38 km; Jondavlattepadan Dobilqo‘rg‘onga, 32 km; Jondavlattepadan Tallashqon I ga, 18 km; Tallashqon I dan Dobilqo‘rg‘onga, 18 km; Jondavlattepadan Sho‘rtepaga, 18 km; Obishirtepadan Qiziltepaga, 18 km. Bu masofani bir-ikki kunda piyoda yoki tuyada bosib o‘tish mumkin bo‘lgan. Olima tomonidan ushbu masofalar to‘g‘ri chiziq bo‘ylab olingan bo‘lib, uning fikricha, ushbu masofalar turli baholashlarga ko‘ra, 21-24 yoki 37-43 km ni tashkil etuvchi “Shoh yo‘li” dagi bekatlar orasidagi masofaga taxminan mos keladi[45].

U.Henkelman tadqiqotlarida Persepol arxivida keltirilgan baqtriyaliklarga oid ma’lumotlarni umumlashtirib, ularning imperiya hayotidagi o‘rnini yoritgan. Ahamoniylar davrida Qadimgi Sharq asosiy hududining bir davlat qo‘l ostida birlashtirilishi natijasida baqtriyaliklarning imperiya markazlarida tarqalishiga olib kelgan. Persepol mudofaa inshooti arxivida muntazam ravishda “Shoh yo‘li” dan foydalanib, Sharqdan kelgan kurtashlar yoki kelib-ketuvchi choparlar tilga olingan [17;28]. Persepol arxivida Baqtriyaga yoki Baqtriyadan sayohat qilganlar to‘g‘risida 9 ta hujjat aniqlangan bo‘lib, ularning 6 tasida satraplik nomi tilga olinadi. Bittasida Doro I hukmronligi davriga to‘g‘ri keluvchi Irdabanush ismli satrap tilga olinadi. Ikkitasida Baqtriyaga yoki Baqtriyadan yo‘lga chiqqan baqtriyalik choparlar haqida ma’lumot keltiriladi. Doro I davriga oid ushbu hujjatlatlarda Baqtriyadan Suzaga yo‘lga chiqqan choparlarga berilgan oziq-ovqat ta’minotlari haqida ma’lumot berilgan. Ushbu hujjatlarni o‘rganilishi natijasida baqtriyaliklarning tashqi aloqa yo‘llari haqida chuqur ma’lumot olish mumkin.

Sh.Shaked va J.Naveh tomonidan Shimoliy Afg‘onistondan topilgan, hozirda Londonda Xaliliy kolleksiyasida saqlangan satraplik davriga oid 48 ta hujjatni e’lon qilishadi[38]. Bu hujjatlar Ahamoniylar devonxonasining tili – oromiy tilida yozilgan bo‘lib, bu davrga oid Baqtriya hujjatli yozuvlarning ilk namunasi hisoblanadi. Hujjatlar tarjimasi amalga oshirilgan, tadqiqotchilar ularni 4 guruhga bo‘lishgan. Hujjatlarda Baqtriya satrapligi ijtimoiy-iqtisodiy hayotini va boshqaruv tizimini tasvirlaydigan muhim ma’lumotlar mavjud. Birinchi guruh hujjatlarida yuqori toifadagi amaldor Axvamazda va Bagavant yozishmalari qayd qilingan. G.A.Koshelenko hujjatlarni o‘rganish orqali Baqtriya ma’muriy boshqaruv tizimini quyidagicha tasvirlagan:

1 Satrap (Axvamazda);

2. Satraplik doirasida viloyat hokimi (Bagavant?);

3. Shahar va uning atroflari hokimi(Bagavant?).

Ushbu hujjatlarni satraplik va qo‘shni hududlar geografiyasiga doir Nixshapayya-Naxshab, Kish-Kesh, “Artadatana cho‘li”, Arayvant, Varayna, Dastakani, Vaxumani, Asparasta, Artuki va h.k. atamalar uchraydi. Ushbu hujjatlar Baqtriya satrapligi ichki kommunikatsiya tizimi haqida ham ma’lumot beruvchi muhim manbalardan biridir.

**Xulosa va takliflar**. Xulosa qilib aytganda, Baqtriya satrapligi ichki aloqa va tashqi tranzit yo‘llarini o‘rganish uchun katta hajmdagi yozma (Persepol arxivi, oromiy tilidagi satraplik arxivi hujjatlari, qadimgi fors bitiklari, antik manbalar) va arxeologik manbalar (Janubiy O‘zbekiston, Shimoliy Afg‘oniston va Tojikistonda aniqlangan satraplik davri arxeologik yodgorliklar kompleksi) tahlili amalga oshirilishi kerak. Natijada satraplik yo‘llarining rekonstruksiya va shakllanish qonuniyatlarini aniqlash imkoni vujudga keladi. Bu bevosita satraplik manzilgohlarini joylashuvi prinsiplarini aniqlashga olib keladi.

**ADABIYOTLAR**


1. Askarov A.A. Yeshyo raz o drevnix putyax na yuge Uzbekistana // ONU, №7. 1982.
2. Mavlonov O‘.M. Markaziy Osiyoning qadimgi yo‘llari: shakllanilishi va rivojlanish bosqichlari. Monografiya. – Toshkent: Akademiya, 2008.
3. Melikov R. Drevnepersidskie nadpisi. Transliteratsiya, perevod, glossariy. Baku, 2013. 448 s.
4. Melikyan A.T. Institut «Vtoroy posle tsarya» v iranskoy gosudarstvennoy sisteme Axemenidskoy epoxi // Metamorfozi istorii. 2013. №4. S. 88-118.
5. Rtveladze E.V. Aleksandr Makedonskiy v Baktrii i Sogdiane. Istoriko-geograficheskie ocherki. Tashkent, 2002.
6. Rtveladze E.V. Aleksandr Makedonskiy v Transoksiane: Poxodi, istoricheskaya geografiya. – SPb.: Yevraziya, 2019. 368 s. il.
7. Rtveladze E.V. Drevnyaya Baktriya — Srednevekovыy Toxaristan. Dinamika istoriko-kulturnogo razvitiya (Po materialam amudarinskogo pravoberejya). ADD. – M., 1988.
8. Rtveladze E.V. Ksenippa-Paretaka. Kavkaz i Srednyaya Aziya v drevnosti i srednevekovya. – M., 1981.
9. Sagdullaev A.S. Drevnie puti na yuge Uzbekistana // ONU, №7, 1981.
10. Sagdullaev A.S. Kultura Severnoy Baktrii v epoxu pozdney bronzi i rannego jeleza (Po materialam pamyatnikov rayona Shurchi-Baysuna). AKD. – L., 1978.
11. Sagdullaev A.S. Qadimgi O‘rta Osiyo tarixi. – Toshkent, 2004.
12. Sagdullaev A.S. Osedlie oblasti yuga Sredney Azii v epoxu rannego jeleza (genezis kulturi i sotsialno-ekonomicheskaya dinamika). ADD. – M., 1989.
13. Sarianidi V.I. O velikom lazuritovom puti na Drevnem Vostoke // KSIA. 1968. – Vip. 114. – S. 3-9.
14. Sverchkov L. Lyapis-lazur: istoricheskie svedeniya, mestorojdeniya i arxeologicheskie dannыe // Istoriya i arxeologiya Turana. № 5. – Samarkand, 2020. – S. 119-128.

15. Shaydullaev Sh.B. Pamyatniki rannejeleznogo veka Severnoy Baktrii. AKD. – Samarkand, 1990.
16. Shaydullaev Sh.B. O‘zbekiston hududida davlatchilikning paydo bo‘lishi va rivojlanish bosqichlari (Baqtriya misolida). Tarix fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Samarqand, 2009.
17. A Companion to the Achaemenid Persian Empire. Jacobs, Bruno & Robert Rollinger (eds.). 2 vols. Hoboken, NJ: Wiley-Blackwell. 2021.
18. Briant, P. From Cyrus to Alexander. A History of the Persian Empire. Winona Lake: Eisenbrauns. 2002.
19. Briant, P. From the Indus to the Mediterranean: the administrative organization and logistics of the great roads of the Achaemenid Empire. In S.E.Alcock, J.Bodel, and R.J.A.Talbert (eds.), Highways, Byways, and Road Systems in the Pre-Modern World. New York: Wiley, 2012. Pp. 187–201.
20. Brosius, M. The Persians: An introduction. London: Routledge. 2006.
21. Brosseder, U.B. A Study on the Complexity and Dynamics of Interaction and Exchange in Late Iron Age Eurasia. In Complexity of Interaction along the Eurasian Steppe Zone in the First Millenium CE, eds. J. Bemman, and M. Schmauder, Bonn: University Press. 2015. 199-332.
22. Coloru, O. Da Alessandro a Menandro. Il regno Greco di Battriana (Studi Ellenistici XXI). Pisa-Roma: Giardini editori e stampatori. 2009.
23. de la Vaissière, É. Sogdian Traders. A History (Handbook of Oriental Studies 8.10). Leiden- Boston: Brill. 2005.
24. Francfort, H.-P. Central Asia and eastern Iran. In J. Boardman, N.G.L. Hammond, D.M. Lewis, and M. Ostwald (eds.), Cambridge Ancient History: Second Edition, Volume IV: Persia, Greece and the Western Mediterranean (c. 525 to 479 B.C.). Cambridge: Cambridge University Press, 1988. Pp. 165–193.
25. Frankfort H. Iran and Central Asia: The Grand’Route of Khorasan (Great Khorasan Road) during the third millennium BC and the “dark stone” artefacts // Jan-Waalke Meyer., Vila E., Mashkour M., Casanova M., Vallet R. (Eds) The Iranian Plateau during the Bronze Age: Development of urbanisation, production and trade.Archéologie(s), Lyon, MOM Editions, 2019. – P. 247-266.
26. Graf, D.F. The Persian royal road system, in Sancisi-Weerdenburg, H.W., A. Kuhrt and M.C. Root (eds.). Achaemenid history VIII: Continuity and change. Leiden: Nederlands Instituut voor het Nabije Oosten, 1994. – P. 167-189.
27. Henkelman W.F.M., Kaniuth K., Mohammad K. Resilience in Centralized State Systems. The Persepolis Fortification Archive and Achaemenid Institutional Longevity // Coming to Terms with the Future. Concepts of Resilience for the Study of Early Iranian Societies, edited by Reinhard Bernbeck, Gisela Eberhardt & Susan Pollock. Leiden: Sidestone Press, 2023. – P. 237.
28. Henkelman, W.F.M., Stolper, M.W. Ethnic identity and ethnic labelling at Persepolis: the case of the Skudrians. In P. Briant, M. Chauveau (eds.), Organisation des pouvoirs et contacts culturels dans les pays de l’empire achéménide. Paris: de Boccard, 2009. – Pp. 271–329.
29. Henkelman, Wouter F.M. “Imperial Signature and Imperial Paradigm. Achaemenid Administrative Structure and System across and beyond the Iranian Plateau.” In Administration in the Achaemenid Empire: Tracing the Imperial Signature, edited by Bruno Jacobs, Wouter F.M. Henkelman, and Matthew W. Stolper, 45–256. Classica et Orientalia 17. Wiesbaden: Harrassowitz. 2017.
30. Herrmann, G. Kostbarer als Gold: Lapislazuli. In Die Seidenstraße. Landschaften und Geschichte, ed. S. Whitfield, 2019. – P. 182–187. Darmstadt: Theiss.
31. Herrmann, G.. Lapis Lazuli: The Early Phases of Trade // Iraq. 30. 1968. – P. 21–57.
32. Herzfeld, E. The Persian Empire: Studies in Geography and Ethnography of the Ancient Near East. Edited from the Posthumous Papers by Gerold Walser. Wiesbaden: Steiner Verlag. 1968.
33. Lapis lazuli bead making at Shahr-i Sokhta. Interpreting craft production in a urban community of the 3rd millennium BC . Vidale, M., Lazzari A. (Eds.). ROMA. ISMEO. 2017. 380 pp.
34. Majidzadeh Y. Lapis lazuli and the Great Khorasan Road. In: Paléorient, 1982, vol. 8, n 1. – P. 59-69.
35. Matarese, C. Deportationen im Perserreich in tespidisch- achaimenidischer Zeit. (Classica et Orientalia, 27). Verlag Otto Harrassowitz, Wiesbaden, 2021. (24,5 cm, XII, 318).
36. Moorey, P.R.S. Ancient Mesopotamian Materials and Industries. The Archaeological Evidence. Winona Lake: Eisenbrauns. 1999.
37. Morris, L. Central Asian Empires. In Handbook of Ancient Afro-Eurasian Economies (Vol. 1: Contexts), ed. S. von Reden, 2020. 53–93. Berlin-Boston: de Gruyter.
38. Naveh, J., Shaked, S. Aramaic Documents from Ancient Bactria (Fourth Century BCE.): From the Khalili Collections. London: The Khalili Family Trust. 2012.
39. Sancisi-Weerdenburg, H.W. Darius I and the Persian Empire, in Sasson, J. M. (ed.). 1995. Civilisations of the ancient Near East. Vol. 2. New York: Simon Schuster, 1995. – P. 1035-1050.
40. Silverman, Jason M. Review: MATARESE, C. — Deportationen im Perserreich in tespidisch-achaimenidischer Zeit. (Classica et Orientalia, 27). Verlag Otto Harrassowitz, Wiesbaden, 2021. (24,5 cm, XII, 318). ISBN 978-3-447-11594-0. ISSN 2190-3638.€ 78,–. // BIBLIOTHECA ORIENTALIS LXXIX N° 3-4, mei-augustus 2022. – P. 319-326.
41. Swart, Antoinette The Apadana: Reliefs at Persepolis An iconographic analysis with special emphasis on the Identification and function of the gift-bearing delegations. Thesis (PhD). Stellenbosch University, 2021. xvii, 283 pages; illustrations.
42. Van de Mieroop, M. A History of the ancient Near East ca. 3000-323 BC. Malden: Blackwell. 2007.
43. Van de Mieroop, M. A History of the Ancient Near East ca. 3000-323 B.C. Chichester: Wiley-Blackwell. 2016.
44. Wiesehöfer, J., Ruffing, K. The End of the Kushan Empire. In: Gehler, M., Rollinger, R., Strobl, P. (eds) The End of Empires. Universal-und kulturhistorische Studien. Studies in Universal and Cultural History. Springer VS, Wiesbaden. 2022.
45. Xin, Wu “Exploiting the Virgin Land: Kyzyltepa and the Effects of the Achaemenid Persian Empire on its Central Asian Frontier,” in J. Lhuillier and N. Boroffka, eds., A Millennium of History: The Iron Age in Southern Central Asia (2nd and 1st Millennia BC), Berlin, 2018. – P. 189-214.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/8]
ISSN 2181-7324

TARIX
http://journals.nuu.uz
Social sciences

***Xabibdjan XOLBAEV,***
*QK xizmatchisi, O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari*
*Harbiy meros va zamonaviy tadqiqotlar instituti katta ilmiy xodimi*

*O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi Milliy Iftihor va harbiy vatanparvarlik kafedrasi, gumanitar fanlar sikli professori, MADRAXIMOVA Gulshanoy Sotibjldievna taqrizi asosida*

## IKKINCHI JAHON URUSHIDA GERMANIYA VA SOVET ITTIFOQI QO‘SHINLARINING JANG OLIB BORISH TAKTIKALARINI (KORRELYATSION BOG‘LANISHI) STATISTIK TAHLILI

Annotatsiya

Ikkinchi jahon urushi tugallanganligiga 83 yildan oshdi va jangovar harakatlar vaqtida tarixiy izlanishlar olib borishga imkoniyatlar bo‘lmagan. Urishdan keyin jaroxatlarni davolash, sanoatni tiklash, qishloq xo‘jaligini jonlantirish bilan shug‘ullandilar. Mana endi mustaqil davllatlar hech qanday bosimsiz, odiloni ulug‘ g‘alabaga qo‘shgan hissalarini tadqiq qilish ustida izlanishlar olib borilmoqda. Ushbu izlanishlarni olib borishda arxiv xujjatlari, sur’atlar, kinofilmlar, urush qahramonlari, ular bilan suxbatlashgan odamlar fikrlari asos bo‘lmoqda. Biz ushbu maqolada barcha manbalardan 20 ta ko‘rsatkichlarni tanlab olib jang olib borish taktikalarini (korrelyatsion bog‘lanishi) statistik tahlil asosida ikkinchi jaxon urushi natijalarini aniq baholashga erishdik

**Kalit so‘zlar:** Ikkinchi jahon urishi; taktik harakatlar; korrelyatsion bog‘lanish; statistik tahlil; urush natijalari.

## СТАТИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ТАКТИКИ ВЕДЕНИЯ БОЕВЫХ ДЕЙСТВИЙ СОВЕТСКИМИ И НЕМЕЦКИМИ ВОЙСКАМИ В ПЕРИОД ВТОРОЙ МИРОВОЙ ВОЙНЫ (КОРРЕЛЯЦИОННАЯ ВЯЗЬ)

Аннотация

С момента окончания Второй Мировой войны прошло более 83 лет, а возможностей для исторических исследований проведенных сражений все не было. После боев занимались лечением раненых, восстановлением промышленности, оживлением сельского хозяйства. В настоящее время проводятся исследования по изучению вклада независимых государств в справедливость Великой Победы без какого-либо давления. Архивные документы, документальные фильмы, герои войны и их мнения являются основой для проведения этих исследований. В данной статье мы отобрали 20 примеров из всех существующих источников и добились точной оценки итогов Второй Мировой войны на основе корреляционного статистического анализа тактики ведения боевых действий.

**Ключевые слова:** Вторая Мировая война, тактические действия, корреляционная связь, статистический анализ, итоги войны.

## STATISTIC ANALYSIS OF TACTIC CONDUCT OF COMBAT OPERATIONS OF SOVIET UNION AND GERMAN TROOPS IN THE PERIOD OF THE SECOND WORLD WAR (CORRELATIVE CONNECTION)

Annotation

More than 83 years have already passed since the end of the World War II. However, there were not enough possibilities for carrying out historical reseach on the fought battles. After the battles people were busy with curing injured and wounded soldiers, industry rebuilding and agriculture reanimation. At present, scientific research on contribution of the independent states to the great victory of justice is being done without any pressure. Archival documents, documentary films, opinions of the war heroes have become a fundamental basis for such researches. This article is based on the 20 selected orginal examples that contributed to exact estimation of the World War II results, due to the correlation links and statistical analysis of the combat actions’ tactics warfare.

**Key words:** World War II, tactical actions, correlation link, statistical analysis, results of war.

Fashistlar Germaniyasi 1941 yil 22 iyunda, kutilmaganda barcha ikki tomonlama shartnomalarni buzgan holda, sovet ittifoki hududiga bostirib kirdi. Bu sovet ittifoqi uchun kutilmagan holat edi. Harbiy salohiyat nuqtai nazaridan tashkil topganiga hali ko‘p bo‘lmagan sovet ittifoqi davlati endi oyoqqa turgan bir vaqtda, barcha sohalarda eng yuqori texnologiyalarga ega Germaniya davlati bilan taqqoslash juda kiyin edi.

Bundan tashkari, sovet ittifoqi shaxsga sig‘inish oqibatida yetakchi taktik harbiylar, qo‘mondonlar, konstruktorlar, harbiy olimlar qamalgan yoki o‘ldirilgan edi. Ushbu holatlar sovet ittifoqining qisqa vaqtda yengilishidan darak berar edi. Ammo sovet ittifoqi davlatiga yordam beruvchi omillar, urush bo‘layotgan xududning kengligi, qishloq va shaharlar orasidagi masofalarning kattaligi va ularning bepoyon o‘rmonlardan tashkil topganligi, ularni bog‘laydigan magistral yo‘llarning yagonaligi, xalklarning o‘z rahbarlariga, g‘alabaga bo‘lgan ishonchi, so‘nmadi.

Albatta tarix fani voqealarni sonlarda ifodalashni xush ko‘radi. Shu sababli (ikkinchi jaxon urishida) U-Germaniya davlatining parametrlari bo‘lsa, X-sovet ittifoqi davlatining parametrlari deb qabul kilindi. Urush voqealari razvedka ma’lumotlariga, jangchilar bilan suhbat va muhbirlarning fotolavhalari hamda eng ishonchli gazeta (p= 20) manbalariga asoslangan holda ikki tomonlarning jangovar tarkiblari 1-jadvalda aks ettirilgan.

To‘rtta tanlanma parametrlari taqqoslandi: shaxsiy tarkib; artilleriya va minamyotlar, tanklar, samolyotlar.

1-jadval. Ikinchi jahon urushida Germaniya va Sovet Ittifoqi ko‘shinlarining tarkibi [1]

| Jang | Boshlang‘ich davri | Moskva | Stalingrad | Kursk | Dnepr |
|---|---|---|---|---|---|

| Nomi | Ge Germaniya | S SSSR | Ge Germaniya | S SSSR | Ge Germaniya | S SSSR | G Germaniya. | S SSSR | G Germaniya. | S SSSR |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| Shaxsiy tarkib (mln) | 5.50 | 2.90 | 1.93 | 1.25 | 0.27 | 0.16 | 0.90 | 1.27 | 1.24 | 2.63 |
| Artilleriya va to‘plari.(ming) | 47.2 | 32.9 | 14 | 10.5 | 3 | 2.2 | 10 | 20 | 12.6 | 51.2 |
| Tank(ming) | 4.30 | 14.20 | 1.70 | 1.04 | 0.40 | 0.50 | 2.7 | 3 | 2.10 | 2.48 |
| Samolyot(ming) | 4.95 | 1.54 | 1.39 | 1.37 | 1.20 | 0.60 | 2 | 2.65 | 2.10 | 2.85 |

Tanlanma qilib harbiy ahamiyatga ega bo‘lgan asosiy taktik parametrlarni o‘xshash belgilari orasidagi chiziqli korrelyatsion bog‘lanish zichligini baxolash uchun tanlanma korrelyatsiya koeffitsienti xizmat qiladi. Nochizikli korrelyatsion bog‘lanish zichligini baxolash uchun quyidagi yangi yigma xaraktiristikalar kiritiladi.

$n_{y_x}$-U ning X ga tanlanma korrelyatsion nisbati

$n_{y_x}$-X ning U ga tanlanma korrelyatsion nisbati

U ning X ga tanlanma korrelyatsion nisbati deb, guruhlararo o‘rtacha kvadratik

chetlanishining umumiy o‘rtacha kvadratik cheklanishini nisbatiga aytiladi:

Bu formulada (1jadval)

$$\eta_{y_x} = \frac{\sigma \bar{y}_x}{\sigma y} \quad (1)$$

$$\sigma \bar{u}_x = \frac{\sqrt{\sum n_x (\bar{y}_x - \bar{y})^2}}{n} \quad (2)$$

$$\sigma_y = \frac{\sqrt{\sum n_x (\overline{y_x} - \bar{y})^2}}{n} \quad (3)$$

Bu yerda -n tanlangan xajmi (barcha chastotalar yig‘indisi).

$n_x$ –X belgi sovet ittifoqi davlatining parametirlari

$x_1; x_2; x_3; x_4$

$x_1$- shaxsiy tarkib; $x_2$ – to‘p va mina; $x_3$ -tanklar soni; $x_4$ –Samoletlar soni

Xuddi shuningdek, y- Germaniya davlati parametirlari

ẏ- belgi Germaniya davlatining umumiy o‘rtacha kiymati

ẏₓ -belgi shartli o‘rtacha kiymati

X ning Yga tanlanma korrelyatsion nisbati (sovet ittifoqining Germaniya) ham shunga o‘xshash aniqlanadi

$$\eta_{\bar{x}_y} = \frac{\sigma_{\bar{x}_y}}{\sigma_x}$$

(2-jadval). Ikkinchi jahon urushining asosiy janglaridagi qo‘shinlarning tarkibi [2]

Ulug‘ Vatan urushining boshlanishidagi

| СССР / Germaniya | 2900000 | 329000 | 1800 | 1540 | $n_y$ |
|---|---|---|---|---|---|
| 5500000 | 1 | 2 | 3 | 1 | 7 |
| 47200 | - | 1 | 2 | 2 | 5 |
| 4300 | 1 | 2 | 1 | 1 | 5 |
| 4950 | 1 | 1 | 1 | - | 3 |
| $\tilde{n}_x$ | 3 | 6 | 7 | 4 | n=20 |
| $\bar{y}_x$ | 1836416,7 | 1843458,3 | 2371950 | 1399675 | |

Bu formulada (2- jadval)

Umumiy o‘rtacha qiymatni topamiz $\bar{y}_x = \frac{\sum y_i n_i}{N}$=1938617.5 (4)

Umumiy o‘rtacha kvadrat chetlanish $\sigma_y = \sqrt{\frac{\sum n_y (Y - \bar{y})^2}{N}}$ =6,38∗ $10^6$ (5)

Guruhlararo o‘rtacha kvadrat chetlanishi

$\sigma_{\bar{y}_x} = \sqrt{\frac{\sum n_x (\bar{y}_x - \bar{y})^2}{N}}$=$3.58 * 10^5$ (6)

$n_{\bar{y}_x} = \frac{\sigma_{\bar{y}_x}}{\sigma_y} = \frac{3.58*10^5}{6.83*10} = 0.052$ (7)

(3-jadval). Kursk jangi

| СССР / Germaniya | 1273000 | 200000 | 3000 | 265 | $n_y$ |
|---|---|---|---|---|---|
| 900000 | 1 | 2 | 3 | 1 | 7 |
| 10000 | - | 1 | 2 | 2 | 5 |
| 2700 | 1 | 2 | 1 | 1 | 5 |
| 2000 | 1 | 1 | 1 | - | 3 |
| $\tilde{n}_x$ | 3 | 6 | 7 | 4 | n=20 |
| $\bar{y}_x$ | 301566,7 | 302900 | 389242,9 | 230675 | |

Bu formulada (3jadval)

Umumiy o‘rtacha kiymatni topamiz

$\bar{Y} = \frac{\sum y * n_y}{N}$=318475 (8)

Umumiy o‘rtacha kvadratik chetlanish

$\sigma_y = \sqrt{\frac{\sum n_y (Y - \bar{y})^2}{N}}$=4,27*$10^5$ (9)

Guruxlararo o‘rtacha kvadratik chetlanish

$\sigma_y = \sqrt{\frac{\sum n_x (\bar{y}_x - \bar{y})^2}{N}}$=$6.64 * 10^4$ (10)

$$\eta_{\bar{y}_x} = \frac{\sigma_{\bar{y}_x}}{\sigma_y} = \frac{6.64 * 10}{4.27 * 10} = 0.156 * 10^4 = 0.16$$

2-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki G‘arbiy frontda Germaniya qo‘shinlarining kuchi yuqori, maqsadi dunyoda hukmdorlik qilish, bosqinchilikka moslashgan. Nazariy jihatdan Sovet davlatining G‘arbiy frontdagi jang qilish san’atini, yurtini mudofaa qilish,qanday to‘sqinlik qilishini, shahar va qishloq aholisining o‘z yurtiga bo‘lgan muhabbatini (partizanlik ishlari) nazriy jihatdan ko‘rsata olgan.

Shu sababdan G‘arbiy frontda Germaniya- sovet ittifoqi davlatlarining jang qilishdagi korrelyatsion bog‘lanishi ya’ni bir-birini jang qilishdagi o‘xshashligi $\sigma$=0,052 ga teng bo‘lib, matematik statistika qonunlari urushda tasodiflarning ko‘pligi, ularning jang qilishdagi o‘xshashliklarni kamligidan darak beradi (2-jadvalga qarang).

Kursk jangidan ko‘rinadiki Germaniya davlatining harbiy qurol-yarog‘ ishlab chiqarishi Sovet davlatiga nisbatan kamayganligi, nemis qo‘mondonligining tezlik rejasining bajarilmaganligi Germaniya jangchilarini galabaga nisbatan ishonchi kamaya bordi. Shu sababli Kursk jangi ikkinchi jahon urushining tub burilishi bo‘lib tarixga kirdi.

3-jadvaldan ko‘rinadiki Germaniya sovet ittifoki davlatining jang qilish taktikalari bir-birini 2 yildan ortiq vaqt oraligida o‘rgandi. Hatto sovet qo‘shinlari ishlab chiqqan rejalar nemis qo‘mondonlarini boshi berk ko‘chaga olib bordi. Ya’ni o‘z rejalarini moslashtirishga majbur qildi. Okibatda nemis jangchilari chekinishga majbur bo‘ldi. Germaniya davlatining oldida yagona yo‘l dahshatli qurol ishlab chiqarish uchun imkon qadar urushni chuzib: endi (atom bomba ishlab chiqish nazarda tutilgan). 3-jadvaldan kurinadiki Germaniya va sovet ittifoqi davlatlarining jang qilish taktikasi yillar davomida bir-birini o‘rganganligi sababli karrelyatsion bog‘lanish parametri $\sigma$ =0,16 ga teng bo‘lib bu qiymat Garbiy frontdagidan 32 marta kattaligini ko‘rsatadi. Ushbu matematik statistika ma’lumotlari esa tarixiy vokea bilan mos keladi.

Bepoyon Belorus va Rossiya o‘rmonlari, tarixda ko‘plab urushlarda, shu yerda yashovchi mahalliy xalqlar uchun, boshpana, ozik-ovkat zaxirasi hisoblanib kelgan va kelmoqda. Ikkinchi jahon urushida xam, kishlok aholisi qishloqdan tashqaridagi o‘rmonlarda dehqonchilikdan olingan mahsulotlarini, (bo‘g‘doy, kartoshka, o‘rmon mevalari, qo‘zikorin, yovvoyi asal, baliq, bug‘u go‘shti va issiq kiyim-kechak) o‘rmonlaridagi yerto‘lalarda yaxshi saqlagan. U yerda havfsiz yashash imkoniyati mavjud bo‘lgan. Eng muhimi urush vaktida o‘rmonga tanklar va harbiy texnikalarni kirishi kiyin, samolyotlar esa yerto‘lalarni payqashi deyarli imkonsiz edi. Nemis jangchilari qishloqlarga bostirib kirganlarida (kari kishilar va kasallardan) boshqa hech kim bo‘lmas edi. Shu sababdan, qishlok aholisi qurolsiz bo‘lsada yuqori darajada qurollangan nemis bosqinchilariga munosib qarshilik ko‘rsata olgan. Shunday ham bo‘ldi, partizanlik urushi avj oldi. Nemis askarlaridan chekinishga ulgira olmagan, yarador bo‘lgan, asirlikdan qochgan sovet askarlari yaqin qishloqlardagi aholi bilan birlashib, ularga ham jang qilish sirlarini o‘rgatdi va o‘q dorilar bilan ta’minladi. Eng muhimi sovet ittifoqi qurolli kuchlari bilan aloqalarni boglay boshladi.

Taqsimotning emperik funksiyasi

Aytaylik, X son belgi chastotalarining statistik taqsimoti ma’lum bo‘lsin. Quo‘dagicha belgilashlar kiritamiz: $n_x$- belgining x dan kichik kiymati kuzatilgan kuzatishlar soni; n- kuzatishlarning umumiy soni (tanlanma hajmi).

Ravshank, X<x xodisaning nisbiy chastotasi $\frac{n_x}{n}$ ga teng. Agar x o‘zgaradigan bo‘lsa, u holda umuman aytganda, nisbiy chastotasi ham o‘zgaradi, ya’ni $\frac{n_x}{n}$ nisbiy chastota x ning funksiyasidir. Bu funksiya empirik (tajriba ) yo‘l bilan topiladigan bo‘lgani uchun u emirik funksiya deyiladi.

Taqsimotning empirik funksiyasi (tanlanmaning taqsimot funksiyasi) deb har bir x kiymati uchun X x hodisaning ehtimolini aniqlaydigan F*(x) funksiyaga aytiladi. Shunday qilib, ta’rifga ko‘ra

$$F^*(x) = \frac{n_x}{n}$$

Bu yerda $n_x$- x dan kichik variantlar soni,

n-tanlanma xajmi.

Shunday qilib, masalan, F*($x_2$) ni topish uchun $x_2$ dan kichik variantlar sonini tanlanma hajmiga bo‘lish lozim;

$$F^*(x) = \frac{n_{x_2}}{n}$$

Bosh to‘plam taqsimotining F(x) integral funksiyasini, tanlanma taqsimotining empirik funksiyasidan farq qilib taqsimotning nazariy funksiyasi deyiladi. Empirik va nazariy funksiyalar orasidagi farq shundaki, F(x) nazariy funksiya X<x hodisa ehtimolini, F*(x) empirik funksiya esa shu hodisaning o‘zining nisbiy chastotasini aniqlaydi. Bernulli teoremasidan kelib chikadiki, X<x xodisaning nisbiy chastotasi , ya’ni F*(x) shu hodisaning F(x) ehtimoliga ehtimol bo‘yicha yaqinlashadi. Boshqacha so‘z bilan aytganda F*(x) va F(x) sonlar bir-biridan kam farq qiladi. Shu yerning o‘zidanoq, bosh to‘plam taqsimotining nazariy (integral) funksiyasini tarqibiy tasvirlashda tanlanma taqsimotining empirik funksiyasidan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘lishi kelib chikadi.

Bunday xulosa shu bilan ham tassdiqlanadiki, F*(x) funksiya F(x) ning barcha xossalariga ega. Darhaqiqat, F*(x) funksiyaning ta’rifidan uning quyidagi xossalari kelib chiqadi:

Empirik funksiyaning qiymatlari [0;1] kesmaga tegishli;

F*(x)- kamaymaydigan funksiya;

F*(x) $x_1$- eng kichik varianta bo‘lsa, u holda $x \leq x_1$ da F*(x)=0;

$x_1$- eng katta varianta bo‘lsa, u holda $x > x_1$ da F*(x)=1.

Shunday qilib, tanlanma taqsimotining empirik funksiyasi bosh to‘plam taqsimotining nazariy funksiyasini baholash uchun xizmat qiladi.

Tanlanmaning ko‘yida berilgan taksimoti bo‘yicha uning emperik funksiyasi ( sovet ittifoqi davlati uchun ) topilsin [3](4 jadval)

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| $x_1$ | 1540 | 329000 | 2900000 | N=20 |
| $n_1$ | 3 | 5 | 7 | |
| $P_i$ | 0,15 | 0,25 | 0,35 | |

1) Tanlanmaning hajmini topamiz

$n = n_1 + n_2 + n_3 + n_4 = 3 + 5 + 5 + 7 = 20$ (11)

Eng kichik varianti 1540, demak

F*(x )≤0 X≤1540 bo‘lganda

X<1800 kiymati uchun

$x_1$<1540 3 marta takrorlangan, demak, 1540 <x≤1800 bo‘lganda

F*(x ) =$\frac{3}{20}$=0,15

X<329000 kiymatlar chunonchi $x_1$<1540 va $x_2$<1800

kiymatlar 0,15+0,25=0,40

1800<x<329000 F*(x)=0,40

329000<x<2900000;F*(x)=0,65

X>2900000 da eng katta varianti bulgani uchun X>2900000 bo‘lganda F*(x)≤1
Izlanayotgan empirik funksiya ( sovet ittifoqi uchun)ning formulasini yozamiz

$$F^*(x)=\begin{cases} 0 & x\le 1540 \quad bo‘lganda \\ 0{,}15, & 1540<x\le 1800 \quad bo‘lganda \\ 0{,}40 & 1800<x\le 329000 \quad bo‘lganda \\ 0{,}65, & 329000<x\le 29*10^5 \quad bo‘lganda \\ 1 & x>29*10^5 \quad bo‘lganda \end{cases} \qquad (12)$$

Bu empirik funksiyaning grafigi 4- jadvalda tasvirlangan
F(X)=1540;1800;329000;290000;
F*(X)=0.15;0,45;0,60;0,75;0,90

1-rasm. Emperik funksiya grafigi




Ilmiy tadkikot (o‘lchanayotgan, kuzatayotgan, tajriba sinash)ning mikdorining xakikiy kiymati $a_{ni}$ baholashda, ishonchli interval deb, baholanayotgan parametri berilgan ishonchlilik bilan koplaydigan intervalga aytiladi.

Bosh to‘plamning normal taksimlangan X-mikdoriy belgisining M (x)=a matematik kutulishini $X_t$-tanlanma o‘rta kiymat bo‘yicha baholash uchun $\delta$ o‘rtacha kvadratik chetlanish ma’lum bo‘lganda

$$\bar{X}_t - t - \frac{\sigma}{\sqrt{n}} < a < \bar{X}_t + t * \frac{\sigma}{\sqrt{n}} \qquad (6)$$

(13)

Ishonchli interval xizmat kiladi (6) formulada $\delta \le$t x $\frac{\sigma}{\sqrt{\pi}}$ –bahoning anikligi, n –sinashlar (tanlanma) xajmi; t-ushbu F(t)-Laplas funksiyasi[5] (Gmurman.V.Ye-ehtimollar nazariyasi va matematik statistika (4 ilova) argumentining F(t)= $\frac{n}{2}$ bo‘lgandagi kiymati $\sigma$ noma’lum bulganda yukoridagi baxo uchun (6) interval xizmat kiladi.

$$\bar{X}_t - t * \frac{\sigma}{\sqrt{n}} < a < 1938618 + 155929$$

$$1938618 - 1{,}96 * \frac{358000}{4{,}15} < a < 1938618 + 1{,}96 * \frac{358000}{4{,}5}$$

$$1938618 - 155929 < a < 1938618 + 155929$$

$$1782689 < a < 2094547$$

Oxirgi tengsizlik bilan berilgan oxirgi oralikni baho 95% hakikat 5%chetlanish bilan. G‘arbiy frontga sovet ittifoqi kumondonligi (1782689; 2094547) oralikdag‘i son bilan urushga kirgan: kolgan kismi esa (4jadval) zaxirada yoki boshka ishlar bilan shug‘ullangan bo‘lishi mumkin, asosan shaxar va kishloklarda.

**Xulosa**. Ikkinchi jaxon urushi davrida Germaniya-sovet ittifoqi qumondonlikilari shaxar va qishloklarda olib borgan janglarini, adabietlar, kinofilmlar albomlar, foto suratlar urush katnashchilarining so‘zlari orkali tarixiy materiallar to‘planib, 95% aniklikda matematik statistika metodlari bo‘yicha taxlil kilindi. Ikkinchi jaxon urishining dastlabki kunlari G‘arbiy front bilan tub burilish deb tarixda nom olgan Kursk janglaridagi shaxar va kishlok joylaridagi janglarni olib borish taktikasi va jang kilishdagi o‘xshashliklarni korrelyatsion bog‘lanishlarini matematik metodlari bilan taxlil kilinib, natijalar real tarix vokeyalari bilan takkoslangan.

Maksad ikkinchi jaxon urushidagi tarixiy vokeyalarni mumkin qadar katta aniklikda real xolatda diagnostika qilish bo‘lajak yosh ofitserlarning shaxar va qishloklarda jang qilish san’atini yanada boy etishdan iborat. har bir tarixiy voqillarni anikligini o‘zgarmasdan taxlil qilishni yosh harbiylarga o‘rgatishdan iborat.

## ADABIYOTLAR

1. Поспелов П.Н. (председатель), Великая Отечественная война Советского Союза 1941-1945 краткая история. Издания второе, исправленное и дополненное. Издателства Министерства Обороны СССР Москва-1970 С.-115.
2. Поспелов П.Р. Перед началом ВОВ. МО.- М.-1970. С. 35-36-52.
3. Поспелов П.Р. История Великой Отечественной воны Советского Союза 1941-1945 в шести томах М-1961 С-147-148.
4. Данко П.Е., Попов А.Г., Высшая математика в упражнениях и задачах част II. М-1974 С.291-297.
5. Gmurman V.Ye. Ehtimollar nazaryasi va matematik statistika. O‘qituvchi T-1990 B-217-228